

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



« Geodeziya, kartografiya,geografiya» kafedrası

**“SHAHARLAR GEOGRAFIYASI”
FANIDAN
O`QUV- USLUBIY MAJMUA**

Geografiya bakalavriyat ta'lim yo`nalishlari uchun

URGANCH-2017

1-Ma'ruza: Shaharlar geografiyasi fanining ob'ekti va predmeti, maqsad va vazifalari

REJA:

- 1. Shaharlar geografiyasi – iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining bir tarmog'i sifatida.**
- 2. Fanning ob'ekti va predmeti.**
- 3. Shaharlar geografiyasini o'rganishning maqsad va vazifalari.**
- 4. Shaharlarni geografik o'rganish.**

Tayanch so'zlar: Geourbanistika, areal, dorul, baytul, sharif, hududiy tarkib, urbanistik tarkib, tarixiy shahar.

Geourbanistika yoxud shaharlar geografiyasi aholi va aholi manzilgohlari va umuman, iqtisodiy va sotsial geografiyaning eng rivojlangan yo'nalishidir. Shaharlar boshqa iqtisodiy geografik ob'ektlarga qaraganda o'zining yaxlit, darhol ko'zga tashlanib turishi bilan farqlanadi. Buning sababi — ularning ishlab chiqarish, ijtimoiy — iqtisodiy voqelikni xududda, geografik xaritada o'ziga xos tasvirlashdir.

Ma'lumki, iqtisodiy xaritalarda asosan uch xududiy shakl ko'rsatiladi: chiziqlar yo'llarga mos kelsa, areal yoki maydonlar — qishloq xo'jalik soxalariga, nuqta va tugunlar (tugunchalar) esa sanoat markazlari, shaharlarni aks ettiradi. Binobarin, aytish mumkinki, iqtisodiy va sotsial geografiyaning asosiy tadqiqot ob'ekti ana shu uchlik, xududiy yoki geografik geometriya hisoblanadi va ularni tahlil etish bu fanning tub masalasidir.

Shaharlar geografiyasining iqtisodiy va sotsial geografiya fani doirasidagi bunday yutug'ini boisi nima? Avvalambor, ta'kidlash lozimki, shaharlar xududiy birlikdir ikkinchidan, ular murakkab sotsial—iqtisodiy kategoriya; uchinchidan, shaharlarda atrof-muhit, mazkur xududning ijtimoiy - iqtisodiy faoliyati, misli oynada aksini topganidek, yaxlit mujassamlanadi; to'rtinchidan, shaharlar har bir davlat, hudud, iqtisodiy va sotsial geografik tizimning tayanch nuqtalari, «ustunlari» bo'lib xizmat qiladi, Shaharlar –

bizning o‘tmishimiz, hozirgi kundagi qudratimiz va istiqbolda rivojlanish quvvati va imkoniyatimizdir. Ular yerdagi chinakam porloq yulduzlardir.

Shaharlar juda murakkab mavjudot bo‘lib, serqirrali vazifalarni bajaradi. Siyosiy jihatdan olsak, har bir davlat o‘zining shaharlar to‘ri va, ayniqsa, poytaxti (dorulsaltanati) bilan kuchlidir. Bejiz emaski, har qanday urush — yurtllar muvaffaqiyati va zafari dushmanning shahar va qal’alarini zabt etishda, bo‘yin so‘ndirilganda o‘z isbotini topgan. Demak, qadimda shaharlar butun yurtga, mamlakatga, boylikka nisbat berilgan. Ularni turli mamlakat yoki «iqlimlarda» turlicha atashgan: qubba, madinat, polis, bolig, bozor, taun, grad, pur, burg, vil va hokazolar ayni paytda shaharlar geografiyasining kengligidan dalolat beradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, shaharlar davlatlarning siyosiy xayotida, ularning jahon hamjamiyatida, geosiyosiy, tuzilmasida muxim rol o‘ynaydi.

Har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining tarkibi, rivojlanganlik darajasi va xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rni, undagi mavjud shaharlar tizimi, urbanizatsiya jarayoni bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda shaharlarning ilmiy — texnikaviy, madaniy salohiyatlari ham salmoqlidir.

Shaharlar bozor iqtisodiyotiga o‘tishda asosiy omil bo‘lib xizmat kiladi. Ularda mavjud bo‘lgan bank-moliya tizimlarini bozor infrastrukturasi ma’nosida ta’riflash mumkin. Binobarin, mustaqil mamlakatimizning siyosiy hayoti va uning bozor munosabatlariga o‘tish davrida shaharlarning ahamiyati beqiyosdir. Shaharlarda zamonaviy tarmoqlar, ilg‘or texnologiya joriy etish imkoniyati katta; xorijiy sarmoyadorlar ham asosan shaharlar va ayniqsa infrastruktura tizimi mukammal shakllangan markazlarni tanlashadi. Shaharlarda tovar ayriboshlash, pul oboroti (aylanish) faol bo‘ladi. Bularning barchasi shaharlarga yangicha qarashni taqozo etadi.

Shaharning madaniy—ma’naviy, diniy, tarixiy jihatlarini ham unutmaslik lozim. Qadimda, xususan, dini islomda shaharlarga oydek nisbat berilgan, ular dorul, bayt-ul, sharif kabi iboralar bilan ulug‘langan. Agar dashtiy yovuzlar

shaharlar rivojlanishiga qarshi bo'lgan bo'lsalar, musulmon olamida shaharlarni barpo etish va ularni yuksaltirishga jiddiy e'tibor berilgan.

O'tmishda shaharlarning goh avj olishi, goh tushkunlikka uchrashi madaniyat (sivilizatsiya), ijtimoiy rivojlanishning doimiy yo'ldoshi bo'lgan va ana shunday davriy notekisliklar tarix bosqichlarini belgilab turgan. Shuning uchun yurtning tarixi, tavsifi va taqdiri ko'p jihatdan uning shaharlari bilan bogliqdir.

Har qanday shaharlar azaliy va abadiy muqaddas joylardir, chunki bu joylarda buyuk avliyo va allomalar qabri mavjud. Ko'pgina shaharlar ana shunday fazilatga ega. Bu borada Makkai Madina, Buxoro, Turkiston, Samarqand, Xiva, Toshkent, Termiz, G'ijduvon, Shahrisabz, Chustga o'xshash shaharlarni tilga olish kifoyadir.

Shaharlarimizning xosiyatli tuprog'i, yeru suvi dunyoga mashxur siymolarni bergan. Ular esa ismi—shariflari bilan o'z navbatida tug'ilgan va yashagan shaharlarni dunyoga mashxur qilgan, abadiylashtirgan.

Shaharlarning muqaddasligi qadamjoylar va mozorlar bilan bog'liq bo'lgan qabristonlar shaharlarning o'tmish sirlari, tarixini saqlaydi, ulardagi bozorlar esa yurtning ijtimoiy hayotini miniatyurada mujassamlantiradi. Binobarin, shaharlar shu o'lka, diyorning iqtisodiy va sotsial, ijtimoiy geografiasini ko'zgusidir.

Halqimiz hayotida bozorlar azaldan muhim o'rin tutgan; bozori bor joy shahar deb yuritilgan (hozir ham Xitoyning Uyg'uristonida kichik shaharlar, rayon markazlari ba'zan bozor deb aytiladi). Bozorlar mamlakatning turli shaharlarida haftaning deyarli har kunida navbatma—navbat uyushtirilgan, ayniqsa, chorshanba, payshanba, juma va yakshanba kunlari bozorlar nihoyatda gavjum bo'lgan. Shu bois sharq bozorlarining shahar xosil qiluvchi vazifasi ularning shahar xalqigagina emas, balki butun atrof axliga xizmat qilishda qurilgan. Shaharliklar uchun bozorlar har kuni va bir joyda muhim, barqaror bo'lsa, qishloq axliga esa bozor har kuni va har joyda bo'lgan. Bozor kunini oila a'zolari zoriqib kutishgan, shu kunga mo'ljallangan ma'lum

maqsadlarni rejalashtirgan; bozor bolajonlarga sovg'a bergan, oilaga ro'zg'or yumushlarini bajargan, oila va qo'ni-qo'shni, maxalla uchun axborot vazifasini ado etib kelgan.

Shaharlar geografiyasi sanoat, transport, aholi geografiyasi, hamda shaharsozlik va rayon planirovkasi, sotsiologiya, demografiya, aholiga xizmat ko'rsatish soxalari geografiyasi kabi yo'nalishlar bilan aloqa qiladi. Uni o'rganishda geografik taqqoslash, kartografiya, tarixiy, statistik, modellashtirish va boshqa metodlardan foydalaniladi.

Shaharlarni geografik o'rganish. Davlatlar va iqtisodiy rayonlarni o'rganishda, o'lkashunoslikda bu hududlarning umumiy ta'rifidan shaharlarga o'tiladi, ya'ni shaharlar mamlakatlar ichki tuzilishi, xo'jalik tarkibi va hududiy tafovutlarni bilib olishda tahlil qilinadi. Demak, bunday an'anaviy yo'nalishda shaharlar o'lka, hudud iqtisodiy ta'rifining poyonida, yakuniy bo'g'inidan o'rin olgan. Biroq bu masalani aksincha, muqobil ravishda ham hal etish imkoniyati bor: shaharlarning jamiyat hayoti va uning sotsial—iqtisodiy tuzilmasini aniq va asosiy hududiy shakli ekanligidan kelib chiqqan xolda mamlakat tavsifini, uning shaharlaridan boshlash mumkin.

Shaharlar mamlakat va iqtisodiy rayonlar geografiyasida o'rganilishi bilan bir qatorda ular alohida tadqiqot ob'ekti bo'lib ham xizmat qiladi. Bu borada, ya'ni shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganish tartibi haqida ilmiy—uslubiy adabiyotlarda ko'pgina taniqli olimlarning ko'rsatmalari mavjud. Albatta, shaharlarni o'rganish avvalambor ularning tarixi, kelib chiqishi, genetik xususiyatlarini tahlil qilishdan boshlanadi. Natijada, asosan tarixiy manbalarga tayangan xolda, o'rganilayotgan shahar yoki shaharlarning nima uchun aynan shu joyda va o'tmishning aynan shu bosqichida vujudga kelganligi yoritilib beriladi.

Shaharlarni retrospektiv o'rganish tarixiy tamoyilga binoan bajariladi: qo'yilgan maqsad nuqtai nazaridan o'tmish ma'lum tarixiy davrlarga bo'linadi va har bir davrning shahar (shaharlar) shakllanish va rivojlanishiga bo'lgan ta'siri tadqiq etiladi. Ammo, bu yerda tarixning «ikir—chikiriga» o'tib

ketilmaydi, geografiya tarix uchun emas, aksincha tarix geografiyaga xizmat qilishi kerak.

Mamlakatimiz shaharlarini o'rganishda, ularni bunyod etilganligidan boshlab, hozirgi kungacha bosib o'tgan yo'lidagi asosiy tarixiy, davriy voqealar qisqacha ko'rib chiqiladi va ular mavjud borliqdan kelib chiqqan xolda baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, shaharlarning tarixi vujudga kelgan va rivojlanib ketgan davr nuqtai nazaridagina emas (bu asosan tarixning vazifasi), balki, ularning hozirgi vaqtdagi xolatidan kelib chiqib ham tahlil qilinadi. Tarixiy geografiya uchun esa har bir hodisa o'sha davrdan kelib chiqib tahlil etilishi va baholanishi lozim. Zero, Geraklit aytganidek, «Ayni bir oqimga bir vaqtning o'zida ikki marta tushib bo'lmaydi». Chunki, ikkinchi marta kirganda oqim (suv) ham, unga tushuvchi ham ilgariidek emas, o'zgargan bo'ladi.

O'zbekiston shaharlarini o'rganishda, ularning qadimiy va boy tarixidan tashqari, rus va sovetlar imperiyasi davrlari ham ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng shaharlar shakllanishi va rivojlanishidagi mamlakatimizning mustaqillik davriga aloxida e'tibor berish lozim.

O'rganilayotgan shahar yoki shaharlar tarixiga ko'ra, ularning genetik turlari ajratiladi, «yangi» va «eski» shaharlar guruhi aniqlanadi. Endigi sharoitda «yangi shaharlarni» sobiq sovetlar davrida vujudga kelganligi bilan asoslash nodurustdir. Qolaversa, yangi shahar tushunchasining o'zi ham nisbiydir. Keng ma'noda, yurtimizning yangi tarixiga muvofiq «yangi shaharlar» deb ularni Turkiston Rossiya tomonidan zabt etib olingan (XIX asr yarmi) davrdan so'ng paydo bo'lganlarini aytish mumkin. Bunday shaharlar turkumiga Farg'ona (YAngi Marg'ilon, Skobelev), Kogon (YAngi Buxoro), To'rtko'l (Petroaleksandrovsk)lardan boshlab keyingi yillarda vujudga kelgan barcha shaharlar kiritiladi. Shu ma'noda sobiq SSSR davrida barpo bo'lgan shaharlar (Navoiy, Zarafshon, SHirin, Drujba, Marjonbuloq, Tollimarjon, Yangier va boshqalar) ham yangilar qatoriga kiradi. Ammo iqtisodiy va sotsial geografiya nuqtai nazaridan qaraganda butunlay «bo'sh» yoki o'zlashtirilmagan joylarda

hamda keyingi qisqa davrda aholisi va xo‘jaligi keskin rivojlangan va tashqi qiyofasi tubdan o‘zgargan manzilgohlarni tom ma’nodagi yangi shaharlar deb atash to‘g‘riroqdir.

Shaharlar geografiyasini o‘rganishdagi navbatdagi bosqich ularni katta—kichikligi bo‘yicha tabaqalashtirish (klassifikatsiyalashtirish)dan iboratdir. Bu erda qo‘yilgan maqsad va tadqiq qilinayotgan ob’ekt xususiyatidan kelib chiqib, shaharlar turi aholi soni bo‘yicha turlidaraja yoki klasslarga ajratiladi. Eng avvalo ular, 3 guruhga: katta, o‘rta va kichik shaharlarga bo‘linadi, maxsus tadqiqotlarda esa yanada kengroq klassifikatsiya qo‘llaniladi. Tabiiyki, katta yoki kichik shahar tushunchasi ham nisbiydir. Masalan, Toshkent darajasidan xatto azim Samarqand yoki Namangan ham kichik shahardir (Yaponlar «shahar nima?» savoliga «bu Tokiodir» deb javob berishgan ekan). Ayni paytda mamlakatimiz qishloq joylari ichkarisidan qaraganda tuman markazi—kichik shahar ham ular uchun katta, yoki Chiroqchi aholisining nigohida shahar—bu, eng avvalo, Qamashi va Chiroqchidir; Qarshi, Samarqand, Toshkent esa ular uchun nihoyatda ulkan, azim shahar hisoblanadi. Baholash sun‘iylikka ega ekan. Biroq bunday qarash, odatda oddiy hayotiy va an‘anaviy, kundalik andozalarga mos keladi, xolos. Ilmiy izlanishlarda esa har bir tadqiqot ob’ekti uchungina emas, balki mamlakat miqyosida rasmiy ravishda qabul qilingan ma’lum andozalarga amal qilish kerak. Bu ayni paytda, turli viloyat va mamlakatlar shaharlarini qiyosiy geografik o‘rganishda ham ko‘l keladi.

Shaharlar kelib chiqishi va ularni klassifikatsiyalash natijalari maxsus statistik jadval, diagramma, grafik va xaritalar yordamida tasvirlanishi shart. Jumladan, shaharlar, tabaqalanishini piramida shaklida ko‘rsatish ham nihoyatda maqbulusul xisoblanadi. Chunki, bunday tasvirda mamlakat yoki viloyatning qaysi bo‘g‘inidagi shaharlari ko‘p yoki kam, kuchli yoki zaifligi va ushbu muammoni hal etish yo‘llari, manbalari yaqqol ko‘rinadi. Ayni chog‘da, bu holat mamlakatyoki rayon xo‘jaligining hududiy mujassamlashuv xususiyatini aks ettiradi. Shaharlar miqdoriy darajalari bilan birga, ular sifat ko‘rsatkichlari, bajaradigan vazifalari (funktsiyalari) bo‘yicha ham bir-biriga o‘xshash emas.

Ma'lumki, juda ko'p shaharlar turli maqomdagi ma'muriy markaz vazifasini o'taydilar. Ular orasida ko'pchilikni tuman markazlari, undan kamrog'ini — viloyat va faqat bittasi esa mamlakat ma'muriy—siyosiy, ya'ni poytaxt funksiyasini bajaradi.

Xo'jalik jihatidan yondashganda, juda ko'p shaharlar sanoat va transport markazi, ayrimlari dam olish (rekreatsiya), fan markazlari hisoblanadi. Shaharlarning bajaradigan vazifasini, ixtisoslashuvini aniqlashda, asosan band bo'lgan aholi tarkibi tahlil etiladi. Shunga ko'ra, sanoat, transport yoki fan — texnika markazlari ajratiladi. Sanoat shaharlari ichida ko'p tarmoqli sanoat markazi, og'ir va engil sanoat, resurs shaharlar kabi funksional tiplar belgilanadi. Agarda ana shunday shaharlar toifalari ularning katta—kichikligi, bosqichlari bilan birgalikda ko'rilsa, tadqiqot yanada chuqur va samarali bo'ladi.

O'rganishlar natijasida, shaharlar iqtisodiy geografiyasining eng muhim qonuniyati o'z isbotini topadi. Bu ham bo'lsa, shaharlarning bajaradigan vazifasi ixtisoslashuvi, funksiyasi ularning katta yoki kichikligini belgilashidir.

Shaharlarni o'rganishda, ularning iqtisodiy geografik o'rni, ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllariga alohida e'tibor berish kerak. Bu borada ayniqsa, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi, ixtisoslashuvi, kooperatsiya va kombinatlashuvini, sanoat tuguni va majmualarini tadqiq qilish muhimdir. Bunday iqtisodiy ko'rsatkichlar statistik usullar, hisob—kitoblar yordamida aniqlanadi, shaharlar ko'rsatkichlari boshqa shaharlar va mamlakatlar o'rtacha holati bilan taqqoslanadi.

Jumladan, mujassamlashuv va ixtisoslashuv koeffitsienti va indeksleri, tarmoqlarning turlanishi (diversifikatsiyasi), aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti, rivojlanganlik darajasi va boshqalar hisoblab chiqiladi.

Ma'lumki, xozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida, ishlab chiqarishning yuqori darajada mujassamlashuvi, yirik korxonalarni qurish ko'p jihatdan maqbul emas. Shu sababdan bugungi sharoitda sanoatni joylashtirish asosida shaharlarning vujudga kelishi va ularning keskin

rivojlanishi nisbatan kam uchraydigan xolatdir. Bundan ulkan qo'shma korxonalar, qurilayotgan Asaka, Qorovulbozor shaharlari mustasnodir.

Shu bilan birga, azaldan mavjud bo'lgan kichik shaharlar muammosi hozirgi kunda boshqacha ma'no kasb etadi. Bunday shaharlarning birdan-bir ijobiy imkoiyyati, ularda mehnat resurslarining ko'pligi, qishloq rayonlariga yaqinligidir. Biroq, kichik shaharlar moliyaviy jihatdan zaif, o'z-o'zlarini boshkarishlari qiyin va davlat yordamiga muhtoj. Uning ustiga, mazkur shaharlarda malakali ishchi xodimlar oz, zamonaviy infrastruktura tizimi to'la shakllanmagan. Binobarin, kichik shaharlarimizga katta muammolar xos, deb aytishimiz mumkin.

Ana shunday sharoitda, xorijiy sarmoyadorlar ko'prok katta shahar muhitini istaydilar, qo'shma va kichik korxonalar qurish imkoniyatlari ham bunday shaharlarda kengrok. Demak, endigi sharoitda, katta shaharlarda kichik korxonalar ko'prok yaratilmokda, kichik shaharlarda esa, agar ular moddiy va moliyaviy qo'llab—quvvatlansa, yirik sanoat korxonalari ham quriladi. Ammo barcha kichik shaharlarni bunday rivojlantirish mumkin emas: vaqt ham, kapital mablag', sarmoya ham etishmaydi. Binobarin, kichik shaharlarning ayrimlarigina tanlab olinadi va ular o'sish qutbi hamda markazi sifatida rivojlantiriladi. Bunday shaharlarni ajratib olish esa, ularning ko'p omilli tahlil etilishi va baholanishi (iqtisodiy geografik o'rni, mehnat va xom ashyo resurslari, ekologik xolati, transport va boshqa infrastrukturasini, funksiyasi, katta-kichikligi va x.k.) asosida amalga oshiriladi.

Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganishda, ularning transport funksiyasiga ham alohida e'tibor beriladi. Shahar va transport yo'llari o'zaro chambarchas bog'liq, biri ikkinchisiz bo'lmaydi, yo'llar shaharlarga keladi, shaharlardan yo'llar ketadi. Xullas, shaharlar va yo'llar bu mamlakatning iqtisodiy asosi, «qovurg'asi» hisoblanadi.

Shuningdek, shaharlarning sotsial funksiyalari, fan va ta'lim tizimi, madaniyati, aholiga xizmat ko'rsatish soxalari, ekologik vaziyati, aholisining o'sishi kabi masalalar ham o'rganiladi. Shu o'rinda poytaxt shaharlarini alohida

ta'kidlash joiz. Chunki har qanday mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqei, xalqaro va diplomatik aloqalar, siyosiy xayoti, eng avvalo, uning poytaxti bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, olamshumul va umumbashariy muammolar xususida rasmiy so'z yuritilganda, odatda davlatlarning poytaxti nomidan gapiriladi. Shu bois, poytaxt shaharlarning «yuki», mas'uliyatlari nihoyatda vazmin: ular bir tomondan mamlakatni, hududiy—siyosiy jihatdan tashkil qilish, boshqarish vazifasini ado etsa, ikkinchi tomondan bunday markazlar davlatni jahon miqyosiga munosib ravishda olib chiqishlari kerak. Aynan ana shu ma'noda har qanday davlat o'z taqdirini poytaxtiga topshiradi.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikka erishuvi munosabati bilan uning poytaxti—Toshkent jahon geosiyosiy tuzilmasining sub'ektiga aylandi. Avvallari Toshkent sobiq Ittifoq poytaxti—Moskva «soyasida» qolgan bo'lsa, endi u dunyodagi barcha mamlakatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muomila qiladi. Demak, poytaxt shaharlar rivojlanishiga alohida e'tibor berilishi qonuniy xoldir. Sababi—yurtimizga kelganlar, avvalambor, uning poytaxtiga qarab baho berib ketadilar. Shu nuqtai nazardan mamlakatimiz shaharlarining sardori, karvonboshisi, dorulsaltanati azim Toshkent shahrining mustaqillik sharofati bilan qisqa vaqt ichida qiyofasini tubdan o'zgarishi quvonchlidir.

Poytaxt bilan bir qatorda viloyat markazlari, yirik sanoat shaharlari, qadimiy shaharlarni o'rganish ham katta ahamiyatga ega (chunki har qanday poytaxt o'z atrofi, o'lkalari bilan kuchli). Shu o'rinda shaharlar geografiyasi bilan shahar geografiyasini farq qila olish kerak. Birinchisida, mamlakat yoki viloyatlarning shaharlar turi, tarkibi va tizimi tadqiq etilsa, ikkinchisida alohida olingan bir shahar o'rganish ob'ekti shaklida namoyon bo'ladi. Bunday mikrogeografik, yirik masshtabli tadqiqotlar bizda afsuski, hozircha kam bajariladi (xorijiy davlatlarda bu yo'nalish ancha ilgari ketgan). Vaxolanki, shaharlar ichki geografiyasini, hududiy tuzilishini o'rganishning muhim amaliy (konstruktiv) jixatlari mavjud. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar, an'anaviy iqtisodiy geografik o'rganishlarni, sotsial geografik izlanishlarga, loyihalashtirish va shaharsozlikda, ularni rejalashtirishda juda qo'l keladi.

Bundayishlarni bajarishda diagramma, statistik jadval va grafiklardan tashqari maxsus sotsiologik usullar, anketa—so‘rovlar o‘tkazishni unutmaslik kerak.

Shahar funksiyasining tahlili, ularning demografik jarayonlarini o‘rganish bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq. Zero, shaharlarning rivojlanishi, amalda, ulardagi aholi miqdori, uning o‘sinh sur‘atlarida o‘z aksini topadi. Shuning uchun, shaharlar aholi sonining dinamikasi, tabiiy va mexanik harakati, yosh va jinsiy, milliy tarkiblari qisqacha ko‘rib chiqiladi, tadqiqot natijalari jadval, grafik va kartalarda tasvirlanadi.


Geourbanistikada shaharlarniig katta—kichikligi, zichligi, ular orasidagi masofa, urbanistik va hududiy—urbanistik tarkibi ham o‘rganiladi. Shuningdek, shahar manzilgohlarining hududiy tashkil etilishidagi, murakkab shakllar—shaharlar aglomeratsiyalari mamlakat yoki viloyat shaharlari geografiyasi doirasida va shu bilan birga alohida tadqiqot ob’ekti darajasida ko‘rilishi kerak.

Urbanistik tarkib deganda, shaharlar turi va tarkibi katta shaharlarning mavjudligi va mavqei tushuniladi. Hududiy urbanistik tarkibda esa, mamlakat turli rayon va viloyatlarning har xil bosqichdagi shaharlar va xususan, yirik markazlar bilan ta’minlanganlik darajasi nazarda tutiladi.

Shaharlar rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni bilan birgalikda o‘rganib boriladi. Ammo, bu olamshumul hodisa mamlakat tarixi, an’analari, ishlab chiqarishning tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi va hududiy tashkil etish shakllaridan kelib chiqqan xolda baholanishi zarur. Shu jihatdan yondashganda O‘zbekistonning urbanizatsiya jarayonida ham o‘ziga xos va mos, betakror yo‘li bo‘lmog‘i tabiiydir.

Shaharlarni geografik o‘rganishda, faqatgina ilmiyadabiyotlar yoki xaritalar kifoya qilmaydi. Buning uchun o‘sha shaharlarni mumkin qadar bevosita ko‘rish zarur. Ko‘rganda ham, shahar markazidagi mexmonxonada yashab ketishning o‘zi kifoya emas. Buning uchun, shaharning turli tomonini jonli ravishda kuzatish, chor atrofi bilan bevosita tanishish va shu asosda, uning hududiy ko‘lami va ichki tafovutlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilmoqlazim.

Ayni paytda, faqat shaharning o'zini alohida olib qarash, uni yopik tizim shaklida faraz kilish maqsadga muvofiqbo'lmaydi. Bu esa mantiqiy jihatdan ham to'g'ri emas. Chunki, har qanday shahar o'z atrofisiz, qishlok joylarisiz, mutlaqo ajralgan holda vujudga kelmaydi va rivojlanmaydi. Shaharlar, misli tog'relefidek, iqtisodiy xaritada o'ziga xos cho'qqilarni aks ettiradi va bu nuqtalar faqat atrof muxit, ma'lum hudud davrasidagina yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu ob'ektiv borliqdan kelib chiqib, shaharlar yoki shahar geografiyasini, ularning barpo bo'lishi, xozirgi kuni va kelajagini atrof joylar bilan birgalikda o'rganiladi. Zero, aynan shu hudud imkoniyati, qudrati va salohiyati tufayli bu shahar bo'rtib chiqkan, yuksalgan. Shunday qilib, shahar yoki shaharlarni geografik o'rganishda ko'yidagi tartibga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.



Izoh: Qadimiy va xozirgi shaharlarning ko'rinishi.

Nazorat uchun savollar:

1. Shahar tushunchasi.
2. Shaharlar geografiyasining ob'ekti nima?
3. Shaharlarni geografik o'rganish.
4. Shaharlarning tarixiy shakllanishi.
5. Shaharlarning tabiiy geografik o'rni.
6. Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni.
7. Shaharlarning iqtisodiy muammolari.
8. Shahar aholisi va shaharda aholini ish bilan ta'minlash masalalari qanday.
9. Shaharlardagi etnik muammolar nimalardan iborat.
10. Shaharlarda uy-joy masalalari va yer muammosi.

Savol va topshiriqlar

1. Shaharlar geografiyasi nimani o'rganadi?
2. "Shahar" tushunchasiga izoh bering.
3. "Eski" va "Yangi" shahar deganda nimani tushunasiz?
4. Shaharlarni geografik o'rganishning qanday ahamiyati bor?

2-Ma'ruza: Shaharlarning vujudga kelish tarixi va ularni hosil qiluvchi asosiy omillar .

Reja:

1. Shaharlarning tarixiy shakllanishi va "shahar" haqida tushuncha.
2. Qadimgi va hozirgi yirik shaharlarning rivojlanish tarixi.
3. Iqtisodiy va tabiiy geografik o'rinning shaharlashishga ta'siri.
4. Shakllanishiga oid gipotezalar.

Tayanch tushunchalar: Shahar

davlat, sotsium, mezogeografik, mikrogeografik, makrogeografik.

Shaharlarning ham tarixi uzoq. Biroq bu tarix insoniyat tarixidan qisqa bo'lib, bu davr jamiyat tarixiga mos keladi. Shaharlar jamiyatning hududiy birikmasi (sotsiumi) shaklida sinfiy tuzum, ya'ni quldorlik davrida ko'proq

rivojlana boshladi. Umuman olganda, shaharlarning vujudga kelishini ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'laydilar.

Ma'lumki, dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Dehqonchilik, xususan sug'orma dehqonchilikning paydo bo'lishi muhim, doimiy (statsionar) aholi manzilgohlarining barpo bo'lishiga sabab bo'ldi. Dastlabki sug'orish inshootlari yoki vositalarini ko'pchilik qurar edi, undan ko'pchilik foydalanar va ularni ko'pchilik qo'riqlardi. Shu asosda kishilarning qadimiy jamoasi vujudga keladi. Ammo bu jamoa (jamiyat emas!) kishilarning hududiy birligi u davrda shahar ham qishloq ham deb aytilmasdi.

Shahar va ijtimoiy mehnat taqsimotining navbatdagi bosqichi, ya'ni dehqonchilikdan hunarmandchilik va savdoning ajralib chiqishi natijasida paydo bo'ladi. Ushbu kasbdagi kishilar bevosita qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydilar va binobarin, ular har xil mehnat qurollari ishlab chiqarish, hamda tovar ayriboshlash (almashtirish) da vositachilik vazifasini bajargan, qulay joyda o'rnatilgan aholi punktlarida yashaganlar. Keyinchalik bunday joylar "shahar" deb atalgan.

Quldorlik davrida shaharlar qul savdosi markazi bo'lgan. Ayni shu vaqtda ular davlat markazlari vazifasini ham o'taganlar. Natijada shahar-davlat (goroda-polisı) vujudga kelgan. Masalan, Rim, Afina, Vizantiya, Vavilon, Buxoro, Samarqand(Marokand) shular jumlasidandir.

Feodalizmda shaharlar rivojlanishining hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi, yerdan foydalanish bilan (feod-er) bog'liq bo'lgan. Bu davrda shaharlarkatta hududlarning siyosiy, diniy, iqtisodiy va madaniy hamda savdo markazlari funksiyasini bajargan.

Shaharlarning jadal taraqqiy etishi, hozirgi zamon urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi ko'p mamlakatlarda kapitalistik ishlab chiqarish, iqtisod, moliya, transport va boshqa sohalarni mujassamlashuvi asosida sodir bo'lgan. Bizning o'lkamizda esa shaharlar an'anaviy ravishda (sharq madaniyatiga xos holda) sug'orma dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik negizida rivojlanib kelgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki "shahar" tushunchasi, barcha el-yurtlarda, mamlakat va muzofotlarda aynan bir ma'noda talqin qilinmaydi, ular bunday maqomda turli davlatlarda turlicha belgilangan. G'arb mamlakatlarida shaharlar aholi soni va zichligi, joylarni arxitekturasini va qurilish shakli, manzilgohning bajaradigan vazifasiga o'xshash mezonlar orqali ajratilgan. O'zbekistonda 1972 yildan beri aholi manzilgohining shahar maqomini olishi uchun eng kamida 7 ming aholiga ega bo'lishi hamda ularning ko'pchiligi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan sohalarda band bo'lmog'i shart.

Shaharlar murakkab tushuncha . Shu bois ulardan turli fan vakillari har xil talqin qiladilar. Masalan, iqtisod uchun shahar asosan ishlab chiqarish eng avvalo sanoat markazi, sotsiologiya uchun o'ziga xos yashash muhiti, tarixchi uchun o'tmishdan guvohlik beruvchi joydir va h.k. Iqtisodiy geografiyada esa shahar-bu qishloq xo'jaligi bo'lmagan sohalarda va ular bilan shug'ullanuvchi aholining hududiy tashkil etish shakllaridir; u dinamik ijtimoiy-iqtisodiy tizim (sistema) hisoblanadi.

Shaharning madaniy-ma'naviy, diniy, tarixiy jihatlarini ham unutmaslik lozim. Qadimda xususan diniy islomda shaharlarga oydek nisbatan berilgan, ular dorul, bayt-ul, sharif kabi iboralar bilan ulug'langan. Agar dashtiy yovuzlar shaharlar rivojlanishiga qarshi bo'lgan bo'lsalar, musulmon olamida shaharlarni barpo etish va ularni yuksaltirishga jiddiy e'tibor berilgan.

O'tmishda shaharlarning goh avj olishi goh tushkunlikka uchrashi madaniyat (tsivilizatsiya) ijtimoiy rivojlanishning doimiy yo'ldoshi bo'lgan ana shunday davriy notekisliklar tarix bosqichlarini belgilab turgan. Shuning uchun yurtning tarixi, tavsifi va taqdiri ko'p jihatdan uning shaharlari bilan bog'liqdir.

Har qanday shaharlar azaliy va abadiy muqaddas joylardir, chunki bu joylarda buyuk avliyo va allomalar qabri mavjud. Ko'pgina shaharlar ana shunday fazilatga ega. Bu borada Makka va Madina, Buxoro, Turkiston, Samarqand, Xiva, Toshkent, Termiz, G'ijduvon, SHahrisabz, CHustga o'xshash shaharlarni tilga olish kifoyadir.

Shaharlarimizning xosiyatli tuprog'i, yeri suvi dunyoga mashhur siymolarni bergan. Ular esa ismi-shariflari bilan o'z navbatida tug'ilgan va yashagan shaharlarni dunyoga mashhur qilishgan, adabiy lashtirgan.

Shaharlarning muqaddasligi qadamjoylar va mozorlar bilan bog'liq; qabristonlar shaharlarning o'tmish sirlari, tarixini saqlaydi, ulardagi bozorlar esa yurtning ijtimoiy hayotini miniatyurada mujassamlantiradi. Binobarin, shaharlar shu o'lka, diyorning iqtisodiy va sotsial, ijtimoiy geografiyasini ko'z gusidir. Xalqimiz hayotida bozorlar azaldan muhim o'rin tutgan; bozori bor joy shahar deb yuritilgan (hozir ham Xitoyning Uyg'uristonida kichik shaharlar, rayon markazlari ba'zan bozor deb aytiladi). Bozorlar mamlakatning turli shaharlarida haftaning deyarli har kunida navbatma-navbat uyushtirilgan, ayniqsa, chorshanba, payshanba, juma va yakshanba kunlari bozorlar nihoyatda gavjum bo'lgan. SHu bois sharq bozorlarining shahar hosil qiluvchi vazifasi ularning shahar xalqigagina emas, balki butun atrof ahliga xizmat qilishda ko'ringan. Shaharliklar uchun bozorlar har kuni va bir joyda muhim, barqaror bo'lsa, qishloq ahliga esa bozor har kuni va har joyda bo'lgan. Bozor kunini oila a'zolari zoriqib kutishgan, shu kunga mo'ljallangan ma'lum maqsadlarni rejalashtirgan: bozor bolajonlarga sovg'a bergan, oilaga ro'zg'or yumushlarini bajargan, oila va qo'ni-qo'shni, mahalla uchun axborot vazifasini ado etib kelgan.

Yurtimizga turli maqsadda tashrif buyurgan sayohatchilar, musofir va boshqalar eng avvalo, shaharlarimizning bozorlarini ta'riflashgan. Shaharning katta-kichikligi, mamlakat va yurtda tutgan mavqeini bozor hajmi, unda savdo-sotiq qilinadigan tovarlar, matolar geografiyasi bilan baholashgan. SHu sababli sharq madaniyatini va tarixini bozorlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bizning "bozor" atamamiz Buyuk ipak yo'li orqali Yevropaga ulardan esa Amerika qit'asiga ham kirib borgan.

Xalqimiz hayotida bozorlar hozir ham muhim o'rin tutadi. Agar mozor va qabristonlarda qadriyatimiz mustahkamligi, o'tgan avlodga munosabatimiz o'z aksini topsa, bozorlar yurt boyligi va butligi, xalq farovonligining ko'z gusidir.

Binobarin, shaharlarni iqtisodiy va sotsial geografik o'rganishda qadamjoy va bozorlarga ham haqli ravishda katta e'tibor berishni talab etadi.

Yuqorida keltirilgan shaharlarning qisqacha tarixi ularni o'rganishning nihoyatda serqirrali, qiziqarli va ayni paytda ma'suliyatli ekanligidan dalolat beradi. Bu jumboq yoki kalavada geograflar hamma vaqt o'ziga xos va betakror o'rirlari bilan ajralib turadi. Geografik tadqiqot uchun shaharlarning, eng avvalo hududiy tizim, hududiy-iqtisodiy va sotsial majmua, dinamik, harakatchan ekanligi muhimdir.

Demak, shaharlar geografiyasining ob'ekti ma'lum bir hududda tarixan shakllangan shahar yoki shaharlar to'ri, tizimidan iboratdir. Uning predmetini esa quyidagicha ta'riflash mumkin: ***Shaharlar geografiyasi iqtisodiy va sotsial geografiyaning alohida tarmog'i bo'lib, u turli mamlakat yoki rayonlarda shaharlarning vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari, ularning murakkab hududiy tizimlarining shakllanish qonuniyatlarini o'rganadi.***

Shaharlar geografiyasi sanoat, transport, aholi geografiyasi, hamda shaharsozlik va rayon planirovkasi, sotsiologiya, demografiya, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi kabi yo'nalishlar bilan aloqa qiladi. Uni o'rganishda geografik taqqoslash, kartografiya, tarixiy statistik, modellashirish va boshqa metodlardan foydalaniladi.

SHu bilan birga shaharlarni o'rganish orqali mamlakat yoki viloyatning o'tmishi, ularning hozirgi ahvoli, ijtimoiy va siyosiy vaziyatlardan boxabar bo'lish mumkin. Ayni paytda shaharlarning geostrategik ahamiyati ham katta. Ammo, shaharlarni aholi punktlarining boshqa shaklidan, jumladan, qishloqlardan keskin ajratish ham nodurustdir. Sababi, shaharlarning aksariyati, xususan bizning sharoitimizda qishloqlar negizida shakllangan. Qolaversa, Osiyo yoki SHarq shaharlari aslida shahar va qishloqlarning ajralmas birligidir.

Yuqorida keltirilgan tartib (sxema) ma'lum hudud shaharlar turkumini o'rganishga moslashtirilgan. SHubhasiz, bu bandlarning orasida eng muhimi va markaziy 4—qism, ya'ni shaharlarning hozirgi holati hisoblanadi. Binobarin, uning tavsifi ham murakkab va keng qamrovli bo'ladi.

Agar alohida bir shahar o'rganiladigan bo'lsa, u holda shaharning mikrogeografiyasi va atrofiga ham e'tibor beriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu erda tizim—tarkib tamoyiliga asoslanadi.

Geografik ob'ektlarga nisbatan joylashganligi va bu ob'ektlarning shahar iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tushunamiz.

XV asrdan keyingi davrlarda, uning yon atrofida o'rnashgan geografik ob'ektlar, ko'l, tog', daryo, yo'l, kon, boshqaaholi manzilgohi, qishloq xo'jaligi dalalari, davlat chegaralari, elektr stansiyalari, sug'orish inshootlari, rekreatsiya ob'ektlari va hokazolar bo'lishi mumkin. Ularning shaharga ta'siri, tarixiy va ayni paytda iqtisodiy mazmunga ega bo'lishi kerak.

IGO'—ning tarixiyliigi shundaki, bu o'rinning qulay yoki noqulayligi davr o'tishi bilan o'zgaruvchan, bir vaqt qulay bo'lgan o'rin keyinchalik noqulay va aksincha bo'lishi mumkin. Biroq, umumiy qonuniyat shundan iboratki, shaharlar o'z iqtisodiy geografik o'rinlarini yaxshilashga intiladilar.

Shaharning iqtisodiy geografik o'rni ham murakkab, uning ichida transport, gidrografik, demogeografik, agrogeografik kabi yo'nalishlar mavjud. Shubhasiz, bularning orasida eng muhimi transport geografik o'rindir.

IGO'uch masshtabga ega: makro, mezo va mikrogeografik o'rin. Bu bosqichlarning hududiy ko'lami va qamrovi bir xil emas. Masalan, mikrogeografik o'rin shaharning bevosita o'rnashgan joyi, uning eng yaqin atrofi bo'lsa, mezo—geografik o'rni esa shaharning nisbatan kengroq va kattaroq hududdagi mavqeidir; makro—geografik o'rin o'rganilayotgan shaharning yanada ulkanroq hududdagi holatini anglatadi. Bu yerda shuni unutmaslik lozimki, muayyan bir shaharning mezo yoki makrogeografik o'rni boshqa shahar uchun (xatto ular qo'shni joylashgan bo'lsa ham) hudud ko'lami jihatidan to'g'ri kelmaydi. Bu shaharning katta—kichikligi, bajaradigan funksiyasiga bog'liq. Masalan, Toshkentning mezogeografik o'rni (u Markaziy Osiyo mintaqasi bilan belgilanishi mumkin) Chirchiq yoki Bekobodning, Namangan yoki Qarshining mezogeografik o'rniga muvofiq kelmaydi;

aksincha, bu shaharlar uchun Markaziy Osiyo makrogeografik mazmunga ega bo'lishi mumkin.

Toshkent viloyatidagi Bo'ka shahrining makrogeografik o'rni esajuda nari borsa, Toshkent viloyati va unga tutash bo'lgan kichik hududlar doirasida belgilanadi. Ahir, Bo'kaning rayon markazi, kichik shahar ekanligini Qirg'iziston yoki Tojikiston, Orolbo'y yoki Farg'onada hamma bilmaydida!

Shaharning vujudga kelishi, aynan shu joyda o'rinishganligiga eng avvalo uning mikrogeografik holati sababchi bo'ladi. Bu tog'yonbag'ri, daryoning quyilish joyi yoki uning qirg'og'i, tepalik va boshqa joyida bo'lishi mumkin (Panjakent, Axsi, Nasaf, Pop, Kosonsoy, Qiyot va boshqa joylarda ko'rish mumkin). Ba'zi shaharlar, masalan, Chust, Denov, G'ijduvon, Nurota, Piskent, Xiva kabilar juda katta tarixga ega bo'lishiga qaramay, ular hamon kichik shahar darajasida qolmoqdalar. Ehtimol, buning sababi, ularning mezogeografik o'rnini noqulayligi bo'lsa ajab emas. Ayni vaqtda, uncha katta tarixga ega bo'lmagan Navoiy yoki Chirchiq esa allaqachon «yuz minglik» chegarani bosib o'tishgan yirik shaharlardir. Albatta, bunga ularning mezogeografik o'rnini qulayligi katta ta'sir qilgan.

Aholi joylashishi va tabiiy muhit

Aholi joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: - iqlim, tuproq va gidrogeologik sharoit; sanoat ishlab chiqarishi uchun baza hisoblangan foydali qazilmalar va yoqilg'i-energetika resurslari; transport kommunikatsiyalarining rivojlanishini belgilab boruvchi tabiiy shakl. Insonlar hayoti va mehnatiga ta'sir etuvchi tabiiy iqlim omillari katta ahamiyat kasb etadi (harorat, shamol va namlik, ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik, yer relyefi, qurilishning geologik sharoitlari, seysmik holat, abadiy muzlik, sel, zamin cho'kuvchanligi va hokazolar). Yer yuzasida aholining dastlabki joylashishi ibtidoiy jamoa bilan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro aloqa bilan belgilangan. Tabiiy sharoitlarning qulayligi qadimda shahar madaniyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi yirik sug'oriladigan yerlar tizimini shakllantirish imkonini bergan. Bunday yerlar tizimi Misrda Nil daryosining quyi oqimida, Messopotamiyada

Tigr va Yefrat daryolari quyi oqimida, Hindistonda Hind va Ganga daryolari sohillarida vujudga kelgan. Aholining cheklangan hududda to'planishi aholi joylashishining tabiiy sharoitlarga yangicha bog'liqliklarini belgiladi. Shaharlar to'planishi yirik sun'iy muhit massivlarini tabiiy muhitga qarama-qarshi qilib qo'ydi. Odamlarni sun'iy muhit ichida cheklab, ularni tabiatdan ajratib qo'ydi. Odamlarning atrof-muhitga kuchli ta'siri vujudga keldi va uning tabiiyligi yo'qola boshladi. Aholi yashash joylari tabiiy landshaftga majburan bo'ysungan shakllarni egalladi. Shu bilan bir qatorda, texnikaning taraqqiyoti natijasida relyefni qayta o'zgartirish va gidrogeologik sharoitlarga kuchli ta'sir ko'rsatish boshlandi. Lekin tabiatga bunday ta'sir ko'rsatishning maqsadga muvofiq keladigan chegarasi bor. Tumanni rejalashtirishda hududning tahlili. Hududni tabiiy shart-sharoitlar bo'yicha baholash. Hududni tahlil qiliishning asosiy maqsadlari: undan turli xil sohalarda loydulunishga yaroqiliginini aniqlash; siiahar qurilishiga, qishloq va o'rmon'xo'jaligiga, aholining ommaviy dam olish uchun 4 hududni tarxiy tashkil etishga talablarni aniqlash. Tabiiy omillarga quyidagilar kiradi:

- gidrogeologik shart-sharoitlar;
- mineral xom-ashyo resurslari;
- muhandis-geologik shart-sharoitlar;
- gidrologik shart-sharoitlar;
- tuproqlar;
- o'simlikvahayvonotdunyosi;
- landshaft tavsifi.

Geomorfologik shart-sharoitlarni o'rganganda relyefning morfologik va morfometrik elementlariga: shakliga, genetik turiga, absolut va nisbiy balandliklariga, erozion bo'linish chuqurligi va qalinligiga, qiyaliklarga alohida e'tibor beriladi. Topografik, geomorfologik va muhandis-geologik s'yomkalar materiallari asos bo'lib xizmat qiladi.

Geologik tuzilishi - hududning neotektonik faolligi va seysmikasi, stratigrafik va litologik komplekslarning borligi, ularning tuzilishi, yoyilish qonuniyatlari va quwati nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tahlil uchun tektonik, geomorfologik,

geologik va boshqa geologiya fondidagi materiallardan foydalanadi. Hidrogeologik shart-sharoitlarni tahlil qilganda yer osti suvlarining suv eltuvchi gorizontlari, ularning tarqalishi, chuqurligi, suvga to'yinganligi, kimyoviy tarkib va agressivligi kabi tavsifi beriladi.

Mineral xom ashyo resurslari sanoat ishlab chiqarish yoki kurort xo'jaligini rivojlantirish bazasi sifatida tavsiflanadi, ularning tarqalish maydonlari esa tarxiy cheklanish sifatida xizmat qiladi. Bunda ishlab bo'lingan maydonlar rekultivatsiya va xo'jalik maqsadlari uchun keyinchalik foydalaniladigan hududlar sifatida qaraladi.

Sanoat ahamiyatidagi konlarning qisqacha geologik-iqtisodiy tavsifini keltirishda (joylashishi, turi, darajasi va o'zlashtirish kelajagi, ishlab chiqarish usuli, tarqalish maydonlari va hokazo) geologiya vazirligining, tarmoq idoralarining materiallaridan foydalaniladi. Muhandis-geologik shart-sharoitlarni tahlil qilganda muhandis-geologik hududlashtirish ko'rsatkichlarining: geomorfologik, geo-logolitologik, hidrogeologik, tuproqlarning tarkibi, fizik-mexanik va filtratsion xususiyatlari, ularning yuk ko'tarish qobiliyatlari, /amonaviy geologik va muhandis-geologik jarayonlar va holatlar, iqlimning tarqalishi hamda rivojlanish intensivligining tavsifi keltiriladi.

Kompleks geologik-gidrogeologik ekspeditsiyalar materiallari, geologik fond materiallari asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqlimiy shart-sharoitlar umumiiqlimiy, qurilish-iqlimiy, fiziologik-iqlimiy va agroiiqlimiy tavsiflarni o'z ichiga oladi.

Shaharlar iqtisodiy geografik o'rnini o'rganishda ayniqsa, Toshkent, Xo'jand (Aleksandr Es—Xate), Bekobod, Stanbul (Konstantinopol, Vizantiya), Kiev, Volgograd, Samara, Moskva, Sankt-Peterburg, Buxoro va Samarqand, Tbilisi, Novosibirsk misollariga murojaat qilish samarali natijalar beradi. SHu bilan birga talabalarning o'zlari ham istagan shaharlarining iqtisodiy geografik o'rnini ochib berishlari kerak, biroq, eng muhimi iqtisodiy geografik o'rin—bu shaharlarning iqtisodiy geografikta'siri va tavsifi emas, aksincha u o'rganishning, tahlil qilishning

maxsus usuli , iqtisodiy geografik bilimning «kaliti» ekanligini unutmaslik lozim. Ana shundagina, biz nima uchun mazkur shahar, xuddi shu joyda vujudga kelgan va rivojlangan, nima uchun u shunday vazifalarni bajaradi va bu erda sanoatning shu tarmoqlari rivojlangan kabi jumboqsavollarga javob topa olamiz.

Xuddi shu ma'noda, Buxoroi sharif va Sayqali ro'yi zamin Samarqandning tarixiy «musobaqasini», Movarounnahrning dorulsaltanati bo'lishiga talashganligini, Sohibqiron Amir Temurning Samarqandni o'zining buyuk imperiyasining poytaxti, Somoniylarning esa Buxoroni «Qubbai islom» qilinishini o'rganish qiziqarli bo'lsa kerak.

SHaharlar ma'lum sabab, omil asosida vujudga keladi. Ularning paydo bo'lishi qulay geografik o'rin bilan bir qatorda turli xil qazilma boyliklarni qazib olish, ilmu—fan, rekreatsiya, savdo—sotik, sanoat tarmoqlari, transport kabilarning rivojlanishi bilan bog'lik. Shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning eng muhim xususiyati shundaki, ularning ahamiyati, ta'sir doirasi mazkur aholi manzilgohidan chetga chiqadi.

Qadimda shaharlar savdo—sotiq va hunarmandchilik negizida paydo bo'lishgan. Keyinchalik bunga eng ko'p sanoat va transport sababchi bo'lgan. Qazilma boyliklar asosida shakllangan shaharlarni ilmiy adabiyotlarda «resurs shaharlar» deb ham yuritishadi. Bunday shaharlar, odatda, o'z atrofi, qishloq joylar bilan kam bog'langan bo'ladi.

Shaharlarning aksariyati bizning sharoitimizda, ya'ni dehqonchilik rivojlangan mamlakatlarda, qishloqlar asosida tashkil etiladi, ular muayyan talab darajasiga etganlaridan so'ng qonuniy ravishda bu rasmiy maqomni olishadi. Shaharlarning bunday genetik xususiyatlari urbanizatsiya jarayonining, ayniqsa, qishloq urbanizatsiyasining «sharqona» rivojlanishidan darak beradi.

Shaharlar kelib chiqishiga qarab, «yangi» va «eski» shahar bo'lishi mumkin. Biroq bu tushunchalar nisbiydir. Sababi yaqingacha biz sobiq sho'rolar davrida vujudga kelgan shaharlarning barchasini «yangi shaharlar» guruhiga

kiritar edik. Hozir esa yangi shaharlarni mustaqillik davri bilan belgilash to'g'riroqdir.

Biroq, aholi manzilgohining yuridik ravishda shahar maqomiga ega bo'lishi uning xaqiqiy yangiligini ifodalamaydi. Chunki bunday aholi yashaydigan joylar qadim—qadimdan mavjud. Masalan, Chust shahri so'nggi marta shahar unvonini rasmiy ravishda 70—yillarda oldi, vaholanki uning real tarixi bir necha yuz yilliklarni o'z ichiga oladi. Xuddi shunday, G'ijduvon, Piskent, Nurota, Rishton va hokazolar ko'p yillik tarixga ega.

Aslida olganda, yangi shahar deyarli «bo'sh» joyda, yaqinda barpo bo'lgan, arxitektura qurilishi, obodonchiligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga eski qishloqning yangi yirik qurilish tufayli o'z qiyofasini tubdan o'zgartirishi, aholi sonini bir necha marta ko'paytirishi ham uning yangi shahar deb atalishiga asos bo'la bo'ladi.

Shaharlarning kelib chiqishi, ularning genetik xususiyatlarini o'rganish tarixiy yondashuvni talab qiladi. Ana shunday tarixiy tahlil yordamida ularning o'tmishi va hozirgi holati baholanadi. Bu esa, o'z navbatida, shaharlarni bashorat qilishga (prognozlashga) ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

1. Ilk shaharlar qaerlarda vujudga kelgan?
2. Qadimgi shaharlarning vujudga kelishida qanday omillar asosiy o'rin tutgan?
3. Qadimgi shaharlarga misollar keltiring.
4. “O'lik shaharlar” ni izohlang.
5. Shaharlarning shakllanishida geografik o'rinning rolini tushuntiring.
6. Shaharlarning genetik tipologiyasini tushuntiring.
7. O'zbekiston shaharlarining shakllanishida qanday omillar ustun turadi?

Dunyoning Eng Qadimiy Shaharlari

Yer yuzida qadimiy shaharlar ko'p. Ular aynan qachon paydo bo'lgani esa juda bahsli masala. Quyida e'tiboringizga dunyo eng qadimiy deb hisoblanadigan shaharlar o'nligini havola etamiz. Bu shaharlarga ming yillar avval asos solingan va ularda hamon odamlar yashab kelishmoqda.

10 Gaziantep, Turkiya



Turkiyaning Janubi-sharqiy Anatoliya viloyatida, Suriya chegarasi yaqinidagi bu shahar tarixi Qadimgi Hett podsholigi davriga borib taqaladi. Tarixchi olimlarning fikriga qaraganda, shaharga miloddan avvalgi 3650-yilda asos solingan. Boy tarixga ega ushbu shahar o'z davrida Akkad, Mitanni, Hett, Yangi Hett, Ossuriya, Urartu, Bobil, forslar, yunon-makedonlar, parfiyonlar, rimliklar, Vizantiya, Arab xalifaligi kabi davlatlar tarkibiga kirgan. Qadimiy shahar Duluk xarobalari hozirgi Gaziantep markazidan bir necha kilometr shimolda joylashgan. Shahar markazida esa Gaziantep qal'asi, VI asrda vizantiyaliklar qayta tiklagan Ravanda shahristoni bor. Usmoniylar davrida shahar Aintab, keyinchalik Antep deb atalgan (hozir ham oddiy aholi shaharni shunday ataydi). 1921-yilda Turkiya parlamenti shaharni Gazi Antep deb atash haqida qaror qabul qilgan. Gaziantep hozirda Turkiyaning **#6** eng gavjum shahri bo'lib, aholisi 2011-yilgi hisobga ko'ra, 1,376,352 kishidan iborat.

Plodviv, Bolgariya



- Plodviv nafaqat Bolgariyadagi, balki butun Yevropa qit'asidagi eng qadimiy shaharlardan hisoblanadi. Tahminan, 6 mingyillik tarixga ega bo'lib, miloddan avvalgi IV mingyillikda asos solingan. Maritssa daryosining ikkala qirg'og'ida, Rim va Istanbul shaharlari kabi yetti tepalik ustida qad rostlagan. Frakiya davlati tarkibiga kirgan paytlar shaharning nomi, Eumolpias edi. Keyinchalik, Makedoniya hukmdori Filipp II Frakiyani ishg'ol qilgach shahar Filippopolis deb ataldi, keyinchalik bu nomning frakiyacha tarjimasi Pulpudeva shahar nomiga aylandi. Rimliklar shaharni Trimontium deb atashgan. Bu o'lkaga slavyanlar kelib o'rnatishgach esa qadimiy Pulpudeva nomining Pldin, Plpdiv, Ploudin kabi variantlari paydo bo'lgan. Shaharning hozirgi nomi esa ilk marta XI asrga oid manbalarda qayd etilgan. XIV asrdan 1878-yilgacha davom etgan Usmoniylar boshqaruvi davrida esa shahar Filibe deb atalgan. Hozirda Plodviv Bolgariyada kattaligi bo'yicha **#2**, Bolqon yarim orolida esa **#100** o'rinda turadi. Shahar aholisi 2012-yilgi hisobga ko'ra, 339,077 kishini tashkil etadi.

Al-Fayyum, Misr



- Qohiradan 62 kilometr uzoqlikda joylashgan Al-Fayyum Afrika qit'asidagi eng qadimiy shahar hisoblanadi. Tarixi miloddan avvalgi 4-mingyillikkka borib taqaladi. Nil daryosi yaqinidagi Fayyum vohasida joylashgan bu shahar nomi misr tilidan tarjima qilinganda "dengiz" yoki "ko'l" degan ma'nolarni anglatadi. Shahar chindan ham ko'l yoqasida joylashgan. Shaharda gavjum bozorlar, masjidlar, hammomlar va boshqa inshootlar ko'p. shaharning o'rtasidan Bahr Yusuf kanali oqib o'tgan bo'lib, kanalning ikki qirg'og'ida uylar qad rostlagan. Tarixning turli davrlarida qurilgan ko'plab tarixiy obidalar butun dunyodan sayyohlarni jalb etadi. Aholisi 2012-yilgi hisoblarga ko'ra, 349,883 kishini tashkil etadi.

Afina, Gretsiya



- Gretsiyaning poytaxti va eng yirik shahri Afina Yevropa qit'asidagi eng qadimiy shahar hisoblanadi. Tarixchilarning so'ziga ko'ra, bu yerda eng kamida so'nggi 7 ming yil davomida aholi yashab kelgan. Afina miloddan avvalgi II mingyillik o'rtalarida Miken madaniyatining eng muhim shahriga aylangan. Miloddan avvalgi 1200-yillarda ro'y bergan doriylar istilosidan omon qolgan. Biroq miloddan avvalgi 490-yilda forslar shaharning kulini ko'kka sovurgan. Ko'p o'tmay shahar qayta tiklangan va yunon madaniyatining eng muhim markaziga aylangan. Mingyillik tarixiy yodgorliklar har yili millionlab sayyohlarni Afinaga chorlaydi. 2011-yilgi hisob'kitoblarga ko'ra shaharda 3,074,160 aholi istiqomat qiladi.

Sidon, Livan



- Livanning qadimiy Sidon shahriga miloddan avvalgi 5500-yillarda asos solingan. Injilda qayd etilishicha, Sidon Nuh alayhissalomning ikkinchi o'g'illari Xomning avlodi bo'lgan tarixiy siymo ekan. Sidon shahri O'rtayer dengizi sohilida joylashgan bo'lib, yana bir qadimiy shahar Tirdan 40 kilometr shimolda, poytaxt Beyrutdan esa 40 kilometr janubda joylashgan. Shaharda qadimdan savdo-sotiq, madaniyat gullab-yashnagan. Hozirda Livanning **#3** yirik shahri bo'lib, aholisi 80 ming kishini tashkil etadi.

Aleppo, Suriya



- Aleppo yohud Halab Suriyaning eng yirik shahri hisoblanadi. Poytaxt Damashqdan 310 kilometr shimoli-g'arbda joylashgan shahar aholisi 2004-yilgi hisoblarga ko'ra 2,132,100 kishini tashkil etgan. Shahar tarixi miloddan avvalgi VI mingyillikka borib taqaladi. Ilk marta Ebla va Mesopotamiya manbalarida qayd etilgan. Savdo-sotiq va harbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgani uchun ham shahar mingyillar davomida ahamiyati va nufuzini saqlab kelgan. Shaharda ko'plab tarixiy yodgorliklar, osori atiqalar mavjud. Aleppo 2006-yilda Xalqaro ISESCO tashkiloti tomonidan "Islom madaniyat poytaxti" maqomi berilgan.

SHUSH ERON.



- Eronning g'arbiy chegaralarida joylashgan Shush shahri o'rnida tahminan 7-9 ming yil avval Suza shahri qad rostlagan. Shumerning eng qadimiy manbalarida nomi tilga olingan. Miloddan avvalgi III mingyillikdayoq davlat sifatida shakllangan. Miloddan avvalgi 2330-yillarda Akkad hukmdori Sargon I o'z imperiyasi tarkibiga qo'shib olgan. Keyinchalik, Ossuriya, Ahamoniylar, Yunon-makedonlar, Parfiyonlar, Sosoniylar davlatlari tarkibiga kirgan. Qadimiy shaharda qazish ishlari 1836-yilda boshlangan bo'lib, hozirgacha arxeologik tekshiruvlar davom etmoqda. Shahar aholisi 50 mingdan ortiq kishini tashkil etadi.

BIBL SHAHRI.

Scanned by Imad Cherro



- Beyrut yaqinida joylashgan kichik Bibl shaharchasi neolit davirdayoq, miloddan avvalgi VII mingyillikda vujudga kelgan. Shaharni arablar Jubayl deb atashadi. Finikiya zaminida tashkil topgan ilk shahar hisoblanadi. Shaharda tarixning turli davrlariga oid memoriy obidalar saqlanib qolgan bo'lib, yildan-yilga sayyohlar oqimi ko'paymoqda. Shahar UNESCO Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Hozirda shahar aholisi 40 mingdan ziyod.

DAMASHQ SURIYA.



- Damashq Suriyaning poytaxti va **#2** eng yirik shahri (aholisi 2011-yilgi hisoblarga ko'ra 1,711,000) hisoblanib, uzoq davrlar Yaqin Sharqning madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Madinat al-Yasmin deb ham ataladi. Arxeologlar Damashq miloddan avvalgi VII mingyillikning ikkinchi yarmida qad rostlaganini isbotlashgan, biroq shahar atrofida miloddan avvalgi IX mingyillikka oid turarjoy izlari ham topilgan. Damashq nomi esa ilk marta miloddan avvalgi XV asrga oid Misr bitiklarida tilga olingan, Ularda fir'avn Tutmos III bosib olgan hududlar qatori Damashq ham qayd etilgan. Tarixning barcha davrlarida savdo-iqtisodiy va madaniy jihatdan nufuzli shahar bo'lib kelgan. Arab xalifaligining dastlabki poytaxti bo'lib, xalifalik davrida ilm-marifat shahri ham bo'lgan. Damashqda UNESCO Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan ko'plab osori atiqalar mavjud.

Iyerixon, Falastin



- Yer yuzidagi eng qadimiy shahar deb e'tirof etilgan Iyerixon Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'ida joylashgan. Bu yerda arxeologlar 20dan ortiq mazilgohlar qoldiqlarini qazib o'rganishgan, ularning eng qadimgilari miloddan avvalgi IX mingyillikka oid. Aynan shu yerda eng qadimiy dehqonchilik shakllangan. Shaharning ibroniycha nomi Iyerixo va arabcha varianti Ariha "xushbo'y" degan ma'noni anglatadi. Bu hududda qazishma ishlari 1868-yilda boshlangan bo'lib, arxeologik tekshiruvlar hamon davom etmoqda. Shahar 1948-1967-yillarda Iordaniya davlati tarkibida bo'lgan. 1967-yilda Isroil bosib olgan. 1994-yildan boshlab esa Falastin davlati tasarrufiga olingan. Hozirda 20 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Geourbanistika tushunchasi, uning tarkibi va vazifalari.
2. Geourbanistikaning shaharlar geografiyasi fanidan farqi.
3. Zamonaviy shaharlashish jarayonlari qanday amalga oshirilmoqda.
4. Qishloq taraqqiyoti yilining shaharlashish siyosatiga ta'siri.
5. Shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanish xususiyatlari.
6. O'zbekiston shaharlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni ko'rsating. Misollar orqali tushintirib bering?
7. Hozirgi kunda dunyoda sanoat korxonalari tufayli eng ko'p zarar ko'rayotgan shaharlarni ayting.
8. Hozirgi kunda suv toshqinlari tufayli zarar ko'rayotgan shaharlar haqida ayting.
9. Shaharlashish yuqori darajada bo'lgan davlatlar qaysilar?
10. Shaharlashish yuqori bo'lishi yoki aksincha kam bo'lishi uchun qanday omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Shahar va qishloq aholisi nisbatlarining o'zgarib borishi va hududiy tafovutlar nima sababli kelib chiqadi?
2. Shaharlarning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi asosiy omillarni ayting.
3. Shaharlar shakllanishiga iqtisodiy va siyosiy omillarning ta'siri qanday?

3-Ma'ruza: Shaharlar klassifikatsiyasi (tasnifi).***Reja:***

1. Shaharlarni tiplarga ajratish.
2. Shaharlar klassifikatsiyasi.
3. Zipfa-Styuart klassifikatsiyasi.
4. Shaharlar piramidasi.

Tayanch nushunchalar: Yirik shahar, o'rta shahar, mayda shahar, gipertrofiya, shahar turi, qishloq turi.

Oldingi ma'ruzalardan ma'lum bo'ldiki, shaharlar har xil omillar asosida vujudga kelib, o'ziga xos vazifalarni bajarishga ixtisoslashadilar. Dastlabki

shaharlarning uzoq, o'tmishda paydo bo'lishi ijtimoiy mehnat taqsimoti ta'sirida bo'lsa, ularning funktsional tiplari hududiy mehnat taqsimotining natijasidir.

Shaharlar bajaradigan vazifalariga ko'ra turliligi ularning ayni paytda katta—kichikligini ham belgilab beradiki, bu shaharlar geografiyasidagi muhim qonuniyatlardan biridir. Demak, shaharlarning katta—kichikligiga qarab ularning funksiyasi tashkil topmaydi, aksincha, shaharlarning funksiyasi, iqtisodiy yo'nalishi aksariyat hollarda ularning yirikligini ifodalaydi.

Shaharlar o'z ko'lamiga qarab eng avvalo 3 kategoriyaga bo'linadi (umuman, bunday «uch o'lchovlik» barcha mavjudotlarga ham xos): katta, o'rta va kichik. Biroq, bu tushunchalar tarixiy—geografik nuqtai nazardan nisbiydir. Masalan, bir vaqtlar yirik hisoblangan shahar xozirgi davrda bunday bo'lmasligi aniq. Ayni paytda shaharlarning katta—kichikligini belgilovchi miqdoriy ko'rsatkichlar ham hamma vaqt va barcha mamlakatlarda bir xil emas. Tabiiyki, uzoq qishloq aholisi uchun tuman markazi ham ancha yirik shahar hisoblanadi. Ammo, mamlakat va uning poytaxt darajasidan qaraganda xatto ba'zi viloyat markazlari ham ancha kichik ko'rinadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, geografik taqqoslash va ilmiy tadqiqotlarni bajarishda barchaga xos bo'lgan umumiy mezon kerak, ya'ni shaharlarining yiriklik kategoriyasi, sub'ektiv va mahalliy qarashlaridan qat'iy nazar, hammaga bir bo'lishi shart.

Shu nuqtai nazardan yondashganda yirik yoki katta shaharlar aholisi 100 ming kishidan ortiq, o'rta shaharlar da 50—100 ming va kichik shaharlarning har birida kamida 50 ming kishigacha aholi bulishi kerak. Bunday klassifikatsiya oddiy va barchaga tegishlidir. Maxsus ilmiy tadqiqotlarda esa shaharlar klassifikatsiyasi ancha keng turlangan buladi:

10 minggacha - mayda shahar

10-20 ming-kichik shahar

20-50 ming-«yarim o'rta» shahar

50-100ming-o'rta shahar

100-250ming-katta shahar

250-500ming-yirik shahar

500-1000ming-eng yirik shahar

1000 ming vaundan ortiq-millioner shahar.

Albatta, shaharlarning bunday miqdoriy ko'rsatkichlari tasodifan bo'lmay, u ma'lum qonuniyatlarga ham asoslanadi. Chunonchi, I—sinf shaharlari ko'pincha temir yo'l stansiyalari yoki kichik resurs shaharchalaridan tashkil topsa, II—bosqich asosan resurs shaharlar, III—siesadeyarli batamom tumanlarning ma'muriymarkazlaridan iborat. Bu toifadagi shaharlar qisman IV—klassda ham bor. Ammo V—sinf dan to'la tekis viloyat markazlari joy oladi. Shunday qilib, shaharlar to'ri xuddi armiya tizimidagidek, turli bosqichdagi «qo'mondonlarga» o'xshaydi. Ularning bunday pog'onasimon joylanishi shaharlar ierarxiyasini vujudga keltiradi. Ierarxiya shakli qancha to'g'ri va to'la bo'lsa, mamlakat yoki boshka bir xudud ham ijtimoiy -iqtisodiy jihatdan shunga muvofiq mukammal shakllangan bo'ladi. Maxsus ilmiy adabiyotlarda Zipfa—Styuart qoidasi mavjud bo'lib, u hudud shaharlarining bir tartibda to'g'ri joylanishini nazarda tutadi, masalan, ikkinchi shahar birinchi shahar aholisining yarmi, uchinchi shahar uning $\frac{1}{3}$, to'rtinchisi— $\frac{1}{4}$ aholisiga ega bo'lishi kerak. Biroq, bu g'oya hayotda to'laligacha o'z isbotini juda kam holda topgani uchun, u gipoteza darajasida talqin qilinishi mumkin.

Shunga qaramay, yuqoridagi qoida ma'lum ahamiyat kasb etadi. Har qalay mamlakat o'z shaharlar turi tarkibi va tizimini ana shunday zanjirsimon, pog'onasimon tartibda shakllantirishga harakat qilishiva o'zini mintaqaviy siyosatida amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Sababi— mamlakat aholisining ko'pchilik qismini uning bir yoki ikki yirik shahrida to'planishi ham (bu shaharlar gipertrofiyasi deyiladi), yoki, aksincha, aholining juda ko'p mayda shaharlarda tarqalishi ham yaxshi emas. Tabiiyki, ikkinchi holda mamlakat hududiy iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan bo'ladi. Shaharlar ierarxiyasini piramidasimon ham tasavvur

kilish mumkin. U yoki bu hudud uchun tuzilgan piramida ayni paytda turli yiriklikdagi shaharlar rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni aks ettiradi.

Shaharlar klassifikatsiyasida «birinchi» va «ikkinchi» shahar tushunchalari mavjud, masalan, O'zbekistonning birinchi shahri uning poytaxti Toshkent bo'lsa, uning ikkinchi darajasidagishahri Samarqanddir (xozirgi kunda bu mavqega Namangan, da'vogarlik qilmoqda).

Umuman, respublikamizda 17 ta yirik shaharlar bor. Ular (aholisi ming kishi hisobida, 1.01.2008y)

Respublika katta va yirik shaharlari aholi sonining o'sishi
(1959-2012 y.)

T.r	Shaharlar	Aholi soni (ming kishi)						
		1959 y.	1979 y.	1989 y.	2000 y.	2005 y.	2008 y.	2012 y. 1989 y.ga nisb. % da
1	Angren	55,8	105,8	131,0	129,0	129.3	133,4	101,8
2	Andijon	130,9	229,7	290,5	334,3	352.6	363,8	125,2
3	Buxoro	69,8	184,8	222,2	239.1	238.6	241,8	108,2
4	Jizzax	15,7	68,4	104,2	128.9	136.5	140,9	135,2
5	Marg'ilon	95,2	110,2	124,1	156.0	165.1	172,3	138,8
6	Navoiy	5,4	83,1	105,5	140.9	122.3	124,6	118,1
7	Namangan	123,5	226,6	304,2	386.2	408.5	425,5	139,8
8	Nukus	31,9	106,9	168,5	206.7	258.1	263,8	156,2
9	Olmalik	40,5	101,0	113,9	114.7	116.7	121,1	106,3
10	Samarqan d	196,5	470,2	364,0	361.1	361.2	367,1	100,8

11	Termiz	22,1	56,0	82,0	113.5	120.8	127,4	155,3
12	Toshkent	911,9	1754,5	2102,0	2135.5	2128.9	2173,2	103,4
13	Urganch	76,2	98,1	126,4	139.2	136.3	135,1	106,4
14	Farg'ona	80,2	173,0	198,3	185.2	184.5	188,8	95,2
15	Chirchiq	65,6	131,2	156,4	143.3	140.7	142,2	90,9
16	Qarshi	19,7	107,4	154,7	201.3	212.2	223,1	144,2
17	Qo'qon	105,1	151,1	179,5	197.4	203.5	208,7	116,2
	Jami	2046,0	4158,0	4927,4	5312.4	5415.8	5415,8	109,9

O'rta shaharlarga Bekobod, Yangiyo'l, Asaka, Xo'jayli, Kogon, Zarafshan, Guliston, Denov, To'rtko'l, Shahrixon, Shahrisabz, Koson, Chust, Kattaqo'rg'on (jami 14 ta) kiradi. Bularning orasida faqat Guliston viloyat markazi. Qolgan 203 ta shahar va shaharchalar kichik, ya'ni I-III klasslarga mansubdir. Shu o'rinda aytish lozimki, 2009 yil respublikamizdagi aholi soni ko'p bo'lgan 966 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi va ularning jami soni 1198 tani tashkil etdi.

Shaharsozlik va aholi joylashuvi

Aholi joylashishi deganda mamlakat hududida shaharlar va boshqa aholi yashash joylarining birgalikda, o'zaro bog'liq holda fazoviy-luidudiy joylashish tizimi tushuniladi.

Boshqacha aytganda, bu mavjud aholi yashash joylarini rivojlan-lirisli va yangilarini barpo qilish orqali hududlarda aholining taqsim-lanish jarayonidir. Kattaligi turlicha bo'lgan shaharlarda ularning xalq xo'jaligi liizilishi ijtimoiy mehnat bo'linishidagi bajaradigan roliga asosan mos kcladi. Kon sanoati, qayta ishlash sanoatining boshlang'ich larmoqlari kichik va o'rta shaharlarga hamda shahar toifasidagi qishloqlar tomon tortiladi (Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod va boshqalar). Sanoat tarmoqlari (mashinasozik, kimyo, radioelektronika) esa katta, yirik va eng yirik shaharlarda ko'proq rivojlanadi. Tadqiqotlar shaharlarning o'sishi bilan ularda sanoat tarmoqlarining darajasi ortib

borishini ko'rsatmoqda. Katta, yirik va eng yirik shaharlar aholisining ko'payishi bilan bir vaqtda, ularning soni ham ko'payib borishi kuzatilgan.

1926- yilda O'zbekistonda 26 ta shaharlar bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 129 tafti tashkil etadi. Ularning jadal o'sishi dastavval ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq (sanoat bilan fanning qo'shilishi, ta'lim va boshqalar).Ijtimoiy mehnatning bo'linishida kichik va o'rta shaharlar katta O'rin egallaydi. Ular absolut ko'pchilikni tashkil etadilar. Hozirgi kunda kichik va o'rta shaharlarning o'sishi, kelajak rivojlanishi, ularning arxilcklura-rejali yechimlari sifatini oshirish muammolari mayjud. Ularda crkin mehnat resurslarini ijtimoiy mehnatga jalb etish muammosi katta o'rin egallaydi.

Aholi yashash joylarining turlari va shakllari.

Aholi joylashishining turlari ishlab chiqarishning ixtisoslashishiga va uning tarmoqlarining kooperatsiyasiga bog'liq. Ibtidoiy jamoa tuzumi tugatilishi bilan mehnatning taqsimlanishi - hunarmandchilik va savdo sohasidan qishloq xo'jaligining ajralishi jarayoni aholi joylashishining ikkita turi -shahar va qishloq turini vujudga keltirdi. Hozirgi kunda ham aholi joylashishining ikkita asosiy turini ajratish mumkin:


- ***shahar turi*** - shaharlar va shahar turidagi qishloqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq;

- ***qishloq turi*** - turli qishloq aholi yashash joylarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Har bir asosiy ko'rinish ichida iqtisodiy, tabiiy, demografik va boshqa o'ziga xos sharoitlarga bog'liq bir qator turlarni ajratish mumkin. Aholi joylashishining shahar ko'rinishi ichida aholining eng yirik, yirik va katta shaharlarda to'planishi bilan ajratib turadigan jamlangan yoki zichlashgan (концентрированный) turi hamda aholining ko'pchilik qismi o'rta, kichik shahar va shahar turidagi qishloq joylariga tarqalgan (дисперсный) turlari bo'ladi.

Aholi yashash joylarining guruhli tizimida (AGT) esa, ular guruh lashkil etadilar. Bir-birlari bilan rivojlangan kommunikatsiya turi turg'un funksional aloqalar bilan bog'langandir. Bu bir-birlari bilan rivojlangan hududiy ishlab chiqarish aloqalari, umumiy muhandislik infrastrukturali, ijtimoiy-madaniy, xizmat ko'rsatish markazlarining yaxlii turi bilan birlashgan, turli kattalikdagi xalq xo'jaligi sohasidagi shahar va qishloq aholi yashash joylarining majmuasidir. Aholi joylashishining guruhli tizimi yirik va eng yirik hamda tumanlararo va viloyat markazlari funksiyalarini bajaruvchi o'rta va katta shaharlar ta'siri zonasida shakllanadi.

Aholi joylashishining guruhli tizimida ularning markazigacha transportda yetib borish vaqti 1,5-2 soatni tashkil etadi. Markaz shaharning kattaligiga qarab aholi joylashishining guruhli tizimining uchta turini farqlashadi:



Nazorat uchun savollar:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimada.
2. Global shaharlar tushunchasi.
3. Shaharlarning yuridik va faktik chegaralari hamda o'sish chegarasi qanday.
4. Urbanizatsiya, Aglo'meratsiya, Megalopolislarga izoh.
5. Maltus nazariyasining mohiyati nimada.
6. Urbanizatsiya va xavfsizlik.
7. Shaharlar vazifalarining o'xshash va farqli tomonlari.
8. Shaharlarning vazifalariga ko'ra turlari.
9. Ko'p vazifali shaharlar.
10. Sanoat markazlari va poytaxt shaharlar.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Shaharlar klassifikatsiyasi, ularni tashkil qiluvchi omillarining o'ziga hos jihatlariga izoh bering.
- 2.Jahondagi urbanizatsiya jarayoni va uning hududiy farqlarini aniqlang?
- 3.Rivojlanayotgan shaharlarga qanday omillar ta'sir qilayotganini izohlang.

4-Ma'ruza:SHaharlarning funktsiyalari.

Reja:

- 1.Shaharlar tipologiyasi.**
- 2.Shaharlarning funktsiyalari va uni aniqlash.**
- 3.O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari.**
- 4. Poytaxt shaharlar.**
- 5. Global shaharlar.**

Tayanch tushunchalar:Shahar tashkil qiluvchi funktsiyalar,globalshaharlar,sanoat markazlari;port-shaharlar,ma'muriy markazlar va poytaxt shaharlar,ilm-fan markazlari,kurort shaharlar,turistik markazlar;

Shaharlar tipologiyasi klassifikatsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, uni o'z ichiga oladi. G.Lappo klassifikatsiyani tipologiyaning boshlanishi deb hisoblaydi. Agar klassifikatsiya biror miqdoriy ko'rsatkichga asoslansa, (E.Alaev bo'yicha) , tipologiya bir qancha sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Tipologiya shaharlar haqidagi bilimlarni ham umumlashtiradi, ham chuqurlashtiradi. Shaharlar qanchalik yirik bo'lsa va o'ziga xos jihatlar qanchalik aniq ifodalansa, uni tiplarga ajratish shuncha qiyin bo'ladi. Masalan, Toshkent yoki Samarqand shahari boshqa birorta ham shahar bilan umumiy xususiyatga ega emas. Shuning uchun yirik shaharlar monografik tarzda, kichik shaharlar esa tipologik holatda o'rganiladi.

Geourbanistikada bir qancha shaharlar tipologiyasi ishlab chiqilgan. Dastlab shaharlar funktsiyalariga ko'ra tiplarga ajratilgan. Ilk tipologiyalar 1891 y. F Ratsel, 1910 y. Semenov-Tyanshanskiy, keyinchalik Konstantinov, Xorev va b. tomonidan amalga oshirilgan. Ilk tipologiyalar ko'proq mexanik tarzda ajratib yuborilgan, masalan, Yaponiyada 600 ming kishilik shaharlar

milliy maqomga ega, 250-600 minggacha bo'lsa tarixiy shaharlar, 25-250 ming–qishloq tipidagi shaharlar deb ajratilgan. 1960–yillarda matematika, ayniqsa kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan ko'plab belgilarni (60 ga yaqin) qamrab olish asosida guruhlashtirish keng rivojlandi.

N.Baranskiy: “genetik tipologiyani ahamiyatini yuqori baholaydi, ammo, u shaharlarning kelib chiqish davrini bildiradi, kelgusi rivojlanishini ko'rsatmaydi” deydi. Xanuzgacha shaharlarni hozirgi kunda har tomonlama rivojlanishini ko'rsatuvchi tipologiya yaratilmagan. Biroq shunga yaqinlardan biri bu-funksional tipologiyadir. Unga ko'ra shaharlar monofunksional va polifunksional shaharlarga bo'linadi. Funksiyalar ortib borishi bilan shaharlar yiriklashib boradi. Bunday tipologiyaning asosida **shahar tashkil qiluvchi funksiyalar** turadi. Umuman shaharlar funksiyasi 2 xil bo'ladi: shahar hosil qiluvchi, shaharga xizmat qiluvchi funksiyalar. Ularning orasidagi chegara shartli bo'lib, asosan, sanoat, transport, rekreatsiya, ilm-fan qaysiki, shaharning kengayib rivojlanishiga asos (shaharning iqtisodiy asosi) bo'luvchi tarmoq shahar hosil qiluvchi, agar, faqat shahar yoki aholisi uchungina xizmat qilsa, u holda, shaharga xizmat qiluvchi tarmoq bo'ladi. Bunday tarmoqlar rivojlanib borib, shahar hosil qiluvchiga aylanishi ham mumkin. Funksional tipologiya ularning xududiy mehnat taqsimotida tutgan o'rni, “basharasini” ko'rsatib turadi.

Shaharlar ham turli sohalarga ixtisoslashadi, ya'ni ularning o'ziga xos va mos «kasbi», vazifasi va yo'nalishi mavjud. Bu jihatdan shaharlar sanoat, transport, ilmu—fan, dam olish markazlari bo'lishi mumkin.

Shaharlarning qaysi soxaga ixtisoslashuvi, ularning bajaradigan vazifasini aniqlash funksional tipologiya doirasida amalga oshiriladi. Bunda mezon qilib shahar aholisining bandlik tarkibi olinadi, ya'ni qaysi soxada mehnat resurslari ko'proq mamlakat shahar joylari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdanyuqori bo'lsa, o'sha yo'nalish mazkur shaharning funksional tipini ifodalab beradi.

Odatda shaharlar quyidagi funksional tiplarga bo'linadi.

1. Ko'p funksiyali siyosiy—ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar.
2. Ko'p funksiyali shaharlar—viloyat markazlari..
3. Ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari
4. Asosan bir yoki ikki sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan shaharlar.
5. Transport markazlari.
6. Agroindustrial shaharlar.
7. Tuman markazlari.
8. Rekreatsiya shaharlari.

Ilmu—fan markazlari, universitet shaharlari va h.k. Yuqoridagi funksional tiplar shaharlarning katta—kichikligiga qarab ham turlanadi. Bu holda shaharlarning funksional klassifikatsiyasi vujudga keladi.

O'zbekistonda birinchi va ikkinchi guruh shaharlarga Toshkent hamda barcha viloyat markazlari kiradi. Ular ayni paytda ko'p tarmoqli sanoat markazlari ham xisoblanadi. Uchinchi tipga asosan Chirchiq, Olmaliq, Qo'qon kabi shaharlar mansub, to'rtinchi guruhga Marg'ilon, Angren, Ohangaron, Muborak, Gazli, Zarafshon, Taxiatoş, Asaka, Uchqo'rg'on, Quvasoyga o'xshashlarni kiritish mumkin.

Kogon, Xovos, Qo'ng'iroq—transport shaharlari, Chortoq—rekreatsiya, Ulug'bek—fan markazlaridir.

Respublikamizda juda ko'p shaharlar agroindustrial yo'nalishga ega, ya'ni ularda qishlok xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari mavjud. Ulardan ham ko'proq shaharlar qishloqtumanlar markazi vazifasini bajaradi. Biroq, bunday shaharlar—«kichik poytaxtlar» ayni paytda agroindustrial xarakteriga ham ega bo'lishlari mumkin.

Poytaxt shaharlar mamlakat shaharlar to'ri va tizimida karvonboshchilik qilishadi. Ammo ular aholisi bo'yicha eng katta, sanoat o'ta rivojlangan bo'lishi aslo shart emas. Chunki, bunday shaharlarning asosiy vazifasi—siyosiy markaz, dorulsaltanat, ya'ni poytaxt funksiyasini bajarishdan, binobarin, mamlakatni boshqarish, uni siyosiy, ilmiy—texnikaviy, ijtimoiy—iqtisodiy jihatdan tashkil qilishdan iborat bo'lishi lozim.

Juda ko‘p mamlakatlarda poytaxt shaharlar muammosi keskin turadi. Bunday shaharlar mumkin qadar mamlakat hududining o‘rtasida (markazida), tarixan asosiy tub millat tarqalgan hududda joylashgan bo‘lmog‘i lozim. Sababi—ular eng avvalo milliy poytaxtlardir. Shu bilan birga, bu shaharlarda boshqaruv funksiyasi keng rivojlangan bo‘lishi shart.

Dunyo mamlakatlarining ayrimlarida poytaxt shaharlari o‘zgarib turgan. Masalan, Braziliyada poytaxt Rio-de Janeyroda, Qozog‘istonniki Almatada, AQSHniki Filadelfiyada bo‘lgan.

Global shaharlar. Hozirgi vaqtga kelib, jahon iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti ma’lum ma’noda “global shaharlar” rivojlanishida o‘z ifodasini topmoqda. So‘nggi yillarda adabiyotlarda tez-tez qo‘llanilayotgan ushbu atamaning fanga kirib kelganiga esa ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Hozirda bu yangi atamaning mazmun-mohiyati unga mansub bo‘lgan ob’ektlarning o‘ziga xos xususiyatlari, mezonlari, o‘zgarishlarini tadqiq etish asosida asta-sekin ochib berilmoqda.

Bu atama fanga ilk marta ”dunyoviy shaharlar” nomi bilan 1915-yilda britaniyalik urbanist P.Geddes tomonidan kiritilgan va u biznes ishlari eng ko‘p yuritiladigan, shuningdek, xalqaro biznes uchrashuvlari o‘tkaziladigan shaharlarni shu toifaga kiritadi. 1970-yillardan global shaharlarga alohida e’tibor berila boshlanadi. Bu termin 1991-yilda chop etilgan Saskiya Sassenning “The global city” asarida o‘z ma’nosida qo‘llanilib, uning fikricha **global shaharlar** (ingliz tilida “dunyo shahri”, “alfa shahar”) – bu jahon iqtisodiy tizimining muhim elementi hisoblanuvchi, xalqaro miqyosda tan olingan o‘ziga xos markaziy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy vazifalarni bajaruvchi shaharlardir.

Polyak olimi R.Domanskiy esa transmilliy korporatsiyalar orqali jahon xo‘jaligiga ta’sir etuvchi va xalqaro mehnat taqsimotining yangi shakllarini namoyon etuvchi, boshqaruvchi va nazorat qiluvchi yirik markazlarni global shaharlar deb qaraydi.

Global shaharlarning vujudga kelishida qator omillar rol o‘ynaydi. V.Xaritonov fikricha shaharlar globallashtiruvining asosiy omili-xalqaro mehnat

taqsimotining chuqurlashuvi, jahon hamjamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy hayotining yanada baynalminallashuvi, transport va aloqaning rivojlanishi bilan davlatlararo o'zaro munosabatlarda davlat chegaralarining to'siq sifatidagi rolining kamayib borishi yotadi.

Shaharlarning global tizimga kirishi va bog'lanish jihatlari hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, bu borada ayrim olimlar ular globallashishining ba'zi bir qirralarini tadqiq etishgan. Global shaharlar safiga o'z xususiyatlariga ko'ra, ma'lum mezonlarga javob bera oluvchi shaharlar kiritiladi. Chunki, Nyu-York va Los-Anjeles yoki London va Tokioning global tizimdagi o'rni va undagi tafovutlarini aynan shu mezonlar belgilab beradi.

Quyida Global Cities Index tashkiloti tomonidan ajratib ko'rsatilgan, shaharlarni bir-biridan ajratib turuvchi va global shaharlarning barchasida mavjud bo'lishi lozim bo'lgan bosh yo'nalishlar keltirilgan:

1-yo'nalish–ish yuritish salohiyati bo'lib, bu mezonga ko'ra global shaharlar jahonning boshqa shaharlaridan farqli ravishda iqtisodiy, moliyaviy, biznes va xizmat ko'rsatish faoliyatlarini qulay, tez, sifatli tarzda amalga oshirishi, shu bilan birga aynan shu sohalarda jahon miqyosida markaz sifatida tan olingan bo'lishi lozim.

2-yo'nalish–inson kapitali. Aholi soni nisbatan ko'p va ilmiy-ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo'lgan shaharlar global shaharlar tizimida yuqori o'rinlarni egallaydi. Masalan, Londonda sakkiz million aholi yashagani holda, u bu ko'rsatkich bo'yicha EI va Buyuk Britaniyada 1-o'rinni, dunyoda 21-o'rinni egallaydi. Nyu-York esa o'zida sakkiz yarim million aholini jamlaydi. Yaponiyaning eng zich hududlaridan biri hisoblanmish Tokioda esa bu raqam 2007-yil 12.79 million kishi bo'lgan bo'lsa, 2010-yilga kelib, 13.1 mln. kishini tashkil etdi. Shahar atrofi aglomeratsiyasi bilan hisoblaganda u ikki barobar yuqoriroq natijalarni ko'rsata oladi. Shuningdek, aglomeratsiya miqyosida mayatniksimon migratsiya ham katta o'rin tutishini hisobga olsak, ish vaqtida aholi soni qanchaga etishini tasavvur qilish qiyin emas.

3-yoʻnalish–ilmiy-axborot salohiyati. Global shaharlar yuqori axborot-texnologiyalari bilan taʼminlanganlik darajasi, oʻzining axborot bazasi boshqa shaharlardan ancha afzal ekanligi, shuningdek, bu shaharlarda dunyoning eng mashhur oʻquv yurtlari, kutubxonalari, ilmiy-tekshirish institutlari joylashganligi bilan ajralib turadi. Masalan, Tokio dunyoda oʻz ilmiy, tabiiy-texnika fanlarining eksperimental obektlari, Nyu-York esa oʻziga xos tor mutaxassislik tekshirish institutlari, ayniqsa, vulqonshunoslik, alternativ energiya manbalari turini koʻpaytirish, ekologik toza yoqilgʻini imkon boricha arzon ishlab chiqarish boʻyicha noyob markazlar koʻp joylashganligi bilan ajralib turadi.

4- yoʻnalish–madaniy salohiyat. Global shaharlarda sivilizatsiyaning eng yaxshi yutuqlari, jahon ahliga taniqli teatr, muzey va madaniyat uylari joylashganligi sababli bu shaharlarga turistlar, asosan, inson qoʻli bilan yaratilgan obektlarni koʻrish maqsadida boradi. Bu jihatdan Tokio oʻzining imperator saroyi, Tokio teleminorasi, Tokio Milliy muzeyi, Ueno bogʻi bilan mashhur boʻlsa, London 7.5 mln. eksponatli Britaniya muzeyi, Madam Tyusso eksponatlar muzeyi, Globus teatri va boshqalar bilan mashhur. Nyu-York esa oʻzining Butunjahon Savdo markazi, AQSH asosiy telekompaniyalari - SBS, BBS, NBS shtab-kvartiralari, Ozodlik haykali bilan sayyohlarni oʻziga koʻp jalb eta olishi bilan ajralib turadi.

5- yoʻnalish–siyosiy salohiyat boʻlib, bunda global shaharlarning jahon miqyosida eng muhim obektlarni qay darajada oʻzida jamlay olganligi eʼtiborga olinadi. Masalan, Tokioda Yaponiya Banki, Tokio Fond birjasi, shuningdek, barchaga yaxshi tanish boʻlgan Toyota va Sony korporatsiyalari shtab-kvartiralari joylashgani holda, London va Nyu-Yorkda ham shunday markazlashuv holatlarini kuzatishimiz mumkin.

Hozirda global shaharlar turli olimlar va tadqiqot tashkilotlarida turlicha mezonlarga koʻra tasniflanadi va baholanadi. Masalan, P.Geddes izohida biznes faoliyati asosiy koʻrsatkich sifatida qabul qilingan boʻlsa, Saskiya Sassen ishlarida uch yoʻnalish–hududiy va ijtimoiy markazlashuv,iqtisodiy xizmat koʻrsatish va

moliyaviy salohiyat bo'yicha tavsiflanib, ularga yuqorida keltirilganidek Tokio, London, Nyu-York kiritilgan.

R.Teylor 10 ta global shaharlarni 3 xil biznes-xizmat turlarini- reklama, bank va xuquq sohalariga tegishli xizmatlarni bajaruvchi jahon firmalarini tadqiq etish asosida shuni aniqlaydiki, shaharlarning globallashtirishida aynan biznes xizmatlar xalqaro korporatsiyalardan ham muhimroq, etakchi omil bo'lar ekan. Unga ko'ra Nyu-York birinchi, keyingi o'rinlarda London, Los-Anjeles, CHikago, Frankfurt, Tokio, Milan, Singapur, Parij, Gonkong turadi.

Ingliz olimi P.Xoll esa global shaharlar ixtisoslashuvining 18 turini ajratadi. Xususan, –jahon siyosiy markazlari, transmilliy korporatsiyalar-ning shtab-kvartiralarini, yirik banklar, xalqaro birjalar, huquqiy tashkilotlar joylashgan markazlar va b. Lekin ayrim hollarda transport tugunlari, yirik portlar ham shu hisobga kiritiladi.

“The Globalization and World Cities” (GaWS) o'z tasniflarida shtab-kvartiralarining soni va to'rt usul – moliyaviy, auditorlik, reklama va huquqiy biznes kabi xizmat turlariga katta ahamiyat bergan. Keyinchalik bu baholash mezonini biroz takomillashtirilib, ular α , β , γ , δ – to'rt guruhga ajratilib, 12 balli tizim asosida guruhlarga ajratilgan. Umuman olganda, α shahar darajasi 10 ta shaharga berilib, β shaharlar doirasida ham shunday holatni kuzatish mumkin. Darajalar pasaygani sari shaharlar soni ham oshib borgan: γ shaharlar toifasiga 36 ta shahar kirsa, δ shaharlar soni 58 tani tashkil etgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, global shaharlarni tasniflash avvaliga shu shaharlarda mavjud imkoniyatlarni hisobga olish orqali belgilangan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ular ham o'z o'rnida imkoniyatlar darajasiga ko'ra alohida guruhlarga ajratilgan. Bu guruhlar tarkibi yillar bo'yicha biroz o'zgarayotgan bo'lsada, uning hozirgi kunda yuqori o'rinlarni egallab turgan global shaharlar safiga keyinchalik qaysi shaharlar qo'shilishi mumkinligini ko'rsatuvchi asosiy yo'llanma bo'lishiga shubha yo'q.

Odatda shaharlar quyidagi funksional tiplarga bo`linadi:

- Sanoat markazlari;
- Port-shaharlar;
- Ma'muriy markazlar va poytaxt shaharlar;
- Ilm-fan markazlari;
- Kurort shaharlar;
- Turistik markazlar;

SANOAT MARKAZLARI

- Sanoat markazi – sanoatning bir yoki bir nechta sohasiga ixtisoslashgan shahar. Odatda, sanoat markazlari bir vaqtning o`zida transport funksiyasini ham bajaradi.
- Bugungi kunda eng rivojlangan sanoat markazlari sifatida quyidagi shaharlarni keltirishimiz mumkin:
- Seul (Janubiy Korea), San Paulo (Braziliya), Mumbai (Hindiston), Jakarta (Malayziya), Karachi (Pokistan), Moskva (Rossiya), Istanbul (Turkiya), Mexiko City (Meksika), Shanxay (Xitoy), Tokyo (Yaponiya).



San Paulo



Jakarta



Mumbai



Karachi

SEUL

Seul dunyodagi eng sanoatlashgan shahar hisoblanadi. Janubiy Amerika



iqtisodiyoti



bo'yicha Osiyoda 3-o'rinni egallaydi. Seulda turli zavod-fabrikalar, qo'shma korxonalar va axborot texnologiyalari ishlab chiqaruvchi tashkilotlar ko'p. U dunyoda sanoati bo'yicha 1-o'rinni egallaydi. Janubiy Koreya axborot texnologiyalari bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. U juda katta eksport salohiyatiga ega. Bugungi kunda Seul investorlari robot sanoatida ham dunyoda yetakchilik qilishga urinishmoqda.

PORT-SHAHARLAR

- Portlar ko'p tarqalgan va ulardan keladigan daromad iqtisodning asosini tashkil qiladigan shaharlarga port-shaharlar deyiladi.
- Dunyodagi eng yirik port shaharlar quyidagilar:
- Shanxay (Xitoy)
- Singapur (Singapur)
- Rotterdam (Gollandiya)
- Antverpen (Belgiya)



SHANXAY

Bundan 10 yilcha ilgari ekspertlar bu portni suvning sayozligi sababli foydasiz

deb topishgan.



Shundan 3 yilcha o`tar o`tkas xitoyliklar bu port suvini chuqurlashtirishdi va uning maydonini 4000 m² ga yetkazishdi. Bu portda dunyoning 200 dan ortiq

davlatning 500 dan ortiq portlariga yo`nalishlar mavjud. 2011-yilda bu port orqali 730 million tonna yuk tashib o`tilgan.

MA`MURIY MAZKAZLAR VA POYTEXT SHAHARLAR

- Ma`muriy markaz – ma`muriy birlikning rasmiy bosh shahri bo`lib, unda hukumat davlat organlari joylashgan bo`ladi.



- Ma`muriy markaz boshqa aholi punktlari bilan bo`g`lanuvchi o`z infrastrukturasi va boshqaruv vazifasini bajarish uchun yetarlicha iqtisodiy, madaniy va kadrlar potensialiga ega bo`ladi. Shuning uchun ham dunyoning ko`plab mamlakatlarida ma`muriy markazlar shu regionning eng katta aholi manzilgohi hisoblanadi.



- Mustaqil suveren davlatning bosh rasmiy shahri poytaxt deb ataladi. O`zbekistonning poytaxti Toshkent.



LONDON



ISLOMOBOD



PARIJ



VASHINGTON



BERLIN

ILM-FAN MARKAZLARI

Dunyodagi ilm-fan rivojlangan va dunyodagi boshqa olimlarni ham o`ziga jalb qiluvchi, tadqiqotlar, ekspeditsiyalar olib borish uchun qulay yerlarda joylashgan va shu tufayli iqtisodiyotni rivojlantirib kelayotgan shaharlarga ilm-fan markazlari deyiladi.



KALKUTTA

- Quydagi ilm-fan markazlari bugungi kunda yetakchi hisoblanadi:
Houston, Austin, Raleigh, Denver, Omaha, Sietl, Oklahoma, Kolumbus, Sinsinitta.
- Houstondagi ilmiy xodimlarning yillik maoshi 79589\$ ni tashkil qiladi.
- Bunday shaharlarda, asosan, injeneriye, texnika, matematika rivojlangan bo`ladi.

KURORT SHAHARLAR

- Kurort shaharlar – bu madaniy va iqtisodiy asosini turizm va dam olish sohasi tashkil qiladigan shaharlardir.



- Odatda, kurort shaharlar bir yoki bir nechta sohillardan iborat bo`ladi.
- Bunday shaharlarga quyidagilarni misol qilish mumkin: Barselona (Ispaniya), Keyptaun (Janubiy Afrika), Honolulu (Gavayi), Nays (Fransiya), Mayami Beach (Florida), Rio de-Janeyro (Braziliya) va boshqalar.
- **BARSELONA**
- Barselona o`zining arxitektik mo`jizalari, ajoyib milliy taomlari va takrorlanmas shaharsozligi bilan dunyoga mashhur hisoblanadi. Shu bilan birga uning O`rta Yer dengizi bilan 8 ta kurorti mavjud bo`lib, ularning qulay tomoni metro bekatlariga juda yaqin



- joylashgan.
- Ulardan eng mashhuri Barseloneta Beach hisoblanadi.
- Bu yerda soyabonlar, stullar va shunga o`xshash buyumlarni ijaraga olib turish mumkin. Bu yerda, hattoki, velosipedlar ham ijaraga beriladi.

TURISTIK MARKAZLAR

Turistik shahar – o`ziga xos tabiati, madaniyati, tarixiy ahamiyati, o`zoga xos binolari uchun yoki dam olish, rohatlanish uchun turistlar tashrif buyuradigan



shahar.



Dunyodagi eng katta turistik shaharlar(MasterCard ma'lumotlari bo'yicha 2015-yil):

London. 18,82 million kishi tashrif buyurgan. Bangkok. 18,24 million kishi tashrif buyurgan. Parij. 16,06 million kishi tashrif buyurgan. Dubai. 14,46 million kishi tashrif buyurgan. Istanbul. 12,56 million kishi tashrif buyurgan. Nyu York. 12,27 million kishi tashrif buyurgan. Singapur. 11,88 million kishi tashrif buyurgan. Kuala Lumpur, Malayziya. 11,12 million kishi tashrif buyurgan. Seul. 10,35 million kishi tashrif buyurgan. GongKong. 8,66 million kishi tashrif buyurgan.

London

London o'zining restoran va do'konlari, moda olami bilan mashhur. Shuningdek, siz u yerda ko'plab mashhurlarni uchratishingiz mumkin.



Nazorat uchun savollar:

1. Shaharlar vazifalarining o'xshash va farqli tomonlari.
2. Shaharlarning vazifalariga ko'ra turlari.
3. Shaharlarning yuridik va faktik chegaralari hamda o'sish chegarasi qanday.
4. Maltus nazariyasining mohiyati nimada.
5. Ko'p vazifali shaharlar.

6.Sanoat markazlari va poytaxt shaharlar.

7.Urbanizatsiya va xavfsizlik.

Savol va topshiriqlar:

1 Bir qancha funksiyalarga ega bo'lgan shaharlarni ayting?

2.Dunyoning transport markazlari va port shaharlari qaysilar?

3.Shaharlar genetik tiplariga ko'ra qaysi shaharlarga bo'linadi?

5-Ma'ruza:Shaharlarning hududiy tizimlari

Reja:

1. Shaharlar hududiy tizimlarining vujudga kelishi, turlari.

2. Shahar aglomeratsiyalarining hududiy tarkibi.

3. Shahar aglomeratsiyalarining hududiy ko'rinishlari.

4. Urbanistik zonalar, rayonlar.

5. Megapolis, megalopolis, konurbatsiya.

Tayanch tushunchalar: Aglomeratsiya, Konurbatsiya, millioner shaharlar, urbanizatsiya, urbanistik zonalar, megapolis, megalopolis, konurbanizatsiya, investitsion muhit, geoeologik muhit, nozogeografik muhit, sotsial muhit.

Jamiyat taraqqiyotining XIX asrida aholining qishloqlardan shaharlarga ko'plab ko'chib borishi, yirik shaharlar sonining ko'payishi, shahar aholisi salmog'ining ortib borishi va qishloq joylarga shahar turmush tarzi hamda madaniyatining kirib borishi bilan bog'liq bo'lgan urbanizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlana bordi. 1800-yilda Yer shari aholisining 3 foizi, 1900-yilda 13,6 foizi shaharlarda yashagan bo'lsa, 2010-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli 50 foizni tashkil etdi. XIX asr boshida jahon urbanizatsiyasining asosiy manzarasini ko'rsatuvchi aholi soni 100 mingdan ziyod shaharlar 65 ta bo'lgan bo'lsa, keyingi asrda ular 360 ta va XXI asr boshida 2000 dan ortdi. Millioner shaharlar esa hozirgi kunda 220 ta bo'ldi. Xususan, dunyoning qator rivojlangan davlatlarida urbanizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Masalan, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Belgiya kabi rivojlangan davlatlarda urbanizatsiya darajasi 80-90 foizga etdi.

Soʻnggi yillarda urbanizatsiya jarayoni sifat jihatdan oʻzgarib oʻzining yuksak choʻqqisiga erishdi; yirik shaharlar oʻz doirasidan chiqib, yangi hududiy tizimlar-shahar aglomeratsiyalari va megalopolislar koʻrinishida namoyon boʻla boshladi. Bu jarayon ayniqsa aglomeratsiyalar shakllanishida oʻz aksini topdi.

"Aglomeratsiya" lotincha soʻz boʻlib, "toʻplamoq", "qoʻshib olmoq" maʼnosini bildiradi. Mazkur termin koʻp sohalarda, masalan, sanoatda, geologiyada ishlatilib, keyinchalik aholi manzilgohlari uchun ham qoʻllanila boshlandi. Umuman olganda "aglomeratsiya" tushunchasi dastavval nemis olimi Alfred Veberning sanoat shtandorti nazariyasida qoʻllanilgan. U sanoat korxonalarini joylashtirishda transport, isteʼmol omillari qatorida aglomeratsiya omiliga ham katta eʼtibor bergan. Bu soʻznibirinchi marta amerikalik shaharshunos olim Adna Veber 1899 yilda shaharlar geografiyasi faniga olib kirdi va aholi manzilgohlarining bir joyda toʻplanishi uchun ushbu terminni ishlatdi. Fransuz geografi M.Ruje oʻz ishlarida shaharlarga xos boʻlgan faoliyat turlarini shaharning maʼmuriy chegaralaridan tashqariga chiqib, qoʻshni aholi manzilgohlariga ham yoyilishini "aglomeratsiya" deb atadi (Проблемы изучения городского агломераций, 1988). Bizning fikrimizcha aglomeratsiya ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllaridagi mujassamlashuv va markazlashuvning bir koʻrinishidir. Ishlab chiqarishni bunday tashkil etish katta mujassamlashuv yoki aglomeratsiya samaradorligini taʼminlaydi.

1920-yillarda shaharlarning dinamik rivojlanish modellari ishlab chiqila boshlandi. Misol tariqasida grek arxitektori K.Doksiadis tomonidan yaratilgan dinapolis modelini, N.Ladovskiyning Moskva shahrini Leningrad yoʻnalishida rivojlantirish loyihasini yoki Parij shahrini parallel ketgan «oʻq»lar boʻylab yoʻnaltirish hamda kontrmagnit markazlar paydo qilish sxemalarini aytish mumkin. 1940-yillarda shaharshunos olim Le-Korbyuze oʻz ishlarida asosiy "yadro"ga xizmat qiluvchi barcha narsalarni, shu hududdagi erna ham kiritadi. P.Korsuelli va B.Malishning ishlarida faqat aholi yashaydigan va ishlaydigan joylarning yigʻindisi sifatida qaraladi. J.Forrester yirik shaharlarning dinamik

rivojlanishini tizimli tahlil va EHM asosida modellashtirib, uzoq muddatga prognozlashtirgan (Forrester J., 1974).

Shahar aglomeratsiyalari rus-sovet adabiyotlarida 1910-20 yillardan A. Kruber, M. Dikanskiy, V. Semyonov Tyan-SHanskiy tomonidan o'rganila boshlandi va turli nomlar bilan ataldi, masalan, "iqtisodiy shahar", "shaharning xo'jalik okrugi", "planlashtirilgan rayon" va h.k. D.I. Bogoradning fikriga ko'ra "bir-biri bilan xo'jalik, mehnat, madaniy-maishiy aloqalar orqali bog'langan, o'z rivojlanishi davomida yaqinlashib, ba'zan qo'shib ketadigan, bir hududda to'plangan shaharlar va boshqa aholi manzilgohlarning ixcham joylashuviga aglomeratsiya deb aytiladi. (Bogorad D.I., 1968). Yirik shaharshunos olim G. M. Lappingning ham fikri unga o'xshash bo'lib shunday ta'rif beradi: "Shahar aglomeratsiyalari xilma-xil intensiv aloqalar bilan yagona, dinamik tizimga birlashgan aholi manzilgohlarining ixcham hududiy guruhidir" (Lappo G.M., 1978). Keyinchalik, E.B.Alaev o'zining terminologik lug'atida shahar aglomeratsiyalarini ham xalq xo'jaligi, ham aholini tashkil etish shakli ekanligini e'tirof etadi (Alaev E. B., 1983).

T.Raimov O'rta Osiyoda yirik shahar aglomeratsiyalari poytaxt shaharlar negizida shakllanishi va bunda poytaxtlik funksiyalarining asosiy o'rin tutishini ta'kidlagan. (Raimov T., 1975). O'zbekistonda aholi joylashuvi hududiy tizimlarini shakllanish jarayonlarini o'rganish asosida Ota-Mirzaev O. B. ularni bir necha tiplarga ajratgan va prognozlashtirgan (Ata-Mirzaev O.B., 1979).

Soliev A.S. respublikamizda aholi joylashuvi hududiy tizimlari, jumladan aglomeratsiyalarning shakllanishida gidrografiya tarmoqlarining roliga alohida ahamiyat bergan (Saliev A., 1984).

Bizning fikrimizcha aglomeratsiyalar umuman olganda aholi zich joylashgan kichik bir hududda joylashgan va bir-biri bilan turli aloqalar bilan o'zaro bog'langan shahar va qishloqlarning murakkab tizimidir. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, "shahar aglomeratsiyasi" tushunchasi ma'lum ma'noda shartli xarakterga ega. Sababi bunday hududiy tizimlarda faqat shahar joylar emas, balki ular orasida qishloqlar ham mavjud bo'lib, ularning aholisi ham

aglomeratsiyalashuv jarayonida ishtirok etadi. Ammo shahar, ayniqsa yirik shaharlarning bunday murakkab tizimlarni shakllanishidagi etakchi rolini hamda shahar aholisi va shaharcha hayot tarzini tarqalishini hisobga olib, bunday tuzilmalar shahar aglomeratsiyalari deb ataladi.

Shahar aglomeratsiyalari (SHA) iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tushunchalari bo'lgan hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy majmualar va iqtisodiy geografik o'rin bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa ular hududiy tarkib, hududiy tizim va hududiy majmualarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Avvalambor, SHA har qanday hududiy tarkibni shakllantiruvchi asosiy belgidir. Ular o'ziga xos hududiy tizimni anglatadi. Bunda shahar aglomeratsiyalari zaminida sanoat va transport tuguni yotadi.

Ayni vaqtda shahar aglomeratsiyalari yagona iqtisodiy geografik o'rin, iqtisodiy makon, bozor muhitini ham bildiradi. Ularda yagona investitsiya muhiti, ekologik, nozogeografik va kriminogen vaziyat ham vujudga keladi. Xususan, shahar aglomeratsiyalarining yagona sotsial muhit ekanligini ta'kidlash lozim. Chunki aglomeratsiyada o'ziga xos yashash sharoiti, kishilarning haftalik mehnat – hayot faoliyati sodir bo'ladi.

Aglomeratsiyalarning nomlanishi ham turlicha bo'lib, masalan AQSHda «metropolitan areali (SMSA)» deb yuritiladi. Har bir metropolitan areali kamida 50 ming kishidan iborat markaziy shahar, shahar areali va okrugidan iborat bo'lib, okrugdan markazga ko'plab aholi migratsiyasi ro'y beradi. Agar okrugda aholi zichligi 1 kv. milga 25 kishi to'g'ri kelsa va 50 % aholisi arealga qatnab ishlasa uning bu qismi metropolitan arealiga qo'shiladi (O Sallivan A., 2002). Ingliz adabiyotlarida shaharlarning bunday hududiy tizimlari odatda «konurbatsiya» deb e'tirof etiladi. Bu terminni ingliz olimi P.Geddes 1913 yilda kiritgan bo'lib, u yirik shaharlarning hududiy jihatdan o'zaro qo'shib ketishini nazarda tutadi. A. Soliev fikriga ko'ra, konurbatsiya ham aglomeratsiyaning bir shakli bo'lib, u shaharlarning bevosita qo'shib ketishini anglatadi. Vaholanki, aglomeratsiyalarda shahar va yo'ldosh manzilgohlarning hududiy jihatdan batamom qo'shib ketishi

shart emas. Binobarin, har qanday konurbatsiya ayni vaqtda aglomeratsiyadir, lekin aksincha emas (Soliev A., 2000).

Shahar aglomeratsiyalarining asosini yirik shaharlar tashkil etadi, ular bitta ba'zan esa ikki va undan ortiq bo'lishi ham mumkin (Donetsk- Makeevka- Gorlovka, Gdansk- Gdinya - Sopot va b.). Markaziy shahar qanchalik katta bo'lsa uning ta'sir doirasi ham shunchalik keng bo'ladi. Odatda uning aholi soni 100 mingdan ortganda aglomeratsiyalashuv uchun ko'proq imkoniyat vujudga keladi. G.Aleksanderson bu haqda shunday deydi: "Agar shaharga zarur bo'lgan tovar yoki xizmat shahar tashqarisida bo'lsa, u aglomeratsiyani rivojlantiruvchi kuchdir".¹ Yirik shahar o'z taraqqiyoti davomida aholisining o'sib borishi, bajaruvchi funksiyasining va shahar planirovkasining takomillashib borishi bilan vujudga kelgan muammolarini shaharning ma'muriy-hududiy doirasida hal eta olmaydi va o'z chegaralaridan chiqib, atrof yo'nalishida kengayib boradi. Ularni endi izolyasiyalangan, avtonom holda ko'rish mumkin emas (Persik E. N., 1989; Davidovich V. G., Kovalyov S. A. 1970).

Joyning tabiiy va iqtisodiy geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aglomeratsiyalar turlicha xududiy tuzilishga ega bo'ladi. Moskva aglomeratsiyasi atrofga yo'nalgan transport yo'llari bo'ylab go'yoki o'n ikki qirrali yulduzga o'xshaydi, Nijniy Novgorod aglomeratsiyasi esa to'rt yo'nalishda atrofga kirib bormoqda. Markazdan tarqaluvchi radial yo'l bo'ylari tez rivojlanadi, ularning oralarida esa ochiq joylar-bufer zonalar qoladi. Bu zonalar ko'pincha "yashil zonalar" yoki qishloq xo'jalik erlari bilan band bo'ladi. Rivojlangan davlatlarda esa ular qurilishlar, uy joylar bilan to'lib ketib, yo'ldosh shahar bosh shaharga qo'shilib ketadi. Markaziy shahar aglomeratsiyaning "yadro" sini tashkil etadi. Undan uzoqlashgan sari aholi zichligi va aholi manzilgohlari kamayib boradi, ular o'rtasidagi aloqalar ham susayadi. Aglomeratsiya chegarasi ko'pincha 50-60 ba'zan esa 100-110 km li radiuslarga ham teng bo'lishi mumkin.

Shahar aglomeratsiyalarining shakllanishi va rivojlanishida iqtisodiy geografik o'rin (IGO') muhim rol o'ynaydi. Tog'oldi tekisliklari, daryo va dengiz

bo'ylarida paydo bo'lgan aglomeratsiyalar qulay iqtisodiy geografik o'rnidan foydalanib, ularning bo'ylarida rivojlanishda davom etadi va "polosasimon" konfiguratsiyaga ega bo'ladi (G.M.Lappo,1978). Bunday aglomeratsiyalar ko'pchilikni tashkil etadi va unga misol tariqasida CHu daryosi bo'yidagi Bishkek, Volga etaklaridagi Volgograd aglomeratsiyalarini keltirish mumkin. Bitta asosiy magistral bo'ylab joylashgan aholi manzilgohlaridan tashkil topgan aglomeratsiyalar "chiziqsimon" yoki "zanjirsimon" ko'rinishda bo'ladi (Tokio, Vena va b.). Tabiiy (tog', daryo) va siyosiy (davlat chegaralari) to'siqlarga ega bo'lmagan, tekisliklarda shakllangan tizimlar ko'pincha ixcham joylashadi va simmetrik holda har tomonga bir tekis rivojlanishi mumkin (Kiev, Xarkov va b.). Aholi manzilgohlarining bunday bir erda g'uj bo'lib joylashgan tizimlari ko'p hollarda tog'-kon sanoati asosida vujudga kelgan aglomeratsiyalarda ham uchraydi (Donbass, Qarag'anda, Katta Rur va b.).

Dengiz bo'yidagi savdo yo'llari, qulay buxtalarda joylashgan port shaharlar jahondagi yirik aglomeratsiyalarning vujudga kelishini ta'minlagan (Katta Gamburg, SHanxay, San-Fransisko va b.). Quruqlik ichkarisidagi aglomeratsiyalarning aksariyati daryo bo'ylarida (Moskva-Moskva reka, Toshkent CHirchiq bo'yida, Novosibirsk Ob daryosi bo'yida va h.k.) yoki ularning deltalarida (Kalkutta Gang daryosi, Qohira Nil daryosi deltasida) joylashgan. Ayrim hollarda, aglomeratsiyalar doirasidagi ba'zi yo'ldosh shaharlar tez rivojlanib, o'z atrofidagi aholi manzilgohlarini o'ziga tortadi va «ikkinchi darajali» aglomeratsiyalar tarkib topadiki, ular kelajakda «megalopolislar» paydo bo'lishining belgilaridir.

SHahar aglomeratsiyalarining vujudga kelishini G. M. Lappo o'z ishlarida 2 xil turini ajratadi. "SHahardan"-asosiy shahardan unga mos kelmaydigan ob'ektlar yaqin atrofiga olib chiqiladi yoki shahar uchun zarur bo'lgan ob'ektlar uning atrofidagi yo'ldosh shaharlarga quriladi. SHu tariqa aglomeratsiya paydo bo'ladi va rivojlanadi. "Rayondan"- konlar yoki yangi erlar o'zlashtirilayotgan rayonlarda bir necha aholi manzilgohlaridan birortasi qulay IGO' ga ega bo'ladi, u tez rivojlanib dominantlik qiladi va aglomeratsiya yadrosiga aylanadi, qolganlari

esa yo‘ldosh shaharlarni tashkil etadi. Lekin, ko‘pchilik hollarda aralash tipdagi aglomeratsiyalar uchraydi (Lappo G.M., 1997).

SHahar aglomeratsiyalari turli erlarda turli tabiiy va iqtisodiy geografik omillar va sharoitlar ta’sirida tarkib topgani uchun jahon tajribasida ularni ajratishda yagona mezon qabul qilinmagan, masalan, AQSHda ular "yadro"sining aholisi 50 ming kishi, Kanadada esa 100 ming kishi bo‘lishi talab etiladi. MDHdagi ko‘pchilik aglomeratsiyalarni ajratishda G.M.Lappo metodikasidan foydalangan holda, markaziy shahar aholi soni 250 mingdan, yo‘ldosh shaharlar soni to‘rttadan, aglomeratsiyalarning rivojlanganlik koeffitsienti 1 dan kam bo‘lmasligi (shaharlar zichligining shaharlar orasidagi masofaga nisbati) talab etiladi. F. M. Listengurt taklif etgan metodikaga ko‘ra endi shakllanayotgan va kelajakda aglomeratsiya sifatida to‘la shakllanadigan aglomeratsiyalarni ajratishda "yadrosining" aholi soni 100 ming kishidan kam bo‘lmasligi, yo‘ldosh shaharlar soni kamida 2 ta bo‘lishi nazarda tutiladi.

Aglomeratsiyalar chegaralarini ajratishda, jumladan, A. P. Buryan CHelyabinsk aglomeratsiyasini aniqlashda aholi soni, zichligi, xalq xo‘jaligi tarmoqlarida bandligi, markaziy shahar bilan aloqalar intensivligini asos qilib olgan bo‘lsa, V.G. Vishnevskiy Xarkov aglomeratsiyasini ajratishda shahar atrofida yashab markaziy shaharda ishlovchilar salmog‘i 25 %, aholi zichligi 1 km² ga 70 kishidan kam bo‘lmasligini mezon qilib oladi. V.G. Davidovich Moskva aglomeratsiyasi uchun markazga qatnash vaqti uzoqligini hisobga oladi (1.1-jadval).

1.1- jadval

**SHaharlarni ajratish bo‘yicha olimlar tomonidan taklif etilgan
mezonlar**

SHaharlarni ajratish mezonlari	G.M. Lappo	F.G.Listen gurt	P.M.Polya n	V.G.Davidovich	A.O’ Sullivan
Markaziy shahar aholi soni	250000	100000	250000		50000
Yo‘ldosh shaharlar	4	2	3	8-10	

soni					
SHaharlar chegarasining yadrodan uzoqligi	2 soatgacha	0,5-2 soat	0,5-2soat	100 km	1-2 soat
SHaharlarning shakllangan va rivojlanganlik koeffitsienti	$K_r - 1,0$	$K_a - 0,1$	$K_r - 1,0$		
Aholi zichligi				1kv km ga 75k. dan ortiq	1kv.mil-ga 2500 kishi
Yo'ldoshshahar aholisining SHahardagi ulushi	50000				50000-75000
Markazga qatnovchi aholininghissasi				10%	

Manba: Lappo G.M.Razvitie gorodskix aglomeratsiy v SSSR. M.,1978.; Problemy izucheniya gorodskix aglomeratsiy. M., 1988.; A.O' Sallivan, Ekonomika goroda.M., 2002.

Ko'pchilik tadqiqot ishlarida aholi manzilgohlaridagi aloqalar intensivligi asosiy o'rin tutadi va aglomeratsiya chegarasi taxminan 1,5-2 soatli izoxronalardan (qatnash vaqti bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziq) o'tadi. Markaziy shaharga shahar atrofidan mehnat, o'qish, madaniy-maishiy, davolanish maqsadlarida shaharning ma'muriy chegarasini kesib o'tib, yana qaytishi tebranma migratsiya yoki V.V. Pokshishevskiy iborasi bilan aytganda "mokisimon migratsiya" deb ataladi va ular asos qilib olinadi (G. N. Ozerova, V. V. Pokshishevskiy, 1981). Aglomeratsiyalarning chegaralari shartli va o'zgaruvchan

bo'lib, ayniqsa shaharliklarning dam olish mavsumida (hafta oxiri va yozgi mavsumda) qabul qilingan chegaradan dam olish zonalarini tomon suriladi.

O'zbekiston sharoitida shahar aglomeratsiyalarini ajratishda etakchi olimlar taklif etgan mezonlar bilan bir qatorda milliy xususiyatlarni ham, ya'ni tog' vodiylari, irrigatsiya tarmoqlari, aholi zich joylashgan vohalar, havza omili, transport tugunlari, sanoat rayonlari va boshqalarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Yo'ldosh shaharlar yirik shaharlarga, masalan, poytaxt, viloyat yoki o'lka markazlari, yirik sanoat markazlari va boshqalarga tortilib, ular bilan va atrofidagi boshqa aholi manzilgohlari bilan bog'liq holda rivojlanadi. Lekin yirik shahar atrofidagi barcha shaharlar ham yo'ldosh shaharlar bo'lavermaydi. Uning uchun V.G.Davidovich bir necha shartlarni-shahar atrofi aholisining kundalik mehnat aloqalari bo'lishi, markaziy shaharning madaniy-maishiy xizmatidan yo'ldosh shaharlar doimiy ravishda foydalanishi, yo'ldosh shaharlar o'zining dam olish maskanlari bilan yirik shaharga xizmat qilishi, ya'ni doimiy yoki mavsumiy migratsiyalar bo'lishi kerakligini ko'rsatadi (Davidovich V. G.,1961). O.K. Kudryavsev esa yo'ldosh - shahar bo'lishning asosiy belgisi qilib, asosiy shaharga (va aksincha) 1 yilda 1 kishiga kamida 10 marta qatnash lozimligini asos qilib oladi (Kudryavsev O. K., 1985). Demak, yo'ldosh shaharlar markaziy shahar bilan mehnat va madaniy-maishiy xizmat aloqalari orqali chambarchas bog'langan aholi manzilgohlaridir.


Yo'ldosh shaharlar, odatda, monofunksional bo'lib, sanoat markazi, kurort, ilmiy markaz, tuman markazi, agrosanoat markazi kabi funksiyalarni bajaradi. Ba'zan ular tez rivojlanib, bir necha funksiyalarni amalga oshiradi va yiriklashib o'ziga xos lokal hududiy tizimni shakllantiradi.

SHahar aglomeratsiyalari ulardan farq qilib lokal hududiy tizimlar bo'lib, undagi elementlar bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Bu erda umumiy hayot faoliyati, yagona xo'jalik tizimi shakllanadi. Ushbu hududdagi barcha resurs va imkoniyatlardan: tabiiy va mehnat resurslari, suv va energiya ta'minoti, yirik shaharning ilmiy-texnik salohiyati, er va uy-joy fondi, mehnat

qilish, dam olish, davolanish, bilim olish kabi xizmatlardan umumiy holda foydalaniladi. Agar sobiq Ittifoq davrida hududiy majmualar, sanoat tugunlari va rayonlarida, poytaxt shaharlar atroflarida shakllangan shahar aglomeratsiyalariga katta e'tibor qaratilgan va asosan iqtisodiy maqsadlar ko'zlangan bo'lsa, yangi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarga o'tilishi bilan ularga bo'lgan qarashlar o'zgardi. Xususiy mulkchilik va erkin raqobatga asoslangan yangi sharoitlarda ular o'zgacha xususiyatlar bilan rivojlanmoqda. Mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida xorijiy sarmoyalarning asosiy o'rin egallashi, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi, xususiylashtirish jarayonining borishi, uy-joy narxlarining keskin ortishi, erdan foydalanishda bozor munosabatlarning kirib kelishi kabi yangi xususiyatlar ularda o'ziga xos muhitni shakllantirmoqdaki, ularni yangi iqtisodiy va ijtimoiy sharoit nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

SHu nuqtai nazardan olgandaular bugungi kunda o'ziga xos :

SHahar aglomeratsiyalarining zamonaviy xususiyatlari



Shahar aglomeratsiyalari mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasidir. Ular kichik, ixcham bir hududda ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllari: ixtisoslashuv, kooperatsiya, kombinatlashuv va mujassamlashuv asosida tarkib topadi. Turli tarmoqlarga ixtisoslashgan va o‘zaro yaqin joylashgan markazlar o‘rtasida aloqalar kuchayadi, ulardan unumli foydalanib, qisqa masofalarda vaqt va transport xarajatlarini tejagan holda, ular bir-birini to‘ldiradi va aglomeratsiya samaradorligini ta’minlaydi. Aglomeratsiyalar lokal hududiy tizim sifatida nafaqat aholi, balki iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy tashkil etishning ham yuqori darajada takomillashgan shakli bo‘lib hududning asosiy iqtisodiy tayanch areallari hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlardagi shahar aglomeratsiyalari yalpi ishlab chiqarishning 2/3 qismini beradi. Respublikamizda esa ular hissasiga ishlab chiqarish va eksportning 70 foizdan ortig‘i to‘g‘ri keladi. Bunday tizimlar hozirgi modernizatsiya sharoitida o‘zgarishlarga tez moslasha oladi. Chunki ularda juda ko‘p tarmoqlar mavjud, biri inqirozga uchragan holatda, ikkinchisi rivojlanishi mumkin.

- **investitsiya muhiti.** Yirik shahar va aglomeratsiyalar o‘zining qulay geografik o‘rni, boy tabiiy resurslar va sharoitlari, ishchi kuchi va malakali kadrlarining ko‘pligi, keng iste’mol bozorining mavjudligi, transport va ilmiy-texnik salohiyatning yuqori darajada mujassamlanganligi bilan o‘ziga xos investitsiya makonini hosil qiladi. Bu erda moliya, kredit, savdo shahobchalari, takomillashgan transport tizimi mavjud bo‘lib, xorijiy sarmoyadorlarni o‘ziga ko‘proq jalb etadi. Masalan, mamlakatimizdagi kiritilayotgan xorijiy sarmoyalarning 80 foizi aynan shu joylarga to‘g‘ri keladi.

- **sotsial muhit.** Aglomeratsiya doirasida aholining haftalik, oylik, epizodik hayot faoliyati shakllanadi, mehnat qilish, o‘qish, dam olish, davolanish, uy-joy, kommunal xizmatlardan umumiy foydalaniladi. Eng avvalo aglomeratsiya “yadro”sining yuqori salohiyati aholini o‘z ta’sir doirasiga tortib turadi. Mazkur hududda o‘ziga xos turmush tarzi, shahar madaniyati shakllanadi va rivojlanadi. Inson shaxsining har tomonlama etuk va barkamol bo‘lib etishishi uchun keng imkoniyatlar yuzaga keladi. Ularning bunday nufuzi chetdan aholini yanada o‘ziga

jalb etadi va u kengayib, rivojlanib boradi. Moskva aglomeratsiyasi 80-90 km masofadan aholining kundalik qatnovini ta'minlaydi. Toshkent aglomeratsiyasi kuniga 25 mingga yaqin, Buxoro aglomeratsiyasi 15 ming aholini (Mavlonov A., 2010) turli maqsadlarda o'ziga jalb etadi.

- **yagona mehnat bozori muhiti.** Mazkur tizimlarda joylashgan aholi manzilgohlarining funksiyalari ortib boradi. Bir erda to'plangan turli markazlarda xilma-xil tarmoq va sohalar mujassamlashadi, rivojlanadi va ularning differensiyalashuvi, integratsiyalashuvi ro'y beradi. Natijada aholi o'z xohish-istaklari, mutaxassisliklariga mos keluvchi mehnat turlarini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday imkoniyatlar ayniqsa aglomeratsiya yadrosida mujassamlashadi. Aglomeratsiya doirasida umumiy mehnat bozori shakllanadi, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif yuqori bo'ladi hamda undan umumiy holda foydalaniladi, aholini ish bilan ta'minlash muammolari nisbatan tez hal bo'ladi;

- **yuqori urbanizatsiyalashgan hudud.** Kichik bir hududda ko'plab shaharlar to'planadi. Kiev aglomeratsiyasi va Minsk aglomeratsiyalari 20 dan ortiq yo'ldosh shaharlarni o'z ichiga oladi. Toshkent aglomeratsiyasida esa 27 yo'ldosh shahar manzilgohlari to'plangan bo'lib, urbanizatsiya darajasi 75 foizga yaqin (respublikada eng yuqori). Aglomeratsiya markazi- yirik shahar ta'sirida yo'ldosh shahar va qishloqlar rivojlanadi, qishloq-shahar migratsiyasi kuchayadi, shaharga xos bo'lgan hayot tarzi, shahar madaniyati atrofga yoyiladi; shaharlarning yanada kengroq xududiy tizimlari - urbanizatsiyalashgan zonalar vujudga keladi. Shaharlarning hududiy tizimlari aholi joylashuvini boshqarib boruvchi vositadir. Yirik shaharni tez o'sib ketishida atrofidagi yo'ldosh shaharlari uni himoyalovchi vazifani bajarib, "yadro"ga hududiy, ekologik va boshqa jihatlardan mos kelmaydigan funksiyalarni o'z zimmasiga oladi. O'z navbatida kichik shahar va qishloqlar ham rivojlanadi. Yo'ldosh shaharlar uning tarkibida yo'q bo'lib ketmaydi, balki o'zgaradi, muammolari shu doirada hal bo'ladi.

- **yuqori ilmiy - texnik muhit.** Shahar aglomeratsiyalari fan-texnika yutuqlari natijasidir. Bu erda fan va texnikaning eng ilg'or tarmoqlari: boshqaruv, ilmiy-tekshirish institutlari, konstruktorlik-loyihalash tashkilotlari, kadrlar

tayyorlash, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari mujassamlanadi, mamlakatlarning o'ziga xos "o'sish qutblari" vujudga keladi. (Saliev A., YAnchuk S., 2006.) SHahar aglomeratsiyalari yangiliklarni birinchi bo'lib yaratadi, qabul qiladi va atrofga uzatadi, rayon hosil qiluvchi roli ortadi. Nafaqat o'z atrofi, balki iqtisodiy rayon va davlatni boshqarib borish qudratiga ega bo'ladi.

- **geoekologik muhit.** SHahar aglomeratsiyalari inson tomonidan yuqori darajada o'zlashtirilgan, tabiat va jamiyat bir-biriga eng faol ta'sir etuvchi o'ziga xos ekologik hudud hisoblanadi. Urbanizatsiyalashgan hududlar Er shari maydonining 1 % maydonini egallagani holda, jami chiqindi va iflos gazlarning 80 foizini chiqaradi. Sanoat korxonalarining ko'pligi, aholining zich joylashganligi, transport tizimining yuqori darajada mujassamlanganligi, turar joy binolarining zichligi va ulardan atrof-muhitga turli chiqindi va iflos gazlar, oqava suvlarning chiqarib tashlanishi natijasida ekologik vaziyat o'zgaradi. Aglomeratsiyalarning tartibsiz rivojlanishi tabiatga xavf tug'diradi. Nazorat yoki ekologik monitoringning yo'qligi tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni buzadi. SHA lar hududi ko'plab qurilish va ekspluatatsiya ishlari oqibatida doimiy o'zgarishda bo'ladi, shaharlarni rivojlantirish nuqtai nazaridan bu to'g'ri bo'lsada, ikkinchi tomondan tabiiy geotizimlar buzilib, antropogen-shahar geotizimlari vujudga keladi (Djanaleeva G. M., 2008).

- **nozogeografik muhit.** SHahar aglomeratsiyalarida ekologik vaziyatning keskinlashuvi, aholining nihoyatda zich to'planishi va ular o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xosligi, transport vositalarining va shovqin-suronning ko'pligi aglomeratsiya doirasida yashovchi aholining sog'ligiga salbiy ta'sir etadi. Transport vositalarining ko'pligi natijasida, ayniqsa tig'iz vaqtlarda yo'llar tirband bo'lib qoladi. Bu esa odamlarni asab tolalarining taranglashuviga olib keladi (Ahmedov A., 2002). SHahar va uning atroflarida shovqin-suron ko'payadi. Markaziy shaharga qatnovchi migrantlar uchun shahar atrofi transporti va sarf-harajatlar muammolari kelib chiqadi. Ularning vaqti yo'lda ko'p sarf bo'ladi, ishga layoqati susayadi. Keskin ekologik vaziyat, transport, sotsial va boshqa muammolar natijasida aholi o'rtasida asab va ruhiy kasalliklar, yurak, qon-tomir,

xavfli o'sma kabi shaharlarga xos kasalliklar, o'lim holatlari ortadi. Toshkent, Angren-Olmaliq, Navoiy shahar va uning atroflari kasallanish soniga ko'ra respublikada birinchi o'rinlarda turadi, har 100 ming kishiga kasallanish 60-70 mingni tashkil etadi.

- **geokriminogen muhit.** SHahar aglomeratsiyalarida insonlar o'rtasidagi munosabatlar o'zgaradi, o'ziga xos turmush tarzi shakllanadi, ayrim hollarda milliy urf-odatlar, qo'shnichilik munosabatlari yo'qola boradi. Insonlarning axloq-odob normalaridan chetga chiqish hollari ko'payadi. Jinoyatchilikning turli shakllari namoyon bo'ladi va ular shaharlarda qishloq joylarga nisbatan 5-6 barobar ko'proq sodir etiladi va o'ziga xos geokriminogen muhit shakllanadi.

SHu bois, hozirgi rivojlangan mamlakatlarda aglomeratsiyalar ayrim olimlar tomonidan qoralanmoqda. CHunki ular juda ulkan bo'lib, bir-biri bilan chirmashib, ajratib bo'lmaydigan darajada o'zaro chambarchas bog'lanib va ziddiyat hamda muammolar shu qadar keskinlashib ketganki, ularni endi boshqarish juda qiyin. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida shahar aglomeratsiyalarini shakllanish davridan ilmiy asosda o'rganish va nazorat qilish maqsadga muvofiq. Ularda mavjud bo'lgan juda katta imkoniyat va ijobiy jihatlaridan xalq xo'jaligida samarali foydalangan holda, salbiy oqibatlari va muammolarini o'z vaqtida hal etgandagina ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin.

Aglomeratsiyalar aholi manzilgohlari joylashuvining murakkab shakli bo'lib, uning vujudga kelishi to'satdan ro'y bermasdan uzoq yillar davomida aholi va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning takomillashuvi natijasida ob'ektiv holatda kechadigan jarayondir. Ular qulay, etarli shart-sharoitlar bo'lgan erlardagina tarkib topadi va bir-biridan faoliyat turi, o'lchamlari, rivojlanganlik darajasi, aloqalar intensivligi va boshqa xususiyatlariga ko'ra farq qiladi.

Evropa davlatlarida aglomeratsiyalar asosan dengiz va daryo bo'ylarida, ularning dengizga chiqish qismlarida, port-shaharlar negizida paydo bo'lgan, keyinchalik esa sanoatning rivojlanishi bilan sanoat rayonlarida tarkib topa boshladi. Bu holat Amerika qit'asiga ham ko'chdi, dengiz bo'ylarida savdoning

rivojlanishi hamda u bilan bog‘liq holda mamlakat ichkarisida yo‘llar bo‘ylarida va ularning tugunlarida shakllandi.

Hozirgi kunda qator rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda aglomeratsiya va megalopolislar aholi va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy shakli bo‘lib qolmoqda. Agar 1950 yilda jahonda 2 ta aholi soni 8 mln. dan ortiq bo‘lgan «megapolis» (aglomeratsiya BMT taklifiga ko‘ra) bo‘lgan bo‘lsa (Nyu – York - 12,3 mln. kishi, Tokio - 11,3 mln.), 1975 yilda ular qatoriga Mexiko qo‘shildi. 2005 yilda ularning soni 20 ta bo‘ldi. Bashoratlarga ko‘ra, 2015 yilda 22 taga etadi va ularning asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi.

Hozirgi kunda er sharidagi eng yirik aglomeratsiya Tokio aglomeratsiyasi bo‘lib, unda 35 mln. dan ortiq aholi yashaydi. Aholi soniga ko‘ra keyingi o‘rinlarni Mexiko, Nyu-York, San-Paulu va boshqa aglomeratsiyalar egallaydi (Urban Agglomerations, 2005. Wallchart-

http://www.un.org/esa/population/publications/WUP2005/2005urban_agglo.htm).

Ammo, so‘nggi vaqtlarda ularning o‘sishi sekinlashdi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi Bombay, Manila, Karachi, Dakka, Lagos va boshqalarda «urbanistik portlash» yuz bermoqda: ish topish maqsadida ko‘plab aholining poytaxt shaharlarga ko‘chib kelib, shaharga demografik bosim kuchaymoqda. Ularning aholi soni yiliga 3-5 % dan ko‘paymoqda (jahon bo‘yicha shahar aholisining o‘rtacha yillik o‘sishi 1,8%).

Evropa, SHimoliy Amerika, SHarqiy Osiyodagi ana shunday 40-50 ta yirik aglomeratsiyalar yonma-yon joylashib va bir-biriga qo‘shilib, yirik urbanizatsiyalashgan hududlar, ya‘ni megalopolislarni hosil qilgan. Ushbu terminni birinchi marta amerikalik sotsiolog olim L.Mamford qo‘llagan. J.Gottman esa Atlantika qirg‘oqlari bo‘ylab deyarli 1000 km ga cho‘zilib ketgan 50 ga yaqin aglomeratsiyani va 50 mln. dan ziyod aholini o‘z ichiga olgan Bosvash (Boston-Vashington) aglomeratsiyalar tizimini birinchi bo‘lib tadqiq etdi va uni shu nom bilan atadi. Ana shunday urbanizatsiyalashgan hududlardan sayyoramizning sharqiy qismida, markazi Tokioda joylashgan Tinch okeanning muhim savdo

yo'llari bo'ylab cho'zilgan Tokaydo (Tokio - Osaka) megalopolisi sharqning o'ziga xos o'sish qutbi hisoblanib, unda aholi va ishlab chiqarishning 2/3 qismi mujassamlangan. Bunday ulkan urbanizatsiyalashgan hududlar jahonning asosiy sivilizatsiya markazlari bo'lishi bilan bir qatorda transport, sotsial, ekologik, shovqin-suron, irqiy-milliy muammolar bilan birga rivojlanmoqda. Natijada, aholi migratsiyasining yo'nalishi hozirgi davrga kelib o'zgardi: shahar markazidan shahar atroflari va yo'ldosh shaharlarga ko'chish hollari kuzatilmoqda. Bu ham, o'z navbatida, turli muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, jahonga mashhur bo'lgan yirik shaharlarning markaziy qismlari bo'shab qolgan, bu erga «past tabaqali» aholi qatlami yoki ishlashga kelgan immigrantlar joylashib, shahar madaniyati, ko'rki va mavqeiga putur etkazmoqda. SHunga o'xshash muammolarni hal etish maqsadida olimlar kelgusida shahar-bog'lar, agroshaharlar, dengiz shaharlarini yaratish loyihalari ustida bosh qotirmoqdalar [http://www.un.org/esa/population/publications/\(wup2005/2005WUPHighlights,.pdf\)](http://www.un.org/esa/population/publications/(wup2005/2005WUPHighlights,.pdf))).

Ayni vaqtda Lotin Amerikasida aglomeratsiyalashuv jarayoni cho'qqisiga etmoqda, Osiyo, SHimoliy Afrika davlatlarida esa avjida: Markaziy va Janubiy Afrika hamda Osiyoning ayrim qismlarida u hali boshlangani yo'q.

MDH davlatlarida, shahar aglomeratsiyalari hududiy majmualar, sanoat rayonlarida sanoat markazlari, poytaxt shahar va transport tugunlari negizida vujudga kelgan. O'tish davriga kelib, sanoatning inqirozga yuz tutishi ko'pchilik aglomeratsiyalarni depressiv holatga tushirib qo'ydi. Xususan, Rossiyada ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi bilan bu jarayon ularning tarkib topish bosqichida to'xtadi. Megalopolislarning garchi ayrim belgilari paydo bo'lgan bo'lsada (Moskva - Nijniy Novgorod, Ural va Kuzbassda), ular to'liq shakllanmadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida aglomeratsiyalashuv jarayoni so'nggi yillardagina boshlandi. Ular yirik poytaxt shaharlar negizida, ayrim tog'-kon sanoati rayonlarida (Qarag'anda, Olmaota, Toshkent, Dushanbe va boshqalar), tog'

oldi tekisliklari, muhim gidrografiya tarmoqlari (CHu, CHirchiq, Hisor, Zarafshon daryolari) va nisbatan yaxshi rivojlangan transport tugunlarida shakllandi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.O'zbekistonda eng aholisi zich viloyat?
- 2.Dunyo bo'yicha aglomeratsiyalar soni qaysi qit'ada ko'p?
- 3.Fransiyada aglomeratsiyalar soni ?
- 4.Qaysi mamlakatda aglomeratsiyalar soni 72?
- 5.Londonda necha mln aholi isteqomat qiladi?
- 6.Yevropada yirik shaharlar soni?
- 7.Shevetsiyada aglomeratsiyalar soni?
- 8.Italiyada aglomeratsiyalar soni?

Savol va topshiriqlar:

- 1.Urbanizatsiya ko'rsatgichi bilan mamlakat iqtisodiyotini bog'liqlik tomonlarini ayting?
- 2.Urbanizatsiya darajasi bo'yicha davlatlarni ajrating va tahlil qiling?
- 3.Jahonning yirik aglomeratsiyalarini ayting?

6-Ma'ruza: Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyatlari.

Reja:

- 1.Urbanizatsiya xaqida tushuncha.
- 2.Urbanizatsiya jarayoning mohiyati va uning rivojlanish xususiyatlari.
- 3.O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni.

Tayanch tushunchalar: Urbanizatsiya, shaharlashish, yirik va katta shaharlar,suburbanizatsiya,rururbanuzatsiya.

«Urban» (urban) —shahar, «zatsiya-»—jarayon demakdir. Shu ma'noda urbanizatsiya mamlakat yoki boshqa hududlarning"shaharlashuvini" anglatadi. U o'ta murakkab, ijtimoiy — iqtisodiy va butun dunyoga xos global jarayondir. Birok, uning geografikjihatlari ham kam emas, chunki urbanizatsiya turli mamlakat va rayonlarda o'zgacha sodir bo'lmokda.

Urbanizatsiya: murakkab hodisa ekanligi tufayli uni faqat bitta mezon, ko'rsatkich bilan ifodalash, o'lchash mumkin emas. Ammo, shunday bo'lsada, barcha uchun qulay bir o'lchov kerak. U ham bo'lsa mamlakat va boshqa hududlar aholisining qanchasi, qancha qismi shahar joylarda yashashi, ulushi, nisbiy hissasidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatkich 38%, Tojikistonda —32%, Afgonistonda —19%, Turkmanistonda — 48% va h.k. Rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya ko'effitsienti 90 va undan ortiq foizni tashkil etadi.

Urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi bilan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va uning tarkibiy tuzilishi orasida ma'lum aloqadorlik bor. CHunonchi, agar urbanizatsiya ko'effitsienti taxminan 70—75 va undan ortiq bo'lsa, u holda mamlakat sanoat jihatidan yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat hisoblanadi; 50—70% — bu ham rivojlangan, milliy iqtisodiyoti industrial —agrar; 30—50%— rivojlanayotgan agrar — industrial va 30 foizdan past bo'lsa, sust rivojlangan agrar mamlakat holatida bo'ladi.

Ammo, shuni alohida ta'kidlash joizki, urbanizatsiyaning yuqoridagi ko'rsatkichi xamma vaqt va hamma joylarda ham real hududiy— iqtisodiy vaziyatni aks ettirmaydi, masalan, Rossiya Federatsiyasining CHukotka o'lkasida yoki Kamchatka, Magadan viloyatlarida, o'zimizning Qorakalpog'istonda urbanizatsiya ko'rsatkichi nisbatan yuqori. Biroq, bu hududlar iqtisodiy jihatidan unchalik rivojlanmagan.

O'zbekiston bilan Turkmanistonni olaylik: urbanizatsiyaning demografik ko'rsatkichi Turkmanistonda biznikidan ko'ra ancha yuqori. Vaholanki, iqtisodiyotda bunday xulosa chiqarish noto'g'ri bo'lardi.

Demak, u yoki bu mamlakat urbanizatsiya darajasini boshqa mamlakat bilan qiyoslaganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

—shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, Turkmanistonda buning uchun 5 ming kerak, O'zbekistonda — 7 ming);

- shaharlarning umumiy soni va zichligi;
- yirik shaharlarning mavjudligi;
- shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi;
- qishloq — shahar va mayatniksimon migratsiya;
- aholining bandlik darajasi va tarkibi;
- qishloq joylar urbanizatsiyasi, qishloqliklarda shaharchasiga yashash tarzining mavjudligiva h.k.

YUqoridagilar urbanizatsiyaning naqadar murakkab ijtimoiy— iqtisodiy hodisa ekanligidan yana bir bor dalolat beradi.

Albatta, urbanizatsiya— bu ob’ektiv va umuman olganda ijobiy jarayon. Ammo uning salbiy tomonlari ham yo‘q emas. CHunonchi, ekologik va sotsial muammolarning keskinlashuvi hozirgi zamon globalizatsiyasining eng ko‘zga ko‘rinarli salbiy «yo‘ldoshlaridir».

O‘rta Osiyo va O‘zbekistondagi urbanizatsiya sharqona xususiyatga ega. Binobarin, bu erda urbanizatsiya ko‘rsatkichini yaqin kelajakda 70-80 foiz bo‘lishini tasavvur qilish qiyin va bunday aslo bo‘lmaydiham. Sababi — bizda shaharlar rivojlanishi qishloq joylar bilan qadimdan an’anaviy holda bog‘liq.

Qolaversa, bunday mamlakatlarda, urbanizatsiya ham katta ahamiyatga ega. Boz ustiga, respublikamiz rahbariyati qishloq joylarda ijtimoiy— iqtisodiy tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, qishloq industriyasi va infrastrukturasi ga jiddiy e’tibor qaratmoqdaki, bu ham urbanizatsiya ichkaridan, «yashirincha» rivojlanishidan darak beradi. Demak, urbanizatsiyaning umumiy demografik ko‘rsatkichi garchi malum qulayliklarga ega bo‘lsada, «uning ayrim nozik jihatlari ham mavjud. Aglomeratsiyalarning tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) ham turlicha: doirasimon, lentasimon, cho‘zinchoq, amfibiyaga o‘xshash bo‘ladi. Bu o‘sha joyning er usti tuzilishi, transport tizimi, gidrografiya si ga bog‘liq. Odatda, yirik daryolar bo‘yida shakllangan aglomeratsiyalar 50—70 va xatto 100 km ga cho‘zilib ketadi (Volgograd, Krivoy Rog, Bratsk aglomeratsiyalari). Har qaysi aglomeratsiyaning tarixiy geografik “o‘qi”, asosi

bo‘ladi. Masalan, respublikamizda eng yirik Toshkent aglomeratsiyasi (u 30 ga yaqin shahar va qishloqlarni birlashtiradi) CHirchiq daryosi asosida vujudga kelgan. SHu sababdan bo‘lsa kerak, u biroz shimoli—sharkdan janubi— g‘arbga cho‘zilgan.

O‘zbekiston (va O‘rta Osiyo) aglomeratsiyalari o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlarga ega. Ular asosan tog‘ oldi hududlarda sug‘orma dehqonchilik joylarida, elektr transporti sust rivojlangan, atrofi qishloq xo‘jalik ekinlari bilan o‘ralgan sharoitda vujudga kelgan. Mohiyatan bizning aglomeratsiyalar shahar emas, balki shahar—kishlok aglomeratsiyalaridir.

Yirik shahar va shaharchalar, o‘zaro hududiy tutashib, qo‘shilib ketsa, u holda yaxlit — ulkan shahar vujudga keladiki, ularni -konurbatsiya deyishadi (London, Rur havzasi konurbatsiyasi va h.k.). Biroq, konurbatsiya ham aglomeratsiyalarning bir shakli, ko‘rinishi bo‘lsada, har qanday aglomeratsiya ham konurbatsiya emas.

SHaharlar hududiy birlashmasining yana bir murakkab shakli megalopolislardir (ushbu tushunchani fanga amerikalik olim Jan Gottman 50 — yillarda kiritgan). Megalopolislar aglomeratsiyalarning o‘zaro qo‘shilib ketishi natijasida vujudga keladi. Masalan, Bosvash (Boston— Vashington), CHpits (CHikago—Pitsburg), Tokio—Iokogama va boshqa megalopolislar mavjud.

O‘zimizning Farg‘ona vodiysida ham aholi joylashuvining o‘ziga xos shakli vujudga kelgan, uni yirik shaharlarning bosh harfi bilan FANO‘X megapolis deb atash mumkin (Farg‘ona—Andijon—Namangan—O‘sh— Xo‘jand). Umuman esa megalopolis, yoki megapolis, ulkan shahar (mega— katta, yirik) ma’nosini bildiradi. Grek arxitektori Doksiadis xatto oykumenapolis xaqida ham fikr bildirgan (bu butun dunyo shaharlarining yagona tizimidir). Daryolarning quyi qismida joylashgan shaharlar birikmasini biz deltapolis deyishimiz mumkin.

SHaharlar orasida poytaxt shaharlar alohida ahamiyatga ega. Poytaxt shaharlarning nufuzi ham, ma’suliyati ham yukori. Binobarin, har qanday mamlakat o‘zining bosh shahri, «yo‘l boshisiga» katta e’tibor bermog‘i

tabiiydir, chunki ular o'sha joyda yashovchilarning milliy iftixori hisoblanadi. Ba'zi mamlakatlarda poytaxtlar bir shahardan boshqasiga ko'chirilgan. Jumladan, Braziliyada Rio de Janeyrodan Braziliaga, Pokistonda Karachidan Islomobodga, Kozog'istonda Olma—Otadan Ostonaga ko'chirilgan va hokazo. Bir vaqtlar Ukrainaning poytaxti Xarkov, Rossiyaniki Peterburg, Turkiyaniki Istambul, Qoraqalpog'istonniki To'rtko'l bo'lgan. O'zbekiston Respublikasining dastlabki poytaxti Samarqand bo'lib, 1930—yilda bu vazifani bajarish Toshkentga ko'chirilgan.

Urbanizatsiyaning geografik jihatlari



Urbanizatsiyaning bo'linish strukturasi



Urbanizatsiyaning xususiyatlari quyidagilar

Shahar aholisi
salmog'ining
ortib borishi

Ishlab chiqarishning
shaharlarda
to'planishi

Shaharlar maydonini
kengayib borishi

www.andiv.uz

Urbanizatsiyaning to'rtta tipi mavjud


Kompleks tip

Industrial tip

Servis tip

Sohta
urbanizatsiya

www.andiv.uz



NAZORAT SAVOLLAR:

1. Shahar va qishloq aholisi nisbatlarining o'zgarib borishi vahududiy tafavutlar nima sababli kelib chiqadi?
2. Shaharlarning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi asosiy omillarni ayting.

3. Kon negizida vujudga kelgan shaharlarni ayting.
4. Shaharlar shakllanishiga iqtisodiy va siyosiy omillarning ta'siri.
5. O'zbekiston shaharlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni ko'rsating. Misollar orqali tushintirib bering?
6. Hozirgi kunda dunyoda sanoat korxonalari tufayli eng ko'p zarar ko'rayotgan shaharlarni ayting.
7. Hozirgi kunda suv toshqinlari tufayli zarar ko'rayotgan shaharlar haqida ayting.
8. Shaharlashish yuqori darajada bo'lgan davlatlar qaysilar?
9. Shaharlashish yuqori bo'lishi yoki aksincha kam bo'lishi uchun qanday omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin.
10. Afrika materigi shaharlari haqida ularning shaharlashish darajasi haqida gapirib bering?

Savol va topshiriqlar:

1. Shaharlashish yuqori darajada bo'lgan davlatlar qaysilar?
2. Shaharlashish yuqori bo'lishi yoki aksincha kam bo'lishi uchun qanday omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin.

7- Ma'ruza: Shaharsozlik va shaharlarning bosh rejasi

Reja:

1. Shaharsozlik va rayon planirovkasi haqida tushuncha.

2. Shaharlarning Bosh rejasi, uni tuzishdagi asosiy vazifa va maqsadlar.

3. Shaharsozlik g'oyalarining rivojlanishi.

4. Shahar va shahar aglomeratsiyalarining hududiy tarkibi.

Tayanch tushunchalar: Shaharsozlik, rayon planirovkasi, Shaharning-transport-tarmog'ini-loyihalash, ekstropolyatsiya.

Rayon planirovkasi ma'lum bir hududda ishlab chiqarish korxonalari, aholi joylashuvi, infrastruktura elementlarini geografik, iqtisodiy, qurilish-arxitektura va muhandislik-texnika sharoit hamda omillarini hisobga olgan holda tashkil qilishning nazariy va ilmiy masalalari bilan shug'ullanadi. Aynan shu ma'noda u

konstruktiv geografiya (D.I.Bogorod), rayonning amaliy geografiyasi sifatida tan olingan.

Darhaqiqat, rayon planirovkasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lgan eng asosiy yo'nalishidir. U shaharlar geografiyasi ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish masalalari bilan yaqin aloqador.

SHuni ta'kidlash lozimki, umuman iqtisodiy geografiyada ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish g'oyasi asosiy o'rinda turadi. Binobarin, bu fanda hududiy ishlab chiqarish majmualari katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Rayon planirovkasi esa hudud ishlab chiqarishni joylashtirish nuqtai nazaridan tashkil etiladi va baholanadi. Demak, iqtisodiy geografiyada hudud bu oddiy makon, ishlab chiqarishni joylashtirishdagi sharoit hisoblansa, rayon planirovkasida u maxsus omil, resursdir.

Rayon planirovkasi bu avvalgi xalq xo'jaligini planlashtirish emas, u ma'lum bir hududni loyihalashtirish, sxemalarni tuzish, aholi manzilgohlarining bosh planini yaratish bilan shug'ullanadi. SHu ma'noda u planlashtirish bilan prognozlash o'rtasida turadi. Mazkur muammolar bilan maxsus ilmiy-tekshirish va loyihalashtirish institutlari mashg'ul (TashNIIGenplan; UzNIP gradostroitelstva va h.k.)

Rayon planirovkasi ayni vaqtda mintaqaviy planlashtirish ham emas. Biroq, u mintaqaviy iqtisod va siyosat bilan bog'liq. Rayon planirovkasi, shuningdek iqtisodiy rayonlashtirish bilan ham aloqador; iqtisodiy rayonlashtirish rayon planirovkasining nazariy asosidir.

Rayon planirovkasida uning ob'ektlarini to'g'ri aniqlash katta ahamiyatga ega. Odatda rayon planirovkasi uchun o'rta darajadagi iqtisodiy rayon (viloyat) va undan kichik hududlar tanlab olinadi. Hudud kichraygan sari rayon planirovkasining aniqlik darajasi ortib boraveradi.

Ko'pincha viloyat ko'lamidagi rayon planirovkasi ishlari sxemalar tuzish bilan belgilanadi. Ular, 1:100000-1:300000 masshtablarda amalga oshiriladi. Viloyat ichidagi iqtisodiy rayonlar uchun rayon planirovkasining loyihasi tuziladi. Bunday loyiha ishlari sanoat tugunlari uchun ham bajariladi. Agar viloyat ichidagi iqtisodiy

rayonlarda 1:100000-1:50000 masshtab qo'llansa, sanoat tugunlarida masshtab yanada aniqlashadi-1:25000 yoki 1:10000.

SHuningdek qishloq tumanlari uchun rayon planirovkasi ishlab chiqiladi. Alohida aholi qo'rg'onlari uchun esa Bosh planlar tuzilib, shahar va qishloq hududi sanoat, uy-joy qurilishi, dam olish nuqtai nazaridan kichik rayonlarga ajratiladi, hatto ayrim korxona, maktab, bekat, magazin kabi ob'ektlarni joylashish o'rni aniq belgilaniladi.

Bosh planlar 1:10000 yoki 1:5000 masshtabda yaratiladi. Bunday planlar shaharning alohida qismi uchun ham tuzilishi ham mumkin. Horijiy mamlakatlarda sanoat yoki industrial parklar, tashkillashtirilgan sanoat rayoni, industriya uchastkasi kabilar uchun ham ishlab chiqiladi. Ularning maydoni ko'pincha 200 gektardan oshmaydi.

Rayon planirovkasining sxema va loyihalari va aholi manzilgohlarining Bosh plani odatda 25 yilga mo'ljallangan bo'ladi. Ana shu davr uchun aholi sonining bashorati ham ishlab chiqiladi. Bu bashoratlar turli usullarda (ekstropolyatsiya, mehnat resursi balansi, turli yoshdagi aholi sonini demografik surish yoki siljitish va b.q.) bajariladi.

Yana shuni unutmash kerakki, mamlakatimizning bozor munosabatlarga o'tishi, mulkchilikning turli shakllarini vujudga kelishi tufayli davlatning ilgarigi boshqaruvchanlik roli o'zgaradi. Bu esa rayon planirovkasining maqsad va vazifalariga ham yangicha qarashni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish kuchlarining tez taraqqiy etishi urbanizatsiya jarayoninitezlashtirishga, shaharlarda ayniqsa, yirik shaharlarda sanoat korxonalari ko'payishiga olib keladi. 1959 yili MDH xaritasida 1679 shahar mavjud bo'lgan bo'lsa, 1989 yilga kelib ularning soni 2190 taga etdi. Aholisi 500 mingdan ortiq bo'lgan yirik shaharlar soni ana shu davrda 25 tadan 57 taga etdi. 1959 yilda ana shu 25 yirik shaharda 24.2 mln. aholi yashagan bo'lsa, oradan o'ttiz yil o'tgach 57 yirik shaharda istiqomat qiluvchi aholi soni 64.7 mln. kishiga etdi.

1959 yili MDH da aholisi 1 mln. dan ortiq bo'lgan 3 ta shahar mavjud edi. 1989 yilga kelib bunday shaharlar soni 2 taga yetdi.

Keltirilgan fakt raqamlar eng yirik shaharlarning o'sish sur'atlari boshqa shaharlarning o'sish sur'atlariga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Yirik shaharlar iqtisodiyoti ko'p tarmoqli murakkab kompleks hisoblanadi. Bu kompleks uzoq muddat ichida, ya'ni ishlab chiqaruvchi kuchlar va fan-texnika taraqqiyotining muayyan darajada rivojlanishi asosida vujudga keladi. Ma'lum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yetakchilik vazifasini bajaruvchi bunday yirik shaharlarda sanoatning bir qancha tarmoqlari rivoj topgan, ilmiy tadqiqot institutlari, turli xil o'quv yurtlari, ma'muriy madaniy-ma'rifiy tashkilot va muassasalar joylashgan bo'ladi.

Xalq xo'jaligining ekstentiv taraqqiyoti yo'lidan intensiv rivojlanish yo'liga o'tishning hozirgi davrida shaharlar qurilishi oldinda turgan qator iqtisodiy va ijtimoiy muammolar mavjud.

Yirik shahar fan-texnika taraqqiyotining va ijtimoiy rivojlanishning asosiy markazlari hisoblanadi.

Yirik shaharlarning o'ziga xos bo'lgan qator belgilari mavjud.

1. Bunday shaharlarda aholi nihoyatda ko'p bo'ladi.
2. Ularda ish joylari ko'p.
3. Bunday shaharlarda ma'muriy boshqaruv tashkilotlari, ilmiy tadqiqot institutlari, aholiga xizmat ko'rsatish korxonalari, o'rta va oliy o'quv yurtlarining keng tarmoqlari tarkib topgan bo'ladi.

Yirik shaharlarning aholisi o'rtasida katta yoshdagi aholining salmog'i katta o'rin tutadi, chunki bunday shaharlarda qishloq joylardagiga va kichik shaharlardagiga nisbatan tug'ilish kamroq bo'ladi. Yirik shaharlarda texnologiya jihatidan o'xshash bo'lgan korxonalarning bir-biriga yaqin joylashganligi, turli xil xizmat sohalaridan birgalikda foydalanish imkoniyatining mavjudligi, ilmiy markazlarning o'rta va oliy o'quv yurtlarining yaqin bo'lishi sanoat korxonalarining maqsadga muvofiq tarzda joylashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq joylardagiga va kichik shaharlardagiga nisbatan tug'ilish kamroq bo'lishiga qaramay, yirik shaharlarda istiqomat qiluvchi aholi soni nihoyatda tez ko'payadi. Bunga eng avvalo, yirik shaharlarda iqtisodiy qulayliklarning mavjudligi sabab. Chunki bunday shaharlarda joylashgan sanoat korxonalari katta foyda keltiradi. Sanoat korxonalari orasidagi mavjud texnologik bog'lanishlar ishlab chiqarish bilan aloqador bo'lgan qator sarf xarajatlarni kamaytirish va qo'shimcha samara olish imkonini beradi.

Yirik shaharlarda ijtimoiy mehnat unumdorligi kichik shaharlardagiga nisbatan ancha yuqori. Ishlab chiqariladigan mahsulotning narxi ancha past.

Yirik shaharlar tashkilotchilik rolini ham bajaradi, ya'ni bunday shaharlar ko'p joylarda yangi sanoat korxonalarini, transport va madaniy-ma'rifiy markazlarni vujudga keltirishda faol ishtirok etadi, shuningdek yaqin atrofdagi kichik shaharlar, rayonlar va boshqa aholi munosabatlarni rivojlantiradi.

Shunga ko'ra qurilishi lozim bo'lgan yangi sanoat korxonalarini ana shunday yirik shaharlarda joylashtiradi.

Mamlakatimizdagi yirik shaharlarning siyosiy qismi muhim sanoat, madaniy va ma'rifiy xo'jalik markazi bo'lib hisoblanadi. Ular orasida Andijon, Buxoro, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Farg'ona va Samarqand kabi ko'hna shaharlar bo'lib, bu shaharlarning iqtisodiy va madaniy qiyofasi keyingi paytda o'zgarib ketadi, ular ayniqsa sanoat tarmoqlarining ko'zga tashlanganligi bilan ajralib turadi.

Yirik shaharlar jumlasiga kiruvchi Olmaliq, Angren, Navoiy, Chirchiq kabi shaharlar yangi shaharlar hisoblanadi, ularning rivojlanish sur'atlari bir qator eski shaharlarga qaraganda ancha yuqoridir. Ana shunday shaharlar ham tez orada yirik sanoat markazlariga aylanadi. Ularda aholi soni ancha tez o'smoqda.

Qator xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, yirik shaharlarda ish joylarini qisqartirish hamda urbanizatsiyani amalga oshirish, ya'ni yirik shaharlar aholisini yaqin

atrofdagi kichik shaharlar va boshqa aholi punktlariga tarqatish yo'li bilan haddan tashqari kattalashib ketgan shaharlardagi aholi sonini kamaytirish mumkin ekan.

Bunday yo'lni amalga oshirish uchun yirik shahar aholisi ko'chirilishi lozim bo'lgan rayon va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. SHunday qilib, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ustalik bilan yo'l tutilishi tufayli yirik shaharlar aholisi sonini faqat cheklab qolmay, balki kamaytirishga ham erishishi mumkin bo'ladi. Bunday tajriba jaxonda eng yirik shaharlardan hisoblangan Nyu-York va London kabi shaharlarda amalga oshirilgan hamda ular yaxshi natija bergan.

Yirik shaharlar aholisini cheklash borasida olib borish kerak bo'lgan siyosat bunday shaharlarning ham ijobiy ham salbiy tomonlarini to'la hisobga ola bilishga asoslangan bo'lmog'i kerak.

Xo'jalik tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirish maqsadida yangi yerlarni o'zlashtirish, ulani ishga solish, mamlakatda mavjud bo'lgan tabiiy boyliklardan keng foydalanish muammolarini doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. O'tgan davr mobaynida ishlab chiqaruvchi kuchlarni mamlakat bo'ylab joylashtirish, ularni rivojlantirish masalalari yangi yerlarni o'zlashtirish, yer osti qazilma boyliklarini ishga solish masalalari berildi. Xilma-xil xom ashyo, yoqilg'i va boshqa tabiiy boyliklardan keng foydalanish ayniqsa so'nggi 30-35 yil ichida avj oldi.

Shaharsozlik loyihalash tizimi va bosqichlari

Shaharsozlik loyihalash tizimi va bosqichlari.

O'zbekistonda quyidagi loyihalash bosqichlari qabul qilingan: shahar rivojlanishining bosh tarxi (shahar rejalashtirish loyihasi) shaharni to'la qamrab oladi. Buning tarkibiga transportni, muhandislik tarmoqlarini, ko'kalamzorlarni va boshqalarni rivojlantirishning shartli chizmalari ham kiradi. Shahar bosh tarxi 20 yil muddatga ishlanadi. M 1: 10000; batafsil rejalashtirish loyihasi 7—10 yil muddatga ishlanadi. Tarkibiga shaharning yirik bir qismini (markaz, sanoat qismi aholi joylashgan qismi va boshqalar) qamrab oladi. M 1:2000; qurilish loyihasi muddati 3-5 yil. Bu shaharning ayrim kichikroq bo'laklarini qamrab oladi (kichik tuman, maydon, anhor bo'yi, dam olish markazi va boshqalar). M 1:1 000, 1 : 500 (1.1-jadval).

Shaharsozlik loyihalash tizimi				
Masshtab	Loyihalash muddati			
	Qamrab olinadigan hudud	25-30 yil	5-10 yil	2-3 yil
1 : 50 000	Ma'muriy tuman Aglomeratsiya	Tumanni rejalashtirish		
1 : 25 000	Sanoat tumani Kurort tumani	Shartli chizmasi va tumanni rejalashtirish loyihalari		
1 : 10 000	Shahar, ishchi qishloq, qishloq aholi yashash joylari	Shahar rejalash loyihasi	Birinchu navbat qurilishini joylashtirish shartli chizmalari	
1 : 2 000	Shahar tumani turar joy, sanoat, kommunal xo'jalik Kichik tumanlar Shahar tumani va qasrlar (kichik tuman mahallalari)		Batafsil rejalashtirish loyihasi M 1 : 2 000	Qurilish loyihasi. Alohida obyektlar qurilish loyihasi


Aholi

Shaharlar rivojlanishini loyihalash asosida butun xalq xo'jaligining kelajak rivojlanish bosh tarxi yotadi. Shaharsozlik masalalari xalq xo'jaligining kundalik va kelajak rejalari bilan birgalikda hal etiladi. Barcha shaharsozlik loyihalarining asosiy masalalari - bu turli maqsadlarda foydalaniladigan shahar fondlariga bo'lgan ehtiyojni hisoblash (turar-joy, jamoat binolari va b.) va ularni shahar hududida joylashtirishdir. Shaharlarning kelajakda rivojlanishi loyihalari asosida xalq xo'jaligi rivojlanishining uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbol rejasi yotadi. Demografik omillar Demografiyada aholi — yer sharida yoki ma'lum bir hududda — qit'a, davlat, viloyat va h.k.da yashovchi odamlar (insoniyat) jamlanmasidir. Aholi haqidagi bilimlar sistemasi tushunchalar, kategoriyalar, qonunlar tizimiga ega. Aholini o'rganuvchi fanlarning predmeti bo'lib uning rivojlanishi hisoblanadi. Shaharlar va aholi joylashishi loyihalari uchun demografik jarayonlarning kelajakda qanday bo'lishi haqidagi kutilayotgan ma'lumotlar muhim omilla fandır.

Shaharning-transport-tarmog'ini-loyihalash

Yangi shaharni loyihalash va mavjud shaharni rekonstruksiya qilish jarayoni yashash hududi, sancat hududi va aholining asosiy qatnash joylari o'rtasida eng

qulay transport aloqalarini yaratish bilan bevosita bog'liq. Shaharning transport tizimini to'g'ri loyihalash, uning magistral ko'cha va yo'llarini, jamoat transportini joylashtirish shaharning bosh tarxini ishlab chiqish jarayonida bit qancha rejaviy, kompozitsion, transport va iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda shaharning aholi joy lash ish tizimida tutgan o'rniga qarab hal etiladi. Aholining yashash joyidan ishlash joyigacha va asosiy qatnash yerlarigacha (shahar markazi, vokzallar, shahar parklari va h.k.) bo'lgan masofani bosib o'tishida eng kamin vaqt sarf etishini ta'minlaydigan transport tarmog'ini loyihalash shaharsozlikda eng muhim masalalardan biridir. Bunda tarmoqning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari, harakat xavfsizligi shartlari, transport va piyodalar harakatining qulayligi hisobga olinishi lozim.



Ko'cha yo'l tarmoqlarining prinsipial sxemalari:

- 1 - radial;
- 2 - radial-halqasimon;
- 3 - to'g'ri burchakli;
- 4-to'g'ri burchakli . diagonal;
- 5-kombinatsiyalashgan;
- 6-erkin sxema.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Jahondagi urbanizatsiya jarayoni,uning hududiy farqlari.

2.Rivojlanayotgan mamlakatlardagi urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimada

3.Shaharlar vazifalarining o'xshash va farqli tomonlari.

4. Shaharlarning vazifalariga ko'ra turlari.

5. Ko'p vazifali shaharlar.

6.Sanoat markazlari va poytaxt shaharlar.

7.Sanoat va kon shaharlar

8.O'zbekistondagi asosiy shaharlar va ularning vazifalari.

9. O'zbekistondagi shaharlar aholisining o'ziga xos xususiyatlari.

10.Shaharlarni rejalashtirish masalalari.

8-Ma'ruza:O'zbekiston shaharlari geografiyasi.

Reja:

1.O'zbekistonda aholi zich hududlar.

2.O'zbekistonning turli viloyatlarida shahar aholisining salmog'i.

3. "Agroshaharlar" yoki "qishloq shaharlari".

4.Toshkent viloyati shaharlari.

5.Andijon viloyati shaharlari.

Tayanch tushunchalar:Aholi zichligi, shahar aholisi salmog'I, agroshaharlar, rekreatsiya, zona,iqtisodiy rayon,yuzminglik shahar.

Tarixan aholi mamlakatimizning sug'oriladigan voha va vodiylarida zich joylashgan. Chunonchi, bu ko'rsatkich Farg'ona, Namangan, Xorazm viloyatlarida ham ancha yuqori. Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Navoiy viloyati O'zbekiston hududining 61,9 foizini tashkil qilsada, bu erda mamlakat aholisining atigi 8,7 foizi yashaydi; shu bois, aynan ana shu ikki ma'muriy birlik respublika aholisi joylashuvining o'rtacha ko'rsatkichiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Buxoro va Jizzax viloyatlarida ham aholi zichligi uncha yuqori emas, Surxondaryo va Qashqadaryoda esa u o'rtacha ko'rsatkichdan birmuncha yuqori. Biroq shunga qaramasdan, hatto bu hududlarning ham ichki, qadimdan sug'orildaigan rayonlarida (masalan, Vobkent, SHofirkon, G'ijduvon, SHahrisabz,

Kitob, Qarshi, Yakkabog' tumanlarida) aholi ancha zich joylashgan. Umumiy tarzda respublika aholi joylashuvi ko'p jihatdan gidrografik shahobchalar-sug'oriladigan daryo va irrigatsiya inshootlari bilan belgilanadi. SHu bilan birga, yirik shaharlar, ayniqsa Toshkent aglomeratsiyasi doirasidagi qishloq tumanlarida ham aholi joylashuvi juda zich (1 km² ga 700-750 kishini tashkil etadi).

2013 yil ma'lumotlariga binoan O'zbekiston Respublikasining 51,2 foiz aholisi shahar joylariga to'g'ri keladi. Mutloq raqamda u 15370,1 ming kishi. SHahar aholisining oldingi yillardagi miqdori quyidagicha bo'lgan (ming kishi hisobida): 1926 y. -1002; 1939 y. – 1470; 1959 y. – 2729; 1970 y.-4327; 1979 y. – 6348, 1989 y. – 8059 va 2000 yilda 9166 ming kishi. SHahar aholisining o'sish sur'ati ayniqsa 70-80 yillarda yuqori bo'lgan. Bunga sabab – 1972 yilda aholi manzilgohlarining shahar maqomiga o'tkazish uchun talab etiladigan eng kam aholi miqdorini 10 mingdan 7 mingtagacha tushirilishi va buning oqibatida shaharlar sonining nihoyatda tez ko'payishidir (agar 1970 yilda respublikada 42 shahar mavjud bo'lgan bo'lsa, 1979 yilda ularning soni 90 taga etgan).

1989-2009 yillarda shaharliklar sonining o'sishi ancha susaygan. Natijada umumiy urbanizatsiya ko'rsatkichi 40,7 foizdan 35,8 foizga tushib qolgan. Viloyatlar darajasida mazkur jarayon ayniqsa Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Xorazmda sezilarli bo'lgan va u faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax hamda Namangan viloyatlarida birmuncha ko'tarilgan.

2009 yilni respublikamizda "Qishloq taraqqiyoti va farovonliga yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan urbanistik vaziyatda keskin o'zgarish yuz berdi. Yangi urbanistik siyosat tufayli O'zbekistonda birdaniga 966 qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berildi. Ularning hozirgi real holatini hisobga olib, ***"agroshaharlar" yoki "qishloq shaharlari"*** deb atash mumkin.

Eng ko'p yangi shaharchalar Farg'ona viloyatida tashkil etilgan – 196 ta. SHuningdek, bunday manzilgohlar Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan viloyatlarida ham ancha ko'p – har birida yuztadan ortiq. Birmuncha kamroq yangi shaharchalar Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etiladi. Umumiy urbanizatsiya darajasining eng yuqori ko'rsatkichi Namangan viloyatida

– 64,3 %. Bu ko‘rsatkich Farg‘ona va Andijon viloyatlarida ham o‘rtachadan yuqori. Nisbatan urbanizatsiyalashmagan mintaqalar Xorazm, Surxondaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlari hisoblanadi.

Urbanizatsiya jarayoni va uning yakuniy ko‘rsatkichi, odatda, hududlar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi, shahar hosil qiluvchi omillarning mavjudligiga bog‘liq. SHu nuqtai nazardan Qoraqalpog‘iston va qisman Navoiy viloyatida mazkur ko‘rsatkichning birmuncha yuqoriligi ko‘rilayotgan hududlar sanoat salohiyatidan emas, balki bu joylarda intensiv qishloq xo‘jaligini rivojlantirish sharoitlarining cheklanganligidan darak beradi. Faqat poytaxt – Toshkent viloyatida u haqiqiy real voqelikni aks ettiradi, chunki bu erda, boshqa viloyatlarga qaraganda, sanoat tarmoqlari nisbatan yaxshiroq rivojlangan. Ammo bunday xulosani Namangan va Farg‘ona viloyatlari uchun qo‘llash uncha to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini shaharlar to‘ri va tizimi ham yaqqol ifodalab beradi. Aksariyat hollarda shaharlar sonining ko‘pligi, yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarining mavjudligi hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining yuqoriligini ko‘rsatadi. 2013 yil ma’lumotlariga ko‘ra, respublikada 119 shahar va 1065 shaharcha mavjud. SHaharlar soni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi (12), Qashqadaryo (12) va Toshkent (16) viloyatlari ajralib turadi. Ayni vaqtda hududiy urbanistik tarkib Jizzax, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida yaxshi rivojlanmagan.

Iqtisodiyotning asosan qishloq xo‘jaligi hamda qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashganligi sababli bu erda kichik shaharlar to‘ri juda keng tarqalgan. Jumladan, respublikada katta shaharlar (100 ming aholi va undan ortiq) 17 ta, o‘rta shaharlar (50-100 ming kishi) 19 ta, “yarim o‘rta” shaharlar (20-50 ming) 69 ta. Qolgan 1063 ta shahar va shaharchalarning har birida 20 ming kishidan kam aholi istiqomat qiladi.

O‘zbekistonda jami 17 ta katta shahar mavjud bo‘lib, ularga respublika shahar aholisining 39,9 foizi to‘g‘ri keladi. Aholi soniga ko‘ra Toshkentdan keyingi o‘rinlarda Namangan, Samarqand, Andijon, Buxoro, Nukus, Qarshi shaharlari

turadi. CHirchiq, Olmaliq, Angren, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlarining ham har birida 100 mingdan ziyod aholi bor. Ayni vaqtda Sirdaryo viloyatining ma‘muriy markazi – Gulistonda atigi 63,2 ming kishi yashaydi. Shu bilan birga, yirik markazlar negizida shaharlar hududiy tizimining murakkab shakllari ham vujudga kelgan. Chunonchi, Toshkent Samarqand, Farg‘ona-Marg‘ilon aglomeratsiyalari shular jumlasidandir.

Boy tarixga ega bo‘lgan, urbanizatsiya jarayonining “osiyocha” yoki sharqona shakli qishloq xo‘jaligining sug‘orma dehqonchiligi va u bilan bog‘liq shaharlar to‘riga asoslanadi. Binobarin, sharq tarixi va sharq madaniyatini sug‘orma dehqonchilik hamda qishloq va shaharlarning ajralmas birligi, urbanizatsiyaning o‘ziga xos yo‘nalishisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bois ham respublikamiz iqtisodiyoti va demografik salohiyati asosan qishloq xo‘jaligi va qishloq aholisidan tashkil topgan.

2009 yil – “Qishloq farovonligi va taraqqiyoti” yili deb e‘lon qilinishi munosabati bilan qishloq joylar ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga katta e‘tibor berilmoqda. Ayniqsa qishloq aholisini elektr energiya, ichimlik suvi hamda tabiiy gaz bilan muntazam ta‘minlash, aholi bandligi masalalarini hal etish “Qishloqlar rivojlanishi” Davlat dasturida ustuvor vazifalar qilib belgilangan. SHu bilar birga aholisi ko‘p, sanoat va qurilish inshootlari mavjud bo‘lgan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma shahobchalari yaxshi rivojlangan yirik qishloqlarning ba‘zilariga shahar yoki shaharcha maqomi berilmoqda.

Toshkent iqtisodiy rayoni o‘z tarkibiga Toshkent viloyati va respublika poytaxti – Toshkent shahrini oladi. Maydoni 15,6 ming kv. km bo‘lib, O‘zbekiston hududining 3,5 foizini tashkil qiladi.

Viloyat ma‘muriy jihatdan ancha murakkab tuzilmaga ega. Uning tarkibiga 15 shahar, 97 ta shaharcha, 14 ta qishloq tumanlari, 146 qishloq fuqarolar yig‘inlari va 885 ta qishloq aholi punktlari kiradi. Tumanlar o‘zlarining egallagan maydoni, tashkil topgan yili, demografik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Qishloq tumanlaridan dastlabkilari O‘rtachirchiq, Yangiyo‘l va Yuqorichirchiq bo‘lib, ular 1926 yilda tashkil etilgan. Eng “yangi” tuman – Quyichirchiq 1973

yilda bu ma'muriy maqomga ega bo'lgan. Binobarin, aytish mumkinki, poytaxt viloyatining ichki ma'muriy tuzilishi ancha oldin shakllangan.



Toshkent viloyati respublikamizda nisbatan urbanizatsiyalashgan hudud sanaladi. Uning umumiy darajasi 2013 yilda 49,2 % bo'lgan. Garchi bu raqam mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan va, ayniqsa Farg'ona vodiysi viloyatlaridan ancha past bo'lsada, urbanizatsiyaning real holati mazkur hududda eng yuqori. Sababi, bu erda shaharlar to'ri juda rivojlangan; viloyatda jami 15 ta shahar va 97 ta shaharchalar mavjud, ularning orasida Chirchiq, Angren, Olmaliq “yuzminglik” shaharlar hisoblanadi. Bunday uchlik faqat Farg'ona viloyatida bor, xolos. Qolaversa, viloyatning ko'pchilik shahar va shaharchalari yuqori urbanizatsiyalashgan Toshkent aglomeratsiyasi tarkibiga kiradi.

Ayni vaqtda mintaqada kichik va mayda shaharchalar ham ko'p. Ularning soni, 2009 yilda amalga oshirilgan yangicha urbanizatsiya siyosat tufayli yanada ko'paydi. SHu yilda viloyatda jami 79 ta qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berildi. Birgina Bo'stonliq tumanida 15 ta qishloq shaharcha huquqiga ega bo'ldi. Ular orasida eng yirigi Xumson - 5,4 ming kishi, Qibray tumanida yangi shaharchalar 14 ta, ularning aholisi 2000-3500 kishi atrofida; 19 ta agroshaharlar hozirgi Zangiota tumanida paydo bo'ldi. Zangiota eng kattalari Nazarbek (8042 kishi), Pastdarxon (6036 kishi), Shamsiobod (9729 kishi) va h.k.

Ko‘rinib turibdiki, bevosita shaharga tutash qishloq joylarda, ya’ni Qibray va Zangiota tumanlarida yangi shaharchalar ko‘proq tashkil etilgan. Demak, Toshkent aglomeratsiyasida shaharlar zichligi, haqiqiy urbanizatsiya darajasi yanada oshgan. SHu bilan birga, chekkaroq hududlarda bunday shaharchalar ozroq. Masalan, YAngiyo‘l va Parkent tumanlarida ularning soni 3 tadan, Yuqorichirchiq, Piskent va Quyichirchiqda ikkitadan, Oqqo‘rg‘onda esa atigi bitta (Hamzaobod).

Shunday qilib, bir tomondan 3 ta katta shaharning borligi, ko‘pchilik shahar joylarning Toshkent hamda Angren-Olmaliq aglomeratsiyalari doirasida ekanligi, ikkinchi tomondan, chekka hududlarda mayda shaharchalarning joylashganligi Toshkent viloyatining haqiqiy urbanistik holatini belgilab beradi. Yuqorida keltirilgan shaharlardan tashqari viloyat aholi geografiyasida Parkent (51,0 ming), Piskent (34,5 ming), shuningdek, G‘azalkent, Bo‘ka, Salar, Keles, Chinoz va To‘ytepa shaharlarining har birida 20,0 ming kishidan ziyod aholi yashaydi, qolganlari esa kichik va mayda shaharlar sinfiga taalluqli.

Toshkent viloyatida jami 885 ta qishloq aholi manzilgohlari bor, ularning har biriga o‘rtacha 1535 kishi to‘g‘ri keladi. Kattaroq qishloqlar bevosita Toshkent shahriga yaqin joylarda hamda sug‘orma dehqonchilik rivojlangan Bo‘ka, Bekobod, Oqqo‘rg‘on, Piskent tumanlarida joylashgan. Viloyatning qishloqlari respublikamizning boshqa mintaqalari qishloq joylariga qaraganda ancha urbanizatsiyalashgan.

Poytaxt viloyati demografik vaziyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning aholisini ko‘p millatligidir. Bu erda tub millat – o‘zbeklardan tashqari rus, tatar, koreys, tojik, qirg‘iz, qozoq va boshqa millat vakillari ham yashaydi. O‘zbeklar jami viloyat aholisining 67,3 foizini, ruslar 5,6 foizni, qozoqlar 12,6 foizni, tojiklar 5,4 foizni tashkil qiladi (2013 y.). Rus va tatarlar asosan shaharlarda, qozoq va tojiklar ko‘proq Bo‘stonliq tumanida, qirg‘izlar Bo‘kada, koreyslar YUqori va O‘rtachirchiq tumanlarida istiqomat qilishadi.

Viloyatda mehnat resurslari 1585 ming atrofida, iqtisodiyotda band bo‘lganlar 1216 ming kishi. Jami band aholining 73,2 foizi moddiy ishlab chiqarishda, shu jumladan, sanoatda 20,8 %, qishloq va o‘rmon xo‘jaligida 28,1 %, transport va

aloqada 3,2 %, qurilishda 7,3 %, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minotida 8,9 % faoliyat ko'rsatishadi. Nomoddiy ishlab chiqarish sohalari tarkibida ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy tadqiqot ishlarida 10,5 %, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotda 7,1 % iqtisodiy faol aholi band. SHu o'rinda alohida qayd etish joizki, shaharlarning savdo, pullik yoki boshqa xizmat turlarining nisbiy ko'rsatkichlari, odatda, juda yuqori bo'ladi. Sababi shaharlar nafaqat o'zining aholisiga, balki yaqin atrofdagi qishloq aholisiga ham xizmat ko'rsatadi. Bu ularning shahar yoki rayon hosil qiluvchi funksiyasi - vazifasi doirasiga kiradi. Qishloq tumanlari miqyosida Zangiota (18,6 %) va YAngiyo'l (10,1 %) tumanlari etakchi. Biroq pullik xizmatlarning hududiy ko'rsatkichlarida YUqorichirchiq va Piskent tumanlari uncha ko'zga tashlanmaydi.

Toshkent shahrining ichki tuzilishi. SHaharning mikrogeografik va transport geografik o'rni, er-suv bilan ta'minlanganligi tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Umumiy tarzda shahar hududini tarixiy geografik jihatdan ikki katta qismga ajratish mumkin: eski shahar va yangi shahar. SHartli chegara sifatida Anhor kanali xizmat qiladi. SHaharning eski qismida hozirgi SHayhontohur, Olmazor va Uchtepa tumanlari joylashgan. Uning "yangi" qismi asosan CHirchiq yo'nalishi va janubiy hududlarni egallaydi. SHarqiy yo'nalish qadimdan Toshkentning asosiy dam olish (rekreatsiya) va dala hovli (dacha) zonasi hisoblanadi.

Shahar xo'jaligi. Ma'lumki, poytaxt shaharlar, odatda, o'ziga xos ("poytaxtga xos") vazifalarni bajaradi. Toshkent shahri poytaxtlik funksiyasini 1930 yildan boshlab bajarib kelmoqda. Unga qadar bu maqomda Samarqand shahri bo'lgan. Toshkentning hozirgi holati-sanoati, transport va boshqa infratuzilma shaxobchalari, ijtimoiy sohalari, diplomatik funksiyasi, boshqaruv organlarining ko'pligi borgan sari uning zamonaviy poytaxtlik xususiyatidan dalolat bermoqda.

Toshkent katta shahar-megapolis, u respublikaning asosiy iqtisodiy, madaniy, siyosiy markazi, shahar, eng avvalo, ko'p sonli aholining yashash, ya'ni sotsial muhiti, shu bilan birga u yagona iqtisodiy makon, investitsiya, innovatsiya, o'ziga xos geoeologik (urboekologik), nozogeografik muhit hamdir. Bunday katta

salohiyat va mas'uliyat Toshkent shahri ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Xalqaro miqyosda, jahon hamjamiyati va geosiyosiy tizimida mustaqil O'zbekiston Respublikasi ko'pincha "Toshkent" nomi bilan taniladi va e'tirof etiladi. Iqtisodiy rayon ma'muriy jihatdan Farg'ona vodiysi tabiiy geografik rayonining O'zbekiston qismini o'z ichiga oladi. Unga Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari kirib, jami 18,5 ming kv. km. yoki respublika umumiy maydonining 4,1 foizini tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, rayon hududi ancha kichik, u Samarqand yoki Toshkent viloyatlaridan biroz kattaroq, Jizzax yoki Surxondaryo viloyatlariga sal yaqinroq.

Andijon viloyati. Ma'muriy jihatdan Andijon viloyati viloyatga bo'ysunuvchi 3 ta shahar, 14 qishloq tumanlari, 9 ta tumanga bo'ysunuvchi shaharlar hamda 78 ta shaharcha va 90 ta qishloq fuqarolar yig'inlaridan iborat. Qishloq aholi punktlari 456 ta.

Viloyat markazi–Andijon negizida yirik shahar aglomeratsiyasi shakllanmoqda. Uning "yo'ldoshlari" orasida, eng avvalo, o'zbek avtomobilsozlari shahri Asaka hamda SHahrixon, Marhamat, Poytug' kabilar ajralib turadi.

Mintaqa shaharlari turli funksiyalarni bajaradi: Andijon - ko'p funksiyali, iqtisodiy, siyosiy, madaniyat va fan markazi; Asaka va SHahrixon - sanoat markazlari, Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Oxunboboev, Paxtaobod, Poytug', Ulug'nor, Baliqchi, Buloqboshi, Bo'z, Oqoltin, Oltinko'l, Kuyganyor - agrosanoat shahar va shaharchalar, tuman ma'muriy markazlari, Qorasuv, Xonobod - transport va savdo markazlari. Boshqa shahar joylarning aksariyati agroshaharchalar hisoblanib, ularning ayrimlarida hozircha shahar paydo qiluvchi tarmoqlar sust rivojlangan. Andijon shahrida 404 ming, SHahrixonda – 71 ming, Xonobodda 40 ming aholi bor, qolgan shaharlar aholisi bundan kam.

Andijon



- Andijon viloyatidagi shahar. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. O'zbekistonning yirik industrial shaharlaridan biri. Shahar Farg'ona vodiysining sharqida. Andijonsoy yoqasida, dengiz sathidan 450 m balandlikda joylashgan. Iyulning o'rtacha harorati 27 °C — 28 °C, yanvarniki — 3 °C. Aholisi 333,4 ming kishi (2000). Maydoni 74,3 km². **Andijon** shahri shim.-g'arbdan Oltinko'l tumani, g'arbdan Buloqboshi tumani va jan.-sharqdan Andijon tumani bilan chegaradosh.

2009 yilda amalga oshirilgan urbanistik islohotlar tufayli viloyat shaharchalari 5 tadan 78 taga ko'paydi. Hozirgi kunda jami 11 shahar va 83 ta shaharchalarda jami aholining 52,7 foizi yashaydi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Andijon Namangan va Farg'ona viloyatlaridan keyingi 3-o'ringa chiqib oldi. Taqqoslash uchun: 2008 yilda urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi 29,2 % yoki respublika darajasidan 6,6 punktga past bo'lgan, endi esa viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori turadi.

Tashkil etilgan 78 ta yangi shaharchalarning 18 tasi birgina Andijon tumaniga to'g'ri keladi; 11 ta shaharcha Oltinko'l'da, 9 ta Marhamatda, Jalaquduq va Xo'jaobodda 6 tadan paydo bo'lgan; bittadan agrosaharchalar Ulug'nor va Qo'rg'ontepa tumanlarida tashkil etilgan. 2009 yilgacha Oltinko'l, Baliqchi va Ulug'nor tumanlarida birorta shahar joylar bo'lmagan. Andijon tumanida hozirgi shahar aholisining 93,1 %, Buloqboshida 85,1 %, Marhamatda 82,2 foizi aynan shu yilda shakllangan. SHunday qilib, eng so'nggi shaharlar tarkibidagi o'zgarishlar asosan qishloq yoki "ma'muriy" urbanizatsiya xususiyatiga ega bo'lgan.

Namangan viloyati. Namangan viloyati O'zbekiston Respublikasi Farg'ona vodiysi qismining eng katta hududi hisoblanib, uning maydoni 7,44 ming kv. km.

Bu Farg‘ona iqtisodiy rayonining 40,2 foizi, mamlakatimizning 1,6 foiz maydoni demakdir.



Namangan viloyatida, respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani kabi, shahar aholisi 1989-2008 yillarda deyarli o'smadi yoki uning o'sishi qishloq aholisining ko'payishidan uncha ortiq bo'lmadi. Natijada, urbanizatsiyaning umumiy demografik ko'rsatkichi bu davrda keskin o'zgarmadi, aksincha, mamlakat va qator viloyatlarda u hatto qisqardi. Ammo 2009 yilga kelib "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturini qabul qilish va amalga oshirish munosabati bilan vaziyat keskin o'zgardi, ya'ni urbanistik to'liqin vujudga keldi. Birgina Namangan viloyatida 109 ta qishloq aholi punkti shaharcha maqomiga muayassar bo'ldi va urbanizatsiya ko'rsatkichi 2008 yildagi 37,1 dan 64,7 foizga "sakradi". Hozirda viloyat mazkur ko'rsatkich bo'yicha respublikamizda birinchi o'ringa chiqib oldi. Vaholanki, sanoat ishlab chiqarish va umuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bunga mos kelmaydi.


Tashkil etilgan yangi shaharchalar, to'g'rirog'i — **agroshaharchalar** aholisi 613,1 ming kishi yoki 2008 yil qishloq aholisining 44,8 foizi, 2009 yil shahar aholisining 42,7 foizi demakdir. Ushbu raqamlar "ma'muriy" urbanizatsiyaning yoki qishloq urbanizatsiyasining naqadar ta'sirchanligini isbotlab beradi. Eng ko'p

agroshaharchalar Yangiqo'rg'on tumani xaritasida vujudga keldi – 18 ta. Ularning eng kattalari Qorachashurkentda 10560 kishi, Iskavotda 8490 kishi istiqomat qiladi. Tuman jami shaharchalar aholisi 111,6 ming kishi yoki viloyat yangi shaharchalar aholisining 1/6 qismiga to'g'ri keladi.

SHu o'rinda Namangan shahri demografik rivojlanishiga alohida to'xtab o'tmoq zarur. Sababi so'ngi yillarda bu shahar o'ziga xos "Namangan tezligini" namoyon qilmoqda. YAqin yillargacha u aholi soni bo'yicha respublikamizning ikkinchi, poytaxt – Toshkentdan keyingi pog'onani egallovchi shahri bo'lib qolgan edi. Namangan shahri aholisining bunday tez o'sishi qisman aholi tabiiy ko'payishining taqqoslanayotgan shaharlarga nisbatan birmuncha yuqoriligi, asosan esa uning hududini kengayishi hisobiga yuz bergan. Ayni vaqtda Toshkent va Samarqand shaharlarida tabiiy ko'payish pastroq va tashqi migratsiya kuchliroq bo'lgan.

Farg'ona viloyati. Farg'ona viloyati respublikamizda 1938 yilda tashkil topgan 5 ta viloyatlardan biri hisoblanadi. Uning maydoni 6,76 ming kv km bo'lib, bu borada Sirdaryo, Andijon va Xorazm viloyatlaridan oldinda turadi. O'zbekiston Respublikasi maydoniga nisbatan esa Farg'onaning hududi atigi 1,5 foizga teng, xolos.

Farg'ona.



■ Farg'ona (1907 yilgacha — Yangi Marg'ilon; 1907 — 1924 yillarda Skobelev, mahalliy talaffuzda — Iskobil deb atalgan. Podsho Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishda va keyingi yillarda ko'plab qirg'inbarotlar uyushtirgan generali M.D. Skobelev nomiga qo'yilgan) — Farg'ona viloyatining ma'muriy, iktisodiy va madaniy markazi, respublikaning yirik shaharlaridan biri. Maydoni 0,09 ming km². Aholisi 222,4 ming kishi (2004, Farg'ona vodiysidagi shaharlar ichida aholi soni bo'yicha 3-o'rinda). Shahar Farg'ona vodiysining jan. qismida, Olay tog'larining etagida, 580 m balandlikda joylashgan. Iklimi kontinental. O'rtacha yillik temperatura 13°. Yanv.ning o'rtacha trasi — 2,7°, iyulniki 26,4°. Eng past temperatura 27°, eng yuqori temperatura 42°. Yiliga 192 mm yog'in tushadi. Yog'inning ko'p qismi qish va bahor fasllarida yog'adi. G'arbdan ba'zan qattiq shamol va garmsel, Olay tog'i (Shohimardonsoy vodiysi)dan tog'vodiy shamoli esadi.

Ma'muriy tuzilishiga ko'ra 4 ta viloyatga bo'ysunuvchi shahar, 15 ta qishloq tumanlari mavjud. SHunchalik qishloq tumanlari yana faqat Toshkent viloyatida tashkil etilgan, xolos. SHaharchalar soni 197 ta, qishloq fuqarolar yig'inlari 161 ta, qishloq aholi punktlari 1020 ta. YUqorida keltirilgan raqam va holatlar shundan dalolat beradiki, Farg'ona viloyatining demografik "yuki" og'ir, aholisi zich, hududi yuqori darajada o'zlashtirilgan, boshqaruv tizimi murakkab. Viloyat darajasida eng avvalo tashkil etilgan qishloq tumanlari Oltiariq, Beshariq va Uchko'priq sanaladi. Ular 1926 yilda vujudga kelgan, nisbatan "yangirog'i" esa — Furqat tumani, u 1992 yilda ushbu maqomni olgan.

Asosiy shaharlari, xususan Qo'qon va Marg'ilon ham 2000 yillik tarixga ega. Viloyat markazi 1877 yilda Farg'ona vodiysi Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng YAngi Marg'ilon, keyinchalik Skobelev nomi bilan barpo etilgan. Bu hozirgi mustaqil mamlakatimiz hududida ruslar asos solgan 3 ta shaharlardan biridir. Qolgan ikkitasi Kogon (YAngi Buxoro) va To'rtko'l (Petroaleksandrovsk).

Qo'qon



- Qo'qon — Farg'ona viloyatidagi shahar. Farg'ona vodiysining g'arbiy qismida, So'x daryosi (tarmog'i)ning quyi oqimida joylashgan. Transport yo'li stansiyasi. Qo'qon jan. dan Katta Farg'ona kanali o'tadi. Aholisi 211 ming kishi (2004, 1879 yilda 18,4 ming , 1926 yilda 68,4 ming , 1939 yilda 85 ming , 1959 yilda 105 ming , 1979 yilda 158 ming kishi).

Marg'ilon



www.ziyouz.com



- Marg'ilon — Farg'ona viloyatidagi shahar. Farg'ona vodiysining jan. qismida, Oloy tog'lari etagida joylashgan. Farg'ona shahridan 10–12 km shim.da, 475 m balandlikda. Yaqin t.i. stansiyasi — Marg'ilon (4 km). Iyulning o'rtacha temperaturasi 25—26°, yanv.niki—3,5°. Marg'ilonning jan. chekkasidan Jan. Farg'ona kanali va shahar ichidan Marg'ilonsoy oqib o'tadi. Aholisi 183,2 ming kishi (2002; 1973 yilda 117 ming , 1939 yilda 46 ming , 1897 yilda 36 ming kishini tashkil etgan), asosan, o'zbeklar (89,3%), shuningdek, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. M.dan 3–4 km janubroqda joylashgan Yangi Marg'ilon (sobiq Gorchakova) shaharchasi M. shahar Kengashiga qaraydi.

Viloyatning hududiy-urbanistik tarkibi yaxshi rivojlangan, bu erda 3 ta katta, ya'ni har birining aholisi 100 ming kishidan ortiq bo'lgan shaharlar mavjud: Farg'ona (265 ming kishi), Qo'qon (233 ming), Marg'ilon (215 ming kishi). Bunday “triograd” respublikamizda faqat Toshkent viloyatida bor, xolos – CHirchiq, Angren va Olmaliq. Biroq poytaxt viloyatiga taqqoslaganda Farg'onada o'rta

bo'g'in shaharlar tizimi rivojlanmagan. "Ellikminglik" shahar viloyatda faqat bitta – Quvasoy (85 ming kishi), Quva shahrida 46 ming, Rishtonda 35 ming, qolganlarida aholi soni bundan kam. Kichik shahar va shaharchalar soni 2009 yilda yanada ko'paydi, urbanistik tarkib maydalashdi, kichik shaharlar muammosining dolzarbligi yanada kuchaydi. SHu yilda birdaniga 196 ta qishloqlarga yangi shaharcha maqomi berildi, bunday betakror urbanistik holat bo'yicha respublikamizda viloyat birinchi o'rinda turadi. Ma'lumki, O'zbekistonda jami 966 ta yangi shaharchalar – agroshaharlar vujudga kelgan bo'lsa, ularning har beshtadan bittasi (1/5 qismi) aynan birgina Farg'ona viloyati xaritasida paydo bo'lgan.

YAngi shaharchalar Farg'ona va Quvasoy shahar hokimiyatlarida ham tashkil etilgan. Ta'kidlash joizki, Qo'shtepa, Buvayda, Uchko'prik va Furqat tumanlarida 2008 yilda birorta shahar yoki shaharcha bo'lmagan, ularning hozirgi urbanistik vaziyati aynan 2009 yilning "yangi urbanistik siyosati" natijasida vujudga kelgan (28-ilova). Bunday shaharchalarning kattalari Oltiariq tumanida ko'p – 17,2 ming kishi; Farg'ona shahar hokimiyatiga qarashli shaharchalar ham ancha kattaroq - 13,8 ming kishi. O'rtacha har bir yangi shaharchaga 5,0 ming kishiga yaqin aholi to'g'ri keladi. Ular orasida eng kattalari Farg'ona shahriga qarashli Beshbola, YOrmozor, Oqariq qishloq fuqarolar yig'inlari; qishloq tumanlari miqyosida Oltiariq tumanida Bo'rbaliq (16,1 ming), Eskiarab (12,6), Poloson (14,0), YAngiqo'rg'on (13,3); Buvayda tumanida Buvayda (22,0), Farg'ona tumanida Vodil (15,2), YOzyovonda - Qoratepa (13,3 ming kishi) va h.k.

Nazorat uchun savollar:

NAZORAT SAVOLLAR:

- 1.Toshkent shahriga bevosita tutash shaharlarni bilasizmi?
- 2.Oziq ovqat sanoati asosan qaysi shaharlarda rivojlangan .
- 3.Rangli metallurgiya sanoati asosiy markazlarini ko'rsating
- 4.Iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari Toshkent mintaqasi xo'jalik ixtisoslashuvining o'zagini tashkil qiladi?

- 5.Toshkent shahri xo'jaligini tarmoqlar tarkibining o'ziga xos xususiyatlarini asoslab bering.
- 6.Farg'ona viloyatida urbanizatsiya darajasi necha foiz ?
- 7.Farg'ona viloyatida aholi soni eng katta shahar qaysi?
- 8.Xonqiz konidan nima qazib chiqariladi?
- 9.Namangan so'zining ma'nosini bilasizmi?
- 10.Namangan viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasidan foydalanib, Chust bilan Popni taqqoslang va eng muhim tafovutlarni ko'rsating.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Toshkent shahriga bevosita tutash shaharlarni bilasizmi?
- 2.Iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari Toshkent mintaqasi xo'jalik ixtisoslashuvining o'zagini tashkil qiladi?
- 3.Toshkent shahri xo'jaligini tarmoqlar tarkibining o'ziga xos xususiyatlarini asoslab bering?
- 4.Farg'ona viloyatida urbanizatsiya darajasi necha foiz ?
- 5.Iqtisodiy geografik rayonda temir yo'l qanday ko'rinishda joylashtirilgan
- 6.Farg'ona viloyatida aholi soni eng katta shahar qaysi?

10- Ma'ruza:Zarafshon va Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari.

Reja:

- 1.Mirzacho'l iqtisodiy rayonining geografik o'rni.**
- 2.Jizzax viloyatidagi shaharlar va ularning urbanistik ahamiyati.**
- 3. Sirdaryo viloyatining shaharlari.**
- 4.Buxoro va Navoiy viloyati va shaharlari.**
- 5. Samarqand viloyati shaharlari va ularning turistik ahamiyati.**

Tayanch tushunchalar:Ma'muriy markaz,ma'muriy birlik,ma'muriy urbanizatsiya,migratsiya,ichki va tashqi migratsiya,

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni o'tgan asrning 80-yillarida Jizzax hamda Sirdaryo viloyatlari negizida tashkil topgan. Uning maydoni 25,4 ming kv. km. bo'lib, respublika hududining 5,7 foiziga tengdir. Maydoni bo'yicha bu ikki ma'muriy

hudud bir-biridan keskin farq qiladi: Jizzax viloyatining maydoni 21,2 ming kv. km. bo'lib, Sirdaryonikidan deyarli 5 marta katta.

Rayonning kuchli tomonlari uning nisbatan qulay iqtisodiy geografik o'rni, mehnat resurslari, infratuzilma hamda qurilish va elektr energiya ba'zasining mavjudligida namoyon bo'ladi. Zaif tomonlari esa qazilma resurslarining ozligi, iqtisodiy "zanjirining" to'liqsizligi, qayta ishlash sanoatining rivojlanmaganligidir. Boshqacha qilib aytganda, Mirzacho'l Toshkent va Zarafshon iqtisodiy rayonlari o'rtasida o'ziga xos "vakuum" hisoblanadi. Ayni vaqtda, rayon o'zining bunday oraliq geografik mavqesidan ham foydalanishi mumkin.

Jizzax viloyati. Jizzax viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibida dastlab 29 dekabr 1973 yilda tashkil etilgan va u 6 sentyabr 1988 yilda qo'shni viloyatlar tarkibiga kiritilgan. Hozirgi holatda esa Jizzax viloyati 16 fevral 1990 yilda qayta tiklangan.

Viloyatda 2013 yilda urbanizatsiya darajasi 47,5 % (respublikada 51,2 %), 2008 yilda esa u 29,2 foiz bo'lgan. SHaharliklar 6 ta shahar 43 ta shaharchalarda istiqomat qiladi. "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturining ijrosiga binoan viloyatda 34 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Jumladan, Jizzax tumanida ularning soni 7 ta: Jizzaxlik, Gandumtosh, Qorayantoq, Tokchilik, Mulkanlik, Kangli va Uchtepa; Baxmal tumanida 6 ta: Mug'ol, Novka - 1, Alamli, Tongotar, Oqtosh hamda Baxmal; G'allaorolda 4 ta: Abdukarim, Lalmikor, CHuvilloq, Kangli - 1. Qolgan tumanlarda bunday shaharchalar ozroq, Paxtakor va Do'stlik tumanlarida esa atigi bittadan (Gulzor va Navro'z).

YAngi shaharchalar orasida G'oliblar (12,0 ming kishi), Jizzaxlik (15,6 ming), Tokchilik (15,8 ming), Mulkanlik (11,0 ming), YUksalish (11,5 ming kishi) aholi soni bo'yicha ajralib turadi. Umuman olganda esa, Jizzax shahridan tashqari qolgan shahar joylar ko'proq kichik sinflarga taalluqli. Bu erda urbanistik tarkibning o'rta bo'g'ini nihoyatda zaif: 50-100 ming aholiga ega bo'lgan birorta shahar yo'q, Paxtakor, G'allaorol, Dashtobod shaharlari aholisi 20-25 ming atrofida.

Sirdaryo viloyati. Sirdaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining maydoni va aholi soni bo'yicha eng kichik ma'muriy birliklaridan sanaladi. U 16 fevral 1963 yilda tashkil etilgan, maydoni 4,28 ming kv. km yoki respublika hududining bor-yo'g'i 0,95 foizini tashkil etadi, xolos. Bu borada u mamlakatimizda oxirgi o'rinda turadi.



Viloyatda 2009 yilgacha 5 ta shahar (ularning 3 tasi viloyatga bo'ysunuvchi maqomiga ega) va shuncha shaharcha mavjud bo'lgan. Ularda jami aholining 31,1 foizi istiqomat qilgan. Urbanizatsiya jarayonining bunday demografik ko'rsatkichi respublika o'rtacha darajasidan 35,8 % ancha past. 2009 yilga kelib esa, vaziyat mamlakatimizda yuz bergan "qishloq" yoki "ma'muriy urbanizatsiya" tufayli shaharchalar soni 25 taga etgan, urbanizatsiya darajasi esa 43,2 foizga etgan.

Viloyatda 72,2 ming qishloq aholisi to'g'ridan-to'g'ri "shaharlik" bo'ldi. Bu xususta Oqoltin tumani oldinda (25,3 ming kishi), Sirdaryo va Sayxunobod tumanlari ham "yangi" shaharliklar bo'yicha birmuncha ko'proq. Ayni paytda Xovos, Sardoba tumanlarida birorta qishloq aholi punkti bunday maqomga sazovor bo'lmagan. Ta'kidlash o'rinliki, yangi agrosaharlar soni Sirdaryo viloyatida


uncha ko‘p emas; bu borada u Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birgalikda (11 ta) mamlakatimizda oxirgi o‘rinlarni bo‘lib olishgan.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sust rivojlanganligi uning urbanistik tarkibida ham o‘z aksini topadi. Viloyatda birorta katta, ya’ni “yuzminglik” shahar yo‘q va bu borada u respublikamiz geosiyosiy tizimida yagona hisoblanadi. Hatto viloyat markazi ham bu darajaga etisha olmagan. Guliston shahrida 84,7 ming, Yangi-Yulda 38,2 ming, Xovos shaharchasida 28,0 ming aholi bor. Qolgan shahar joylarning har birida 20 mingdan oz aholi yashaydi. Demak, viloyatning urbanistik “piramidasi” juda sust rivojlangan va uning pog‘onalari to‘liq emas. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish va aholini hududiy tashkil etishning, ularning hududiy mujassamlashuv darajasining o‘ziga xosligidan dalolat beradi; aholi nisbatan zich joylashgan, qishloq va shaharlari esa uncha katta emas. E’tirof etish zarurki, viloyat aholisi o‘z mohiyatiga ko‘ra boshqa hudud aholisiga qaraganda o‘zining yuqori darajada tadbirkorligi bilan ajralib turadi. Sababi u migratsiya oqibatida shakllangan, migratsiya esa selektiv, ya’ni “tanlovchanlik”, “terib olish” xususiyatiga ega.

Ushbu rayon o‘z tarkibiga Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarini birlashtiradi. Maydoni bo‘yicha u O‘zbekistonda faqat Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidan keyinda turadi. Rayonning maydoni 168,1 ming km² bo‘lib, respublika hududining 37,4 foizini tashkil qiladi.

Buxoro viloyati. Respublikamizning maydoni katta bo‘lgan hududlaridan biri Buxoro viloyati bo‘lib, u 15 yanvar 1938 yilda tashkil topgan. Maydoni 40,3 ming kv. km, O‘zbekiston hududining 9,0 foiziga teng va bu borada Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Navoiy viloyatidan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Odatda, maydoni katta viloyatlar tabiiy sharoiti xo‘jalik nuqtai nazaridan noqulay tog‘ yoki cho‘llardan iborat bo‘ladi.

Buxoro.



■ Buxoro [O'zbekiston](#) shaharlaridan biri, [Buxoro viloyatining](#) ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. [Buyuk ipak yo'lida](#) yirik tijorat markazlaridan bo'lgan. O'zbekistonning janubiy-g'arbida, Zarafshon daryosi quyi oqimida joylashgan. Toshkentdan 616 km. Buxoro 2 ta shahar tumani (Fayzulla Xo'jayev va To'qimachilik)ga bo'lingan. Aholisi 264 ming kishi (2001).

Ma'muriy jihatdan u viloyatga bo'ysunuvchi 2 ta shahar, 11 ta qishloq tumanlarini o'z tarkibiga oladi. SHahar posyolkalari 69 ta, QFY 121 ta, qishloq aholi punktlari 1469 ta. Qishloq tumanlarining eng dastlabkilari Buxoro, Vobkent, G'ijduvon, Kogon, Qorako'l, Romiton va SHofirkon 29.09.1926 yilda tashkil etilgan. Demak, 11 ta ma'muriy birlikdan 7 tasi 1926 yilga, ya'ni respublikamizning eng birinchi ma'muriy qurilmasiga to'g'ri keladi va bunday holat ko'pgina boshqa viloyatlarda qayd etilmaydi.

Buxoro viloyatining ma'muriy kartasiga nazar tashlasak, unda qishloq tumanlarining ajoyib, haqiqiy cho'lga xos chegaralari va tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) yaqqol ko'rinadi. Bunda, eng avvalo, yirik tumanlar, Qorako'l, Jondor, Romiton va Peshkuning "yotiq" holda shimoli - g'arbdan janubi - sharq yo'nalishida cho'zilib yotgani qayd etiladi. Romiton tumani esa ularning orasida "laxtaksimom" parcha – parcha ko'rinishda, tuman markaziga nisbatan eksklav holatda joylashgan. Bunday geografik manzara boshqa viloyatlarda kam uchraydi va uni kartalarda aks ettirish ham ancha ko'rinarli bo'lmaydi yoki "kartabop" emas. Ko'pincha, ma'muriy birliklarning ixcham (kompakt) bo'lmaganligi ularning ichida ishlab chiqarish va aholini hududiy tashkil etish, unga xizmat ko'rsatish va boshqaruvda biroz qiyinchiliklar tug'diradi. Bu nuqtai nazardan

Vobkent va Kogon tumanlari ancha qulayliklarga ega. Ammo, Kogon tumani bevosita viloyat markaziga tutash bo'lib, uni Buxoro tumani "taqasimon" o'rab turadi. Bunday ma'muriy - geografik vaziyat ham kamdan – kam uchraydi.

Viloyatda yaqin yillargacha 11 ta shahar va 2 ta shaharcha mavjud bo'lgan. 2009 yilda "yangi urbanistik to'lqin" tufayli bu erda 60 ta qishloqlar shaharcha maqomini oldi, natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi bir yilda 29,2 foizdan 38,8 foizga etdi. Biroq shunga qaramasdan, shaharliklar ulushi viloyatda eng pastlardan biri bo'lib qolmoqda (pastdan Xorazm va Surxondaryo viloyatlaridan oldinda turadi).

YAngi agrosaharchalarning eng ko'pi Qorako'l (12 ta) va G'ijduvon (10 ta), ya'ni vohalarda, sug'orma dehqonchilik rivojlangan, aholisi zich hududlarda tashkil topgan. Romiton va Peshkuda 3 tadan, Vobkentda esa 2 tadan shaharcha shakllangan.

Bunday o'zgarishlar viloyat urbanistik tarkibini yanada maydalashtiradi. Hozirgi kunda mintaqada 1 ta yirik shahar - Buxoroi SHa'rif bor, uning aholisi 272 ming atrofida (bu borada Toshkent, Samarqand ,Namangan va Andijondan keyingi 5-o'rinda). Viloyatning aholi soni bo'yicha ikkinchi shahri, Buxoro aglomeratsiyasiga kiruvchi Kogonda (YAngi Buxoroda) 59 ming, haqiqiy "ikkinchi" shahri G'ijduvonda 43 ming kishi yashaydi. Qolgan shahar joylar orasida faqat Qorako'lda 20 mingdan ziyod aholi bor, xolos. Demak, 69 ta shahar joylarning aholisi, har birida bundan kam. Mayda shahar va shaharchalarning ko'pchiligi, tarqoqligi, "resurs" markazlarning mavjudligi (Gazli, Zafarobod) cho'l hududi shaharlar geografiyasi uchun tipik voqelikdir.

Navoiy viloyati. Viloyat dastlab 20.04.1982 yilda tashkil topib, 1988 yilgacha shu maqomda mavjud bo'lgan. So'nggi marta esa u 27 yanvar 1992 yilda qayta tiklangan. Maydoni 111,0 ming kv. km yoki respublika hududining yaqin 1/4 qismiga teng.

Navoiy viloyatining ichki ma'muriy tuzilishi ham uncha murakkab emas; bu erda atigi 8 ta qishloq tumanlari mavjud, xolos. Ta'kidlash joizki, Sirdaryo

Navoiy



■ Navoiy — Navoiy viloyatidagi shahar (1958 yildan). Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. O'zbekistonning janubi-g'arbida, Zarafshon daryosi vodiysida, viloyatning sharqiy chekkasida, 347 m balandlikda joylashgan. Temir yo'l stansiyasi. Avtotransport yo'llarining muhim tuguni, Toshkentdan 509 km. Iqlimi kontinental, yillik o'rtacha temperatura 15,6°, iyulniki 28,3°, yanv. niki 0,4°. Maydoni 60 km². N. tarkibida Karmana tumani bor. Aholisi 145,5 ming kishi (2003; 1995 yil—112,7 ming; 1974 yil—80 ming; 1960 yil—20 ming kishi).

viloyatida ham bunday ma'muriy birliklar soni 8 ta, lekin uning maydoni Navoiy viloyatiga qaraganda 23,2 marta kichik. Demak, Navoiyda qishloq tumanlari juda katta maydonlarni egallaydi va uning hududi yaxshi o'zlashtirilmagan yoki katta iqtisodiy sig'imga ega emas. Darhaqiqat, Uchquduq tumanida bu ko'rsatkich 46,6, Tomdida 42,5 ming km² ga teng. Bu borada ushbu tumanlar Qoraqalpog'istonning Qo'ng'iro't tumanidan so'ng (76,0 ming km²) ikkinchi va uchinchi o'rinlarda turadi. SHu joyda ta'kidlash kifoyaki, Uchquduq va Tomdi tumanlari Navoiy viloyatining 80,3 foizini, respublika umumiy maydonining yaqin 1/5 qismini egallaydi.

Viloyatda 6 shahar va 47 shaharcha mavjud bo'lib, ularning barchasida jami aholining yarmi yashaydi. Ko'rinib turibdiki, umumiy urbanizatsiya ko'rsatkichi bu erda ancha yuqori. Mazkur holat, bir tomondan, hududda chindan ham sanoatning nisbatan yaxshi rivojlanganligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, u intensiv qishloq xo'jaligi uchun imkoniyat cheklanganligi bilan bog'liq.

Umumiy urbanizatsiya darajasi 2008 yilda 39,5 % bo'lgan, uning 10 % dan ko'proqqa ortishi esa 2009 yilning "urbanistik to'liqini" natijasida yuzaga kelgan. SHu o'rinda ta'kidlash lozimki, agar viloyat bu ko'rsatkich bo'yicha (40,4 %) 2000 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi o'rinda turgan bo'lsa,

hozirda u mamlakat oʻrtacha koʻrsatkichidan ham pastroqda – 50,1 %. Sababi, boshqa mintaqalarga qaraganda bu erda yangi shaharchalar ozroq tashkil qilgan. Viloyatda 2009 yilda qabul qilingan “Qishloq” dasturi tufayli 30 ta aholi punktiga shaharcha maqomi berilgan. Bunday agroshaharchalarning eng koʻpi, yaʼni 8 tasi birgina Qiziltepa tumanida joylashgan. Xatirchi va Navbahor tumanlarida ularning soni beshtadan, Tomdida esa atigi bitta.

Navoiy shahri oʻzining demografik salohiyatiga koʻra aglomeratsiya markazi boʻlishiga loyiq, uning atrofida “yoʻldosh” shaharchalar (Qiziltepa, Karmana, Beshrabot, Konimex, Tinchlik, Malikrabot) bor. Bu shahar respublika boshqa viloyat markazlaridan oʻzining arxitekturasini, qurilishi va, xususan yuksak sanoat salohiyati bilan farqlanib turadi. SHu nuqtai nazardan u CHirchiq, Olmaliq, Angren, Qoʻqon, Margʻilon, Bekobod shaharlariga funksional jihatdan turdosh hisoblanadi.

Samarqand viloyati. Samarqand viloyati respublikamizda eng birinchilar qatorida tashkil etilgan. U 15 yanvar 1938 yilda ushbu maʼmuriy maqomni olgan. Maydoni 16,8 ming kv.km yoki Oʻzbekiston hududining 3,7 foiziga teng.



Urbanizatsiyaning umumiy demografik koʻrsatkichi 2009 yilning “iliq urbanizatsiya bahoridan” soʻng bir yilda 25,1 dan 38,8 foizga koʻtarildi. Ammo bu

ham uncha yuqori ko'rsatkich emas va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi nuqtai nazaridan qaraganda, real holatni aks ettiradi. Hozirda Samarqand viloyati Xorazm va Surxondaryo viloyatlaridan so'ng oxirdan 3-o'rinni egallaydi. Albatta, bu Samarqanddek dunyoga mashhur, Sohibqiron Amir Temur imperiyasining poytaxti joylashgan hudud uchun ancha past ko'rsatkich sanaladi.

Respublikaning ikkinchi shahri Samarqandda, uning hududi Samarqand qishloq tumani hisobidan kengaygandan so'ng 513, Kattaqo'rg'onda 83 ming, Urgutda 65, Oqtoshda 42, Bulung'urda 29, Payshanbada 23 ming kishidan aholi istiqomat qiladi. Qolgan shahar va shaharchalar kichik yoki mayda shaharchalar sinfiga mansub. Jami shaharchalarning 76 tasi 2009 yilda "Qishloq" Davlat dasturiga binoan tashkil topgan. Ularda hammasi bo'lib 400 mingga yaqin aholi bor. Eng ko'p yangi shaharchalar Pastdarg'omda (11 ta), Ishtixon (11 ta), Payariq (9 ta) tumanlarida, eng oz qismi Bulung'urda (3 ta), Qo'shrabot, Narpay va Samarqand tumanlarida (2 tadan) va Nurobod tumanida (1 ta - Nurbuloq) viloyat ma'muriy xaritasidan joy olgan.

Samarqand viloyati va, xususan, Urgut tumanida yirik qishloqlar ko'p. Yangi shaharchalar orasida bunday demografik salohiyatga ega bo'lganlari Urgut tumanida O'ramas (29,2 ming), G'o's (28,9 ming), Jartepa (18,4 ming), Ispanza (20,9 ming), Toyloq tumanida Toyloq (13,3 ming), Pastdarg'om tumanidagi Chaxin shaharchasida (10,3 ming kishi) va h.k. Yaqin yillargacha Namangan aholi soniga ko'ra respublikamizning "ikkinchi shahri" edi, hozirda esa uning dastlabki poytaxti Samarqand hisoblanadi. Shaharning ta'sir zonasida yirik Samarqand aglomeratsiyasi shakllangan. Aglomeratsiya tarkibiga Urgut, Jomboy, Bulung'ur, Xeshrav, Kimyogarlar, Farhod, Juma, Loyish, Chelak kabi "yo'ldosh" shahar manzilgohlari kiradi.

1. Samarqand viloyati mamlakatimizda turizm sohasi bilan ham ajralib turadi. Bu hududda joylashgan, asosan sohibqiron Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug'bek tomonidan barpo etilgan olamshumul binolar, masjidu-madrasalar, tarixiy yodgorliklar – Registon, Shahi Zinda, Go'ri Amir, Ulug'bek observatoriyasi, Bibixonim madrasasi, Dahbed qishlog'ida joylashgan Mahdumi

A'zam, Payariq tumanida respublika Prezidenti tashabbusi bilan barpo etilgan Imom Buxoriy qadamjolari nafaqat mamlakatimizda, balki Islom olami va butun dunyoda ham mashhurdir. Bunday qadamjo va ziyoratgohlar viloyatning boshqa tumanlarida ham ko'p (Urgut, Samarqand, Qo'shrabot va b.). SHuningdek, Samarqandning mashhur noni, shirinliklari va milliy taomlari, arxitektura va shaharsozlik yodgorliklari sayyohlar uchun katta qiziqish tug'diradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Respublikamizda umumta'lim maktablardagi o'quvchilar soni eng kam viloyatni belgilang?
2. G'allaorol tumani qaysi voliyat hududida joylashgan?
3. Sirdaryo viloyati ekin maydonlarining 5% iga qanday ekinlar ekinlar ekiladi?
4. Iqtisodiy rayon qaysi shahrida parrandachilik rivojlangan?
5. Iqtisodiy rayonda qaysi shahar aholi soni bo'yicha eng katta hisoblanadi?
6. Sirdaryo viloyati aholisining asosiy qismi qanday hududlarda yashaydi?

Savol va topshiriqlar:

1. Rayondagi eng katta shaharni ko'rsating.
2. Sirdaryo viloyati sug'oriladigan yerlarining umumiy maydoni qancha ?
3. Rayon tabiatiga xos bo'lgan noqulaylik nimada deb o'ylaysiz ?
4. Sirdaryo viloyatida aholisining necha foizi shaharlarda yashaydi?

11- Mavzu: Janubiy va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni shaharlari.

Reja:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasining ichki tafovutlari.
2. Xorazm viloyati shaharlari.
3. Surxondaryo viloyati va shaharlari.
4. Qashqadaryo viloyatining shaharlari.
5. Viloyatlarning urbanistik tarkibi.

Respublikamiz janubida joylashgan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari shakllanayotgan yangi iqtisodiy makon – asosiy iqtisodiy rayonni tashkil etadi. Uning maydoni 48,7 ming km² bo'lib, O'zbekiston hududiga nisbatan olganda 10,9 foizga teng.

Ta'kidlash joizki, shu tartibda iqtisodiy rayon o'tgan asrning 60-yillarida ham ajratilgan edi. U davrda, aniqrog'i 1962 yilda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari birlashtirilib, bu hudud Surxondaryo viloyati deb atalgan va shu nom bilan ma'muriy-iqtisodiy rayon ajratilgan. Hozirgi vaqtda rayon hosil qiluvchi omil sifatida uning geografik o'rni, ya'ni respublikamiz janubida joylashganligidan tashqari mintaqaning tabiiy-resurs salohiyati, demografik vaziyati, transport tizimi, tarixiy rivojlanish va milliy an'analari xizmat qiladi. Janubiy iqtisodiy rayon neft, gaz, toshko'mir qazib olishga, paxta, g'alla, go'sht etishtirishga ixtisoslashgan.

Surxondaryo viloyati. Mamlakatimizning eng janubida joylashgan Surxondaryo viloyati 6 mart 1941 yilda tashkil topgan. Uning maydoni 20,1 ming kv. km bo'lib, jami O'zbekiston Respublikasi hududining 4,5 foiziga teng. Viloyatning dastlab tashkil etilgan (1926 yil) qishloq tumanlari Denov, Sariosiyo, Termiz va SHerobod, eng so'nggisi esa 1992 yilda tarkib topgan Bandixon tumani sanaladi. Maydoni bo'yicha eng kattalari Sariosiyo va Boysun, eng kichigi Angor (atigi 0,39 ming kv. km); ular orasidagi farq yaqin 10 barobar. Umuman olganda, Boysun, Sariosiyo, SHerobod va Qumqo'rg'on tumanlari birgalikda 12,6 ming kv.km yoki viloyat maydonining 62,6 foizini egallaydi.



Surxondaryo viloyatida, 2014 yil ma'lumotlari bo'yicha, 8 ta shahar va 114 ta shaharchalar qayd etilgan. Ularda jami aholining 37,0 foizi yashaydi. Bu jihatdan u

mamlakatimizda faqat Xorazm viloyatidan oldinda turadi, xolos (34,2 %). Taqqoslash uchun, 2008 yilda urbanizatsiya darajasi Surxondaryoda 19,1 % bo'lgan. Hozirgi mavjud 114 ta shaharchalarning 107 tasi 2009 yilda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" Davlat dasturini amalga oshirilishi bilan ushbu maqomni olgan (respublika yangi shaharchalarining 10,7 %). Bunday shaharchalar, aniqrog'i– agroshaharchalar viloyatning barcha qishloq tumanlarida bor. Ularning eng ko'pi Oltinsoyda (14 ta), Denovda va Angorda (11 tadan), Qumqo'rg'on va Muzrabotda (10 tadan) kuzatiladi. Eng kami esa Bandixon tumaniga to'g'ri kelib, bu erda birgina tuman markazi – Bandixon shaharcha unvoniga muvassaf bo'lgan.

Viloyat urbanistik tarkibi ham iqtisodiyotning tarmoqlar va hududiy tarkibiga mos holda yaxshi rivojlangan. Termizda 136 ming aholi bor, ikkinchi shahar Denovda 70,0 mingdan ziyodroq. SHerobod, Boysun, Jarqo'rg'on, SHo'rchining har birida 20-30 ming kishidan aholi yashaydi. Qolgan yuzdan ortiq shahar joylar kichik va mayda sinflarga mansub.

Qashqadaryo viloyati. Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibida dastlab 20 yanvar 1943 yilda tashkil etilgan, 1960-1964 yillar oralig'ida u Surxondaryo viloyati bilan qo'shilgan va 7.02.1964 yilda qayta tiklangan. Viloyat maydoni 28,6 ming kv. km bo'lib, mamlakat hududining 6,4 foizini egallaydi. Bu borada Qashqadaryo Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlaridan so'ng 4-o'rinda turadi.

Viloyatning umumiy urbanizatsiya darajasi 43,3 % - bu respublika ko'rsatkichidan ancha past (51,2 %). Bu erda hammasi bo'lib 13 shahar va 123 ta shaharcha bor. Ulardan Qarshi O'zbekistonning 17 katta shaharlari qatoriga kiradi (255 ming kishi), SHahrisabzda 100 mingga yaqin, Kosonda 69 ming aholi yashaydi; Qamashi va Kitob shaharlarida 37-40 ming aholi bor. Qolgan shahar va shaharchalarda aholi soni bundan ozroq.

2009 yilda "Qishloq..." Davlat dasturini qabul qilinishi munosabati bilan viloyatning 119 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi 2008 yildagi 24,6 foizga teng bo'lgani holda, u birdaniga 19,0 foizga ortdi. YAngi shaharchalar (agroshaharchalar), ayniqsa

SHahrisabz, Qarshi, Kitob va Yakkabog' tumanlarida ko'p. SHahrisabzda bunday unvonga 18 ta, Qarshida 15, Kitobda 14, Yakkabog'da 13 ta qishloqlar ega bo'lgan.

Qashqadaryoning yuqori zonasida joylashgan qishloq tumanlarida intensiv sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan va shu asosda aholi zich, katta-katta qishloqlar shakllangan. Nisbatan ozroq yangi shaharchalar Mirishkor (3 ta) va Dehqonobod tumanlarida (2 ta) paydo bo'lgan. Yangi shaharchalarni aholi soni bo'yicha eng kattalari: Maymanoq – 19,5 ming kishi, Fazli - 11,5 ming (Kasbi tumani), Yangi Mirishkor – 16,3 ming, Pomuk – 13,0 ming (Mirishkor), Karlik – 14,9 ming (Muborak tumanida), Karashina – 11,1 ming kishi (Dehqonobod tumani) va h.k.

Sanoatning hududiy tashkil etilishida Qarshi, SHahrisabz tugunlari katta ahamiyatga ega; Muborak (IEM, gazkimyo majmuasi), Koson (yog'ekstrakt, paxta tozalash, g'isht zavodi), SHO'rtan (neft-gaz-kimyo), Tolimarjon (IES), Ko'kdumaloq (neft), CHiroqchi (konserva zavodi), Dehqonobod (kaliy zavodi) va boshqa sanoat punktlarining ahamiyati ham oshib bormoqda. Qarshi, Qamashi va SHahrisabzda to'qimachilik korxonalari ("Oqsaroy - to'qimachi" QK, ipakchilik), aksariyat tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari mavjud.

Viloyatda gaz kondensatini Muborak neft-gaz konlari, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, "SHO'rtan neft-gaz" sho'ba korxonasi, SHO'rtangaz kimyo majmuasi hamda "Hisor neft-gaz" qo'shma korxonalari ishlab chiqaradi. Ularning orasida gaz kondensati bo'yicha Muborak neft-gaz konlari boshqarmasi va SHO'rtan neft-gaz, neft va tabiiy gaz qazib olishda Muborak neft-gaz konlari etakchilik qiladi. Suyultirilgan gazning yarmiga yaqinini SHO'rtangaz kimyo majmuasi etkazib beradi, ikkinchi o'rinda SHO'rtan neft-gaz sho'ba korxonasi turadi. Oltingugurtning deyarli 100 foizga yaqinini Muborak gazni qayta ishlash zavodi ta'minlaydi.

Jami sanoat mahsulotining 9,3 foizi viloyat markazi Qarshi shahriga to'g'ri keladi.

Mazkur rayon O'zbekistonda hududi bo'yicha eng katta bo'lib, u o'z tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatini oladi. Maydoni 172,6 ming km. kv. – bu mamlakatimiz umumiy maydonining 38,5 foizi demakdir. U respublika aholisining eng chekka shimol, shimoli-g'arbida, markaziy markaziy shaharlardan ancha uzoqda, global tus olgan ekologik jihatdan muammoli Orol dengizi ta'sirida joylashgan. Aynan ana shunday o'ziga xos geografik (iqtisodiy, geosiyosiy va ekologik geografik) o'rin uning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini belgilab beradi. Rayon hosil qiluvchi geografik omil uning Amudaryo quyi qismida joylashganligidir.

Bu rayon ikki, ma'lum ma'noda bir-biriga o'xshamagan ma'muriy birlikdan tashkil topgan, ya'ni u mamlakatimizda eng katta va yagona avtonom respublika hamda Xorazm viloyatidan iborat. Biri ozmi-ko'pmi tabiiy resurslarga–qazilma boyliklarga ega bo'lsa, ikkinchisida mehnat resurslari mo'l. SHu bois, mazkur hududda o'zaro iqtisodiy integratsiyalashuv imkoniyatlari va zarurati mavjud.

Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qoraqalpog'iston Respublikasi (QR) O'zbekiston Respublikasi tarkibida suveren davlat sifatida 9 yanvar 1992 yilda e'lon qilingan. Poytaxti – **Nukus** shahri. Uning tarkibiga 14 ta qishloq tumanlari, 12 ta shahar va 26 ta shaharcha 139 ta QFY va 1128 ta qishloq aholi punktlari kiradi. Maydoni 166,6 ming km². Maydoni, O'zbekiston Respublikasiga nisbatan olganda, 37,1 foizga barobar.

Nukus



■ Nukus (qoraqalpoqcha Nekis) — Qoraqalpogʻistondagi shahar (1932 yildan). Qoraqalpogʻiston Respublikasi poy-taxti, Respublika hududining markaziy qismida, Amudaryoning oʻng sohilida, 109 m balandlikda. Jan. va sharqda Kizilqum choʻli bilan oʻralgan, shim.da Amudaryo deltasi bilan tutashgan. Oʻrtacha temperatura iyunda 27°, yanv.da —6,9°, maksimal temperatura 46°, minimal temperatura —32°. Temiryoʻl stansiyasi. N.dan Toshkentgacha 1265 km. Kizketgan kanali shaharni kesib oʻtadi. Maydoni 200 km². Aholisi 271 ming kishi (2010; 1974 yilda 88 ming; 1959 yilda 39 ming; 1939 yilda 10 ming); aso-san, qoraqalpoqlar; qozoq, oʻzbek, rus, koreys, tatar va boshqa ham yashaydi.

Ekologik vaziyatning noqulayligi sababli aholining migratsiya harakatlari bu erda muntazam salbiy natijalarga ega. Jumladan, birgina 1998 yilda QRning shahar joylarida migratsiya qoldigʻi, yaʼni kelganlar bilan ketganlar nisbati minus 3 ming, qishloq joylarda esa minus 1750 kishiga barobar boʻlgan. 1997 yilda bu raqamlar, yuqoridagilarga mos holda, minus 3168 va 1729 kishini tashkil qilgan. Mintaqada keyingi yillarda ushbu jarayonning asosiy koʻrsatkichlari ham biroz oʻzgarib bormoqda. Masalan, har ming kishiga hisoblaganda, 2010 yilda ketganlar 15,4, kelganlar 8,3, migratsiya qoldigʻi minus 7,1 promille yoki 2013 yilda bu koʻrsatkichlar mos ravishda 8,3, 12,1 va minus 3,8 promilleni tashkil qilgan. Migratsiya aylanmasi xususan Taxtakoʻpir, Xoʻjayli, SHumanoy va Moʻynoq tumanlarida katta, uning natijasi ham yuqori salbiy koʻrsatkichlarga ega. CHunonchi, migratsiya saldosi Nukus tumanida minus 17,7, Taxtakoʻpirda 15,6, Xoʻjaylida 9,6, Moʻynoqda 9,9 promille; nisbatan past daraja Toʻrtkoʻl, Beruniy, Ellikqalʼa tumanlarida qayd etiladi. Mazkur tumanlar ekologik vaziyati birmuncha qulay boʻlgan janubiy rayonlarda joylashgan. Ijobiy saldo migratsiyasi faqat Nukus shahriga tegishli — plyus 5,0 %.

Jami aholidan 852 ming kishi 12 ta shahar va 26 ta shaharchalarda yashaydi. Eng katta shahar QR poytaxti - Nukus boʻlib, unda 295 ming aholi istiqomat

qiladi (2014 y.). Xo‘jayli, Beruniy, To‘rtko‘l va CHimboy o‘rta shaharlar qatoriga kiradi; Taxiatah, Mang‘it va Qo‘ng‘irot shaharlarining har biriga 30-50 ming aholi to‘g‘ri keladi. Qolgan shaharlarda aholi soni bundan kam. 2009 yilda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi” dasturi doirasida bu erda 11 ta qishloq aholi manzilgohiga shaharcha maqomi berilgan, umumiy urbanizatsiya ko‘rsatkichi 2008 yildagi 48,5 foizdan 50,4 foizga o‘zgargan.

Ma’lumki, Qoraqalpog‘iston hududiga Orol dengizining ta’siri katta, binobarin, uning ekologik vaziyati ancha nochor bo‘lganligi sababli bu erda aholi migratsiyasi ancha faol. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ketuvchilar (asosan qozoq millati) ko‘pchilikni tashkil qiladi. Qolaversa, bu mintaqa O‘zbekiston poytaxti – Toshkent shahri bilan bir qatorda mamlakatimizdagi umumiy migratsion vaziyatni shakllantirib boradi. Mo‘ynoq, Xo‘jayli, Qorao‘zak, Qo‘ng‘irot, Taxtakopir kabi qishloq tumanlarda so‘nggi yillardagi migratsiya qoldig‘i taxminan jami aholi sonining 1,0-1,7 foizini tashkil qiladi. Bu esa mazkur hududlardagi aholining tabiiy ko‘payishiga deyarli teng. SHu sababdan ham Qoraqalpog‘istonning qator tumanlarida aholi sonining o‘sishi o‘ta past. E’tiborlisi shundaki, Nukus va Taxiatah shaharlarida ham aholining migratsion yo‘qotishi avvalgi yillarda ancha katta bo‘lgan.

“Qishloq taraqqiyoti va farovonligi” Davlat dasturi doirasida ta’lim, sog‘liqni saqlash, aholiga turli xil xizmat ko‘rsatish hamda servis sohalari ham rivojlanib bormoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti – Nukus shahrida Qoraqalpog‘iston davlat universiteti, Nukus pedagogika instituti, Toshkent agrar, Axborot texnologiyalari universitetlarining filliallari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq bo‘limi ilmiy tadqiqot institutlari, Toshkent tibbiyot akademiyasi filiali faoliyat ko‘rsatmoqda. Barcha qishloq tumanlarida kasb-hunar kollejlari mavjud. Ammo mintaqada rekreatsiya va turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ozroq. Turizm sohasida Nukus shahri va uning muzeylari, Tuproqqal’a, Sulton Uvays-bobo qadamjo va ziyoratgohi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki tafovutlari. Qoraqalpog‘iston hududi beshta iqtisodiy rayonlarga bo‘linadi: G‘arbiy, SHarqiy, Markaziy, Janubiy va SHimoliy rayonlar. Bunday hududiy tarkib doirasida G‘arbiy, SHimoliy va SHarqiy rayonlarning iqtisodiy va demografik salohiyati ancha past, Markaziy va Janubiy mintaqalar esa birmuncha rivojlangan.

G‘arbiy rayon tarkibiga Qo‘ng‘irot va SHumanoy tumanlari kiradi; rayon Qoraqalpog‘iston hududining 46,0 va aholisining 9,5 foizini tashkil qiladi. G‘arbiy rayon hissasiga Qoraqalpog‘istonning 3,0 foiz sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotining 6,2 foizi mos keladi. Ushbu rayonning “norasmiy” markazi Qo‘ng‘irot shahri (37,1 ming kishi), bu erda asosan yaylov chorvachiligi birmuncha rivoj topgan. SHu bilan birga, yoqilg‘i va kimyo sanoati ham yuksalib bormoqda.

SHimoliy rayon Mo‘ynoq tumanidan tashkil topgan bo‘lib, unga QRning 22,7 foiz maydoni va aholisining atigi 1,7 foizi to‘g‘ri keladi. Rayon Qoraqalpog‘iston sanoat mahsulotining 17,3 foizi, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 0,4 foizini beradi. YAgona shahri – Mo‘ynoq (12,8 ming kishi). Rayonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bevosita Orol muammosi bilan bog‘liq.

Markaziy rayon Nukus shahri hokimiyati, Nukus, Kegeyli, Qonliko‘l va Xo‘jayli tumanlarini birlashtiradi. Hududi QR-ning 2,6 foiz, aholisining 35,9 foiz, sanoat mahsulotining 44,0 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 24,4 foiziga teng. Bu Qoraqalpog‘istonda nisbatan rivojlangan rayon hisoblanadi. Markazi – Nukus shahri. Mintaqa asosini Nukus – Xo‘jayli sanoat tuguni va shu nomdagi shahar aglomeratsiyasi tashkil qiladi. Mazkur rayonda oziqovqat, to‘qimachilik, elektr-energetika sanoati, sholichilik, shahar atrofi qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlangan.

SHarqiy rayon Qorao‘zak, CHimboy, va Taxtako‘pir tumanlaridan iborat. Uning QRda tutgan o‘rni: maydoni 17,5 foiz, aholisi 11,4 foiz, sanoati 2,5, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha 13,1 foiz. Asosiy shahri CHimboyda 50,5 ming aholi yashaydi. Rayonda yaylov chorvachiligi, sholi etishtirish katta ahamiyatga ega. Eng sust rivojlangan qishloq tumanlari ham aynan shu rayonda; investitsiya muhiti yaxshi emas.

Janubiy rayon tarkibiga Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l va Ellikqal’a tumanlari kiradi. Rayon QR hududining 7,1 foizini, aholisining esa 38,5 foizini tashkil qiladi. Bu erda agrosanoat majmuasi, shu jumladan, paxta va sholi etishtirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoati shakllangan. Rayon Qoraqalpog‘istonda sanoat mahsulotining taxminan 27,5 foiz hamda qishloq xo‘jaligining 55,0 foizini ta‘minlaydi. Asosiy shaharlari Beruniy (56 ming) va To‘rtko‘l (58 ming kishi).

Xorazm viloyati. Viloyat 1938 yilda O‘zbekiston Respublikasi tarkibida tashkil topgan. Hozirgi kunda u 10 qishloq tumanlarini o‘z ichiga oladi: Bog‘ot, Gurlan, Urganch, Xiva, Xonqa, SHovot, YAngiariq, YAngibozor, Qo‘shko‘pir va Xazorasp. SHu tartibda viloyat maydoni 6,05 ming km² va bu jihatdan u respublikada faqat Sirdaryo va Andijon viloyatlaridan kattaroq, xolos. Ma‘muriy markazi - Urganch shahri.



Viloyatda urbanizatsiya darajasi past – 33,2 foiz aholi mavjud 3 shahar (Urganch, Xiva va Pitnak) hamda 58 shaharchada yashaydi. Urbanizatsiya ko‘rsatkichi hamda shaharlar soni bo‘yicha u eng oxirgi o‘rinda turadi. Ma‘muriy markazi – Urganchda 137,4 ming, “ikkinchi” shahar - Xivada 59,0 ming kishi istiqomat qiladi.

“Qishloq taraqqiyoti va farovonligi” Davlat dasturi doirasida jami 51 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berildi. Eng ko‘p yangi shaharchalar Gurlan va Xiva tumanlarida tashkil etildi. Gurlan tumanida ular YOrmish, Qarg‘alar, Bo‘zqal’a, Do‘simbiy, Taxtako‘pir, Nukus yop, Markaziy Guliston, CHakkalar, Xiva tumanida – Parchanxos, Suvitliyop, YUqoriququm, Tozabog‘, Usta Xo‘jamad, Qishloq-qishloq, Gullanbog‘, SHo‘rqal’adan iborat. YAngiariq, SHovot, Qo‘shko‘pir, Bog‘ot tumanlarida ham bunday shaharchalar soni ko‘proq – har birida 5-6 tadan. Eng kam yangi shaharchalar YAngibozor tumanida (YAngiyop va Mang‘itlar). Aholi soni bo‘yicha nisbatan yiriklari YAngiariq va Bog‘ot tumanlarining ma’muriy markazlari bo‘lib, ularda, mos ravishda, 11,8 va 10,4 ming kishidan aholi yashaydi.

So‘nggi yillarda vujudga kelgan qishloq urbanizatsiyasi, umuman olganda, ijobiy xususiyatga ega bo‘lib, u, ayni vaqtda, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Bu borada asosiy masala yangi shaharchalarda shaharga xos va mos iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirishdir. YAngi shaharchalarning paydo bo‘lishi bilan viloyat qishloq aholi punktlarining tarkibida ham o‘zgarishlar yuz berdi; qishloqlar soni kamaydi, ularning o‘rtacha aholi ko‘rsatkichi pasaydi, asosan mayda va o‘rta kattalikdagi aholi punktlari qishloq joylar geografiyasi va demografiyasini belgilab beruvchi omilga aylandi.

Viloyatda aholi migratsiyasi respublikaning boshqa hududlariga qaraganda ancha sust. Masalan, 1997 yilda viloyat shahar joylariga atigi 360 kishi kelgan va bu erdan 1980 kishi ketgan (migratsiya qoldig‘i minus 1621); 1998 yilda bu ko‘rsatkichlar yuqoridagilarga mos holda 1890; 3680 va minus 1790 kishini tashkil qilgan. Eng so‘nggi ma’lumotlar ham viloyat qishloq tumanlarida aholi migratsiyasi mamlakatning boshqa hududlariga qaraganda ancha pastligini ko‘rsatadi. 2013 yil yakunlari bo‘yicha migratsiya qoldig‘i viloyat bo‘yicha har 1000 kishiga minus 0,2, bu borada eng yuqori ko‘rsatkich Urganch shahrida – minus 7,8 promille. Ijobiy natijalar Qo‘shko‘pir, SHovot va YAngibozor tumanlariga xos; eng yuqori ijobiy migratsiya qoldig‘i ko‘rilayotgan yilda Urganch tumanida qayd etiladi (3,0 ‰).

Xorazm viloyati demografiyasining yana bir xususiyati shundaki, uning aholisi asosan bir millatli hisoblanadi. Masalan, 2014 yil ma'lumotlariga qaraganda, viloyat aholisining 97,5 foizini o'zbeklar tashkil etgan (qozoqlar – 0,7 %). Albatta, yuqorida keltirilgan aholining o'sishi, joylanishi, tabiiy va migratsiya harakati, milliy tarkibi viloyat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida e'tiborga olinishi kerak. CHiroqchi tumani qaysi viloyatda joylashgan?

Nazorat uchun savollar:

1. Surxondaryo viloyatida urbanizatsiya darajasi necha foiz?
2. Qashqadaryo viloyati ma'muriy jihatdan necha qishloq tumandan tashkil topgan?
3. Rayonning geografik o'rnidagi o'ziga xosliklar nimalarda aks etadi?
4. Iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
5. Surxondaryo viloyati respublika hududining necha foizi to'g'ri keladi?
6. CHorjoy –Qong'iroq temir yo'li qachon ishga tushirilgan?
7. Qoraqalpog'iston respublikasida etnik tarkibida Qoraqolpoqlarning salmog'i qancha ?
8. Aholining hududiy joylashuviga ta'sir etgan omillarni ayting.
9. Nima sababdan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati bir iqtisodiy rayon tarkibiga kiritiladi?
10. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining asosiy muammolari va istiqbolda rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini tariflab bering.

Savol va topshiriqlar:

1. Rayon tabiiy sharoitidagi noqulayliklar nimada deb o'ylaysiz?
2. Nima sababdan rayonda bir necha oiladan iborat bo'lgan qishloqlar tarqalib ketgan deb o'ylaysiz?
3. Rayonning tabiiy resurslarini tez va samarali o'zlashtirish qanday omillarga bog'liq deb o'ylaysiz?
4. Qoraqalpog'iston respublikasida urbanizatsiya darajasi necha foizni tashkil etadi?

5.Xorazm viloyati maydonining kattaligi bo'yicha respublikada nechanchi o'rinda turadi?

6.Qoraqolpog'iston respublikasi ma'muriy jihatdan necha tumandan iborat?

7.Xorazm viloyatida shahar aholisi necha foiz?